

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

BAZAROV SHERALI ABDINAZAROVICH

O‘ZBEK TILINING SOHADA
QO‘LLANILISHI
(O‘quv qo‘llanma)

Qishloq xo‘jaligi ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga mo‘ljallangan

“Surxon-nashr” – 2024

UO‘K:811.512.133(076.5)(0.75.8)

KBK: 81.2Ў36 я73

B 79

Sherali Bazarov. O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi (O‘quv qo‘llanma) — Termiz: “Surxon-nashr”, 2024-y. – 180-bet.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada 60810700 – Agrokimyo va tuproqshunoslik, 60810900 – Agronomiya, 60811000 – O‘simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo‘yicha), 60811100 – O‘simliklar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari karantini, 60811200 – Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi, 60820100 – O‘rmonchilik, 60811700 – Ipakchilik va tutchilik, 60811800 – Mevachilik va uzumchilik, 60811900 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik, 60812000 – Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish ta’lim yo‘nalishlari uchun O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi fanidan amaliy mashg‘ulotlar keltirilgan. O‘quv qo‘llanmada jami 24 ta amaliy mashg‘ulotlar uchun amaliy mashg‘ulotga oid ma’lumotlar, dars davomida bajarish uchun har bir mavzu yuzasidan mashqlar keltirilgan, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bayon etilgan bo‘lib, yuqorida keltirilgan ta’lim yo‘nalishlari uchun o‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi fani o‘quv dasturlariga to‘liq mos keladi.

ISBN:978-9910-9492-8-9

© Sherali Bazarov

© “Surxon-nashr”, 2024-y

KIRISH

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayoti va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoniga muvofiq oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kafedralari sonini 2025-yilga qadar 120 taga, 2030-yilgacha esa 140 taga yetkazish belgilandi. Barcha oliy o'quv yurtlarida "O'zbek tilining sohada qo'llanilishi" fani dars sifatida o'tilishi ta'kidlab o'tildi.

O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida chiqarilgan qonunida, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan chiqarilgan qarorlarda, Oliy o'quv yurtlarida, shu jumladan, qishloq xo'jalik universitetlari hamda institutlarida hozirgi zamon talablariga javob beradigan, ma'naviy yetuk, kasbiga fidoyi mutaxassislar yetishtirish asosiy vazifa qilib qo'yilgan.

Shuning bilan bir qatorda qishloq xo'jalik sohasi o'quv yurtlari uchun O'zbek tilining sohada qo'llanilishi fanidan ajratilgan amaliy mashg'ulot darslari kam miqdorda bo'lganligi tufayli ularning chuqur bilim olishlari uchun mustaqil ish bajarishning ahamiyati juda kattadir. Shu boisdan mazkur o'quv qo'llanma katta ahamiyat kasb etish bilan bir qatorda talabalar uchun o'zbek tilining sohada qo'llanilishi fanidan mustaqil ish topshiriqlarini bajarib o'rganishda yaqindan yordam beradi.

Mazkur o'quv qo'llanma qishloq xo'jaligi institutlarida ta'lim olayotgan 60810700 – Agrokimyo va tuproqshunoslik, 60810900 – Agronomiya, 60811000 – O'simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo'yicha), 60811100 – O'simliklar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari karantini, 60811200 – Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi, 60820100 – O'rmonchilik, 60811700 – Ipakchilik va tutchilik, 60811800 – Mevachilik va uzumchilik, 60811900 – Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshka-chilik, 60812000 – Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish ta'lim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan. O'zbek tilining sohada qo'llanilishi fanidan namunaviy o'quv dasturi asosida tuzildi. Bu uslubiy ko'rsatmada qishloq xo'jaligi instituti talabalari uchun qisqacha ma'lumotlar va mustaqil ish topshiriqlari keltirilgan bo'lib, undan tashqari ko'rsatma sifatida har bir yozma topshiriqdan bittadan namuna sifatida gaplar tahlil qilib ko'rsatilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma tuzishdan asosiy maqsad qishloq xo'jalik institutlarida tahsil olayotgan talabalarni o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan yetuk mutaxassislar tayyorlash ishiga hissa qo'shishdan iborat.

Muallif

1-amaliy mashg'ulot:

UMUMXALQ TILI VA ADABIY TIL. O'ZBEK TILINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Reja:

1. Til – eng muhim aloqa vositasi.
2. Til – ijtimoiy hodisa.
3. Til va nutq.

Tayanch so'z va iboralar: Til va tafakkur, ijtimoiy hodisa, yozuv, shartli belgilar, imo-ishoralar, qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o'zbek adabiy tili va hozirgi o'zbek adabiy tili.

Har bir xalq hozirgi darajasiga yetgunga qadar juda muhim taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan. Biz yashab turgan zaminda azaldan yashab kelgan nayman, uyshin, o'g'uz, qipchoq, uyg'ur, barlos, ming, yuz, qirq kabi qabilalar o'zbek xalqining shakllanishida muhim o'rin tutgan. Yurtimizning qayeriga borsangiz, jaloyir, darxon, kenagas, nayman, bahrin kabi urug' yoki joy nomlariga duch kelamiz. Bu nomlar shu joylarda avval ham qabila vakillarining yashab o'tganligidan dalolat berib turadi.

Jumladan, “qipchoq” atamasi ham bunga misol bo'la oladi. Qipchoqqishloq, Qipchoqovul, Qipchoqariq, Qipchoqmahalla kabi nomlar har bir hududda, hatto har bir jamoa xo'jaligida mavjud. O'zbek xalqining shakllanishida qipchoq qabilalari munosib o'rin tutadi. Bu gapni qorluq-chigil-uyg'ur, o'g'uz qabilalariga nisbatan ham aytish mumkin. Aytadilarki: “O'tmishini unutgan, avlod-ajdodlarini bilmagan insonlarning quldan farqi yo'qdir”.

Har bir narsa qismlardan tashkil topganidek tillar ham oilalarga bo'linadi. Til oilalari shu oilaga asos bo'lgan til nomi bilan yuritiladi.

O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari quyidagi davrlarga bo'linadi:

- 1) qadimgi turkiy til;
- 2) eski turkiy til;
- 3) eski o‘zbek adabiy tili;
- 4) hozirgi o‘zbek adabiy til kabi.

O‘zbek, uyg‘ur, qirg‘iz, qozoq kabi tillarning turkiy til deyilishiga sabab shuki, ularning hammasi qadimgi turkiy tildan ajralib chiqqan. Barcha turkiy tillar (o‘zbek, uyg‘ur, qirg‘iz, qozoq, turkman, ozarbayjon, usmonli turk, tatar, xakas, yoqut va boshq.) uchun qadimgi turkiy til umumiy til hisoblanadi. Qadimda mo‘g‘il va tungus-manjur tillari bilan turkiy tillar birgalikda bitta oilani tashkil qilgan va bu til oltoy tili deb nomlangan. Vaqt o‘tishi bilan oltoy tili tarmoqlarga bo‘lingan.

Qoraxoniylar davriga oid lingvistik asar Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit-turk” asaridir. Asarda turkiy qadimgi tillarning fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, dialektal xususiyatlari batafsil yoritilgan manbadir. Shuningdek, turkiy xalqlarning xalq og‘zaki ijodi namunalaridan darak beruvchi badiiy asardir.

Mahmud Qoshg‘ariy birinchilardan bo‘lib barcha turkiy tillarning bir necha guruhleri tasniflanishini, ular o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlagan holda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka asos solgan olimdir. Bu davrdagi ikkinchi yirik yozma yodgorlik — bu Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Baxt keltiruvchi bilim”) asaridir. “Qutadg‘u bilig” yirik badiiy-tarbiyaviy asar hisoblanadi. Shu davrga mansub, Xo‘ja Ahmad Yassaviyning hikmatlari, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarlari eng buyuk adabiy durdonalardir. Bundan tashqari, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Turdi Farog‘iy, Boborahim Mashrab, Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat, Muhammad Aminxo‘ja Muqimiylarning eski o‘zbek tilini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishda xizmatlari katta. Alisher Navoiy “Muhokamat-ul lug‘atayn” asarida turk tili, ya’ni o‘zbek tili haqida muhim ma’lumotlar bergan. U o‘zbek tilini xazina deb bildi. Xazinani ilonlar va tikanlar o‘rab turganligini

ta'kidladi. Navoiy eski o'zbek adabiy tilini ana shu "ilon"lardan va "tikan"lardan tozalab berdi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili 20-asrning boshidan to shu kungacha muomala jarayonida qo'llanilayotgan tildir. Biz bilan zamondosh yashayotgan barcha yozuvchi, shoir, bastakor, olim va boshqaqalar shu til shaklidan foydalanmoqdalar.

Olimlarning e'tirof etishicha, yer yuzida 3000 dan ortiq, ba'zi manbalarda esa 7000 ga yaqin til mavjudligi aytib o'tiladi. Mavjud tillarning hammasi ham adabiy til sifatida shakllanmagan. Umumxalq tili adabiy til sifatida shakllanishi uchun ma'lum bosqichlarni bosib o'tishi kerak bo'ladi. Har bir millat va elatga tegishli bo'lgan til shu xalqning umumiy tili (umumxalq tili) hisoblanadi. O'zbek xalqi uchun "o'zbek tili", qozoq xalqi uchun "qozoq tili", tojik xalqi uchun "tojik tili". O'zbek umumxalq tili tarkibida lahja, sheva, efemizm chegaralangan so'zlar mavjud. Jumladan, "sheva" – ma'lum bir hududda qo'llanilib, shu hudud aholisi uchungina tushunarli bo'lgan umumxalq tilining qismidir. Masalan, Toshkent shevasi, Sherobod shevasi, Xorazm shevasi kabi. Bir-biriga yaqin shevalar yig'indisi – "lahja" deyiladi. Umumxalq tilida 3 ta lahja mavjud: qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalari. Adabiy til tarkibida lahja va sheva tushunchalari bo'lmaydi.

Umumxalq tili adabiy til bo'lishi uchun:

- a) hamma uchun tushunarli bo'lishi;
- b) o'z yozuviga ega bo'lishi;
- c) qonun-qoidaga bo'ysundirilgan bo'lishi lozim.

Adabiy til – bir guruh yozuvchi, shoir va mutaxassis olimlar tomonidan umumxalq tilining ma'lum qismi qayta ishlangan, sayqal berilgan hamda ma'lum qonun-qoidaga bo'ysundirilgan shakli.

1-mashq. Mahmud Qoshg'ariy va Yusuf Xos Hojib ijodiga bag'ishlangan matn yozasiz. Matnda qadimgi turkiy til, eski turkiy til namunalarini keltiring.

2-mashq. O‘zingiz istiqomat qiladigan hududda qo‘llaniladigan shevaga oid so‘zlardan 15 tadan yozasiz.

Amaliy mashg‘ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Umumxalq tili deb nimaga aytiladi?
2. Qadimgi turkiy til va eski turkiy til qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi?
3. Eski o‘zbek adabiy tili qaysi davrlargacha qo‘llanilgan?
4. Adabiy til – bu?

2-amaliy mashg‘ulot:

FONETIKA VA GRAFIKA. GRAFIKANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Nutq organlari va nutq tovushlari.
2. Unli va undosh tovushlar va ularning tasnifi.
3. Tovush o‘zgarishlari.
4. Yozuv va uning tarixi.

Tayanch so‘z va iboralar: *faol organlar, nafaol organlar, unli tovushlar, undosh tovushlar, tovush tushishi, tovush orttirilishi, tovush almashinuvi, avesto yozuvi, mixxat yozuvi, o‘rxun-enasoy yozuvi, arab yozuvi, kirill va lotin yozuvlari.*

Nutqimizda real talaffuz qilingan, eng kichik va boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan til birligiga tovush deyiladi. Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan organlar nutq organlari deyiladi. Nutq organlari nutq tovushlarini hosil qilishdagi ishtirokiga qarab o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi:

- a) faol organlar (lablar, un paychalari va til);
- b) nafaol organlar (burun, tish, qattiq tanglay).

Nutq tovushlari quyidagi xususiyatlariga:

- 1) o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchrash yoki uchramasligiga;

2) faqat ovoz (un)dan yoki ovoz va shovqindan hosil bo'lganligiga;

3) cho'zilish imkoniyatiga, ya'ni musiqiy ohangdorligiga ega yoki emasligiga;

4) alohida o'zi bo'g'in hosil qilish yoki qilmasligiga;

5) urg'u qabul qilish yoki qilmasligiga ko'ra farqlanadi.

Demak, o'pkadan chiqayotgan havo oqimining og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchrash yoki uchramasligiga, ko'ra: 1) unli tovushlar; 2) undosh tovushlarga bo'linadi.

Unli tovushlarni talaffuz qilganimizda, o'pkadan chiqayotgan havo oqimi og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramaydi. Faqat ovoz (un)dan iborat bo'lgan va bo'g'in hosil qiladigan tovushlarga unli tovushlar deyiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida oltita unli tovushlar mavjud: *i, u, e, o', o, a*.

Unli tovushlar 3 tomonlama tasnif qilinadi:

1) tilning vertikal (tik) holatiga ko'ra:

a) yuqori tor: *i, u*;

b) o'rta keng: *e, o'*;

c) quyi keng: *a, o* kabi.

2) tilning gorizantal holatiga ko'ra:

a) til oldi: *i, e, a*;

b) til orqa: *u, o', o* kabi.

3) lablarning ishtirokiga ko'ra:

a) lablanmagan: *i, e, a*;

b) lablangan: *u, o', o* .

O'pkadan chiqayotgan havo oqimi og'iz bo'shlig'ida ma'lum bir to'siqqa uchraydigan, shovqin hosil qiladigan va bo'gin hamda urg'u hosil qilolmaydigan tovushlarga undosh tovushlar deyiladi. O'zbek adabiy tilida undosh tovushlar 24 ta: *b, d, f, g, h, j, j (dj), k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng*. Undosh tovushlar quyidagicha tasnif qilinadi:

I. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra:

1. Lab undoshlari:

a) lab-lab undoshlari: p, b, m;

b) lab-tish undoshlari: v, f.

2. Til undoshlari:

a) til oldi undoshlari: z, s, sh, d, t, n, l, r, j, j (dj), ch;

b) til o‘rta undoshi: y;

d) til orqa undoshlari: k, g, ng;

e) chuqur til orqa undoshlari: g‘, q, x.

3. Bo‘g‘iz undoshi: h.

II. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra:

a) portlovchilar: m, n, ng, b, p, d, t, g, k, j (dj), q;

b) sirg‘aluvchilar: x, h, j, v, f, s, z, y, r, l, sh, g‘,;

d) qorishqlar: ch.

III. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra:

1. Jarangli undoshlar: b, v, g, d, z, j, (dj), j, y, g‘, l, r, m, n, ng.

2. Jarangsiz undoshlar: s, ch, p, f, k, t, q, x, h, sh.

IV. Ovoz va shovqinning miqdoriga ko‘ra:

1. Sonorlar: m, n, ng, l, r.

2. Shovqinlilar: b, v, g, d, z, j (dj), j, y, g‘, s, ch, p, f, k, t, q, x, h, sh.

Sonor tovushlar ham alohida tasniflanadi: **m, n, ng** burun tovushlari; **l** yon tovush, **r** titroq tovushi.

Bir nafas havo zarbi bilan aytilgan tovush yoki tovushlar birikmasiga bo‘g‘in deyiladi. Ilk savod chiqarishimizda hamda yozuvda bo‘g‘in muhim ahamiyatga ega. So‘zda qancha bo‘g‘in borligini unli tovushlar miqdoriga qarab aniqlaymiz.

Masalan: u yoki un so‘zida bitta bo‘g‘in bor, daftar so‘zida ikkita bo‘g‘in mavjud. O‘zbek tilidagi so‘zlar *bor*, *bur*, *ayt* kabi bir bo‘g‘inli, *falak*, *qadrdon*, *visol* so‘zlaridek ikki bo‘g‘inli, *natija*, *xayolot*, *muqaddas* singari uch bo‘g‘inli, *dorixona*, *duduqlamoq*, *hovlimizda* kabi to‘rt bo‘g‘inli, *gultojixo‘roz*, *qoraytirilmoq*, *qurolsizlantirish*, *tushuntirishimizni* kabi besh va undan ortiq bo‘g‘inli bo‘ladi.

Soʻzlar qanday tovush bilan tugashiga qarab:

a) ochiq boʻgʻin: da-la, Ma-li-ka, de-ra-za;

b) yopiq boʻgʻin: doʻst-lik, qish-loq, ish-chan kabi boʻgʻinlarga boʻlinadi.

Ogʻzaki nutqimizni nutq tovushlari orqali ifodalasak, yozma nutqimizni harflar yordamida amalga oshiramiz. Oʻzbek tilida harflar, yaʼni yozuvni oʻrganadigan hamda oʻrgatadigan tilshunoslik boʻlimi **grafika** deyiladi.

Boshqa xalqlar singari oʻzbek xalqi ham qadimda bir qancha yozuv turlaridan foydalanishgan. Avesto, sugʻd, oʻrxun-enasoy, xorazm, uygʻur yozuvlari shular jumlasidandir. Albatta yozuvlarda xalqimizning buyuk tarixi, hozirgi kungacha saqlanib kelayotgan urf-odatlari, oʻlmas madaniyati va betakror sanʼatiga aloqador boʻlgan muhim maʼlumotlar saqlanib kelinmoqda.

Shu kunga qadar ota-bobolarimiz bir qancha yozuv namunalaridan foydalanishgan. Jumladan, miloddan avvalgi asrlardan milodiy VI asrgacha avesto, mixxat, suryoniy, soʻgʻd hamda pahlaviy yozuvlarini qoʻllashgan. VI-VIII asrlar oraligʻida Oʻrxun-Enasoy yozuvidan foydalanishgan. VIII asrdan to XX asrning boshlarigacha, yaʼni 1929-yilgacha arab yozuviga asoslangan eski oʻzbek yozuvini qoʻllashgan. 1929-1940-yillar oraligʻida lotin yozuvi muomalada boʻlgan. 1940-yildan hozirgi kungacha kirill yozuvidan foydalanishmoqda. Mustaqillik yillarida barcha sohada boʻlgani kabi yozuv ham isloh qilindi. 1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuvini joriy etish toʻgʻrisida” qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-may sanasida Oʻzbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida”gi qonuniga oʻzgartishlar kiritish haqida qonuni qabul qilindi. Unga koʻra alifbo 26 ta harf, uchta harfiy birikma hamda 1 ta tutuq belgisidan iborat deb belgilandi.

Fonetik tahlil namunasi:

1. Soʻzda nechta tovush bor?
2. Unli hamda undosh tovushlar aniqlanadi.
3. Tovush tushishi, tovush almashinuvi va tovush orttirilishi

aniqlanadi.

4. Ochiq va yopiq bo‘g‘inlar miqdori aniqlanadi.
5. Urg‘ular so‘z yoki gap urg‘usiga ajratiladi.
6. So‘z qaysi tamoyil bo‘yicha yozilganligi tekshiriladi.

1-mashq. Matn ko‘chiring. Ochiq bo‘g‘inlar va yopiq bo‘g‘inlar miqdorini aniqlang.

Ijodkor mehnati

Shoir har kuni aqalli bitta she‘r yozishi kerak, adib har kuni aqalli bitta sahifani to‘ldirishi kerak, degan gaplar yuradi.

Chindan ham tikuvchi har kuni aqalli bitta ko‘ylak tikadi. Oshpaz har kuni aqalli bir qozon osh damlaydi. Novvoy har kuni aqalli bir tandir non yopadi... Shunday ekan, shoir nega har kuni aqalli bitta she‘r yozmasligi kerak?

Shunaqa-ku... Tikuvchi do‘kondan tayyor mato olib, tayyor bichim bilan ko‘ylak tikadi. Oshpaz bozordan tayyor masalliq olib, tayyor qozonda osh damlaydi. Novvoy qopdan tayyor un olib, tayyor tandirda non yopadi...

Qalamkash esa “mato” bilan “bichim”ni ham, “masalliq” bilan “qozon”ni ham, “un” bilan “tandir”ni ham o‘zi yaratishi kerak. Boshqalar bor joydan bor qilsa, ijodkor yo‘q joydan bor qiladi. Buning uchun esa Xudo bergan iste‘dod, Xudo ko‘ngliga solgan ilhom kerak!

(“Ma‘rifat”dan)

2-mashq. Har bir talaba 20 tadan 4 bo‘g‘indan iborat so‘zlarni yozadi.

Namuna: kitobxonlar

Amaliy mashg‘ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Fonetika bo‘limi nimani o‘rgatadi?
2. Nutq organlari haqida ma‘lumot bering.
3. Unli tovushlarni tasniflang.
4. Undosh tovushlarning farqli jihatlarini tavsiflang.

3-amaliy mashg'ulot:

SO'ZLARNING MA'NOLI QISMLARI

Reja:

1. So'z yasovchi qo'shimchalar.
2. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar.
3. Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar.

Tayanch so'z va iboralar: *affiks, o'zak, negiz, so'z yasovchi qo'shimchalar, lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar.*

So'zlarning tarkibi, ya'ni ma'noli qismlarini o'rgatuvchi tilshunoslik bo'limiga morfemika deyiladi. So'zning o'zak qismiga asos hisoblanadi. Asosga ko'makchi morfemalar qo'shilishi natijasida har xil ma'nolar hosil bo'ladi. Jumladan: *ish-la, ish-chi, ish-lar, ish-ga, ish-siz, ish-siz-lik* kabi so'zlarning o'zak qismi "ish" so'zidir, ammo ko'makchi morfemalar qo'shilishi bilan ma'nosi o'zgarib bormoqda. Asosan turkiy tillarda, jumladan, o'zbek adabiy tilida ham asos (o'zak) odatda birinchi bo'lib keladi. Masalan: *kitob-xon, uloq-cha* kabi.

Bir o'zak asosdan yasalgan so'zlar o'zakdosh sanaladi: *o'rindosh, o'rinsiz, noo'rin* singari. Ba'zan asosdan oldin ham qo'shimcha qo'shilishi mumkin. Bunday so'zlar olinma so'zlar hisoblanadi. Masalan: *bemehr, noto'g'ri, serhosil, badavlat*. Bu kabi qo'shimchalar sifat so'z turkumida uchraydi.

Asosda qo'shimcha qo'shilishi bilan o'zgarish ro'y berishi mumkin.

1. Tovush orttiriladi: *u-da, shu-dan, bu-ga, unda, shundan bunga* kabi.

2. Tovush tushadi: *sust-ay, o'rin-a, past-ay; susay, o'rna, pasay*.

3. Tovush o'zgaradi: *son-a, quvna-q, ong-la, sana, quvnoq, angla*.

Qo‘shimchalar qo‘shish yo‘li bilan yangi ma’no hosil qilinishi so‘zning doimo ikki qismdan iborat bo‘lishini talab qiladi:

1. So‘z yasashga o‘zak qism.
2. Yasovchi qism.

Yasovchi qismni tashkil etgan qo‘shimchalar so‘z yasovchi qo‘shimchalar deyiladi. Masalan, *kitobxon* so‘zi *kitob* so‘ziga *-xon* so‘z yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan. *Gulchi*, *gulla* so‘zlarining yasaliş o‘zagi bir xil. Bir o‘zakdan hosil bo‘lgan so‘zlar so‘z yasaliş uyasini tashkil etadi.

O‘zak asosga qo‘shilib, yangi tushuncha hosil qilmaydigan, so‘zlarga qo‘shimcha ma’nolar yuklaydigan qo‘shimchalar lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar deyiladi. Masalan, *momiq-voy*, *Abror-jon*, *o‘qi-sh* kabilar.

O‘zak asosga yoki negizga qo‘shilib tubdan yangi ma’no hosil qilmaydigan, qo‘shimcha ma’no bermaydigan, balki so‘zlarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan qo‘shimchalar sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar deyiladi: institut-ga, qishloq-qa, bor-a-man kabi.

Morfemik tahlil namunasi:

1. O‘zak va qo‘shimchalarga ajratiladi.
2. Qo‘shimchalar vazifasiga qarab tasniflanadi.
3. Qo‘shimchalar o‘rniga qarab tasnif qilinadi.
4. Qo‘shimchalar tuzilishiga qarab ajratiladi.
5. Qo‘shimchalar tartibi aniqlanadi.

1-mashq. Quyida berilgan matndagi so‘zlarni ma’noli qismlarga ajrating. Ko‘makchi morfemalarga ta’rif bering.

Ilmning afzalligi

Qadimgi Yunonning eng buyuk faylasufi Arastu o‘limiga yaqin o‘g‘lini chaqirib shunday debdi:

– Bolajonim, o‘z umrimni ilm-u hikmatning sirlaridan voqif bo‘lish yo‘lida sarf qildim. Ilm-u hikmat nuri bilan juda ko‘p tugunlarni yechdim, ammo o‘limga kelganda chora topolmadim.

Senga qiladigan vasiyatim shuki, o‘g‘lim, mol-davlat orqasida orttirgan izzat-obro‘da baqo yo‘q. Izzat-hurmat, shon-sharaf

ilmda. Ilm orqasida qo‘lga kiritilgan shon-sharaf fano va zavolni bilmaydi, davlat va siyosatning o‘zgarishi unga ta’sir qilmaydi.

O‘g‘lim, shohlar sening otangni ilmi tufayli ulug‘lashdi, bo‘lmasa, otang ham ular qaramog‘idagi bir odam edi. Shohlar tobeligidagi odamlar shohlarga ta’zim qilishadi va sig‘inishadi. Obidlar va ma’budlar orasida yer bilan osmoncha farq bor. Otangning ilmi bo‘lmaganda, uning podshohlar uchun kitob ortilgan eshakdan farqi qolmasdi. Ularga sig‘inadigan va xizmatini bajo keltiradigan bir g‘ulom bo‘lar edi, xolos.

Izzat-ehtiromga loyiq bo‘lay, nomim abadiy qolsin desang, ilm orttir!

(Muhammad Avfiy)

2-mashq. Matndagi mavjud qo‘shimchalarni vazifasiga qarab ajrating.

BAHOR QAYTMAYDI

Bo‘ston qishlog‘iga og‘ir-vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi. Tumanlik qo‘ynida jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og‘ushida junjikkan seryulduz oqshomlar boshlandi. Havoga yelpig‘ichday qat-qat bulutlar chiqdi. Quyoshning iliq, tansiq nurlari odamlarga xush yoqadigan bo‘lib qoldi. Havoda ananas isi aralash yong‘oq xazonlarining o‘tkir hidi gurkiradi. Yoz bo‘yi meva tugish dardida yashnagan bog‘lar, shodon shovillagan terakzorlar hayotning mangu, beshafqat haqiqati oldida o‘ychan, g‘amgin bosh egdi. Chor atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga to‘ldi.

Sumbula tug‘di. Qishloqni halqaday o‘rab oqayotgan anhor birdan tiniqlashdi. Telba to‘lqinlar endi jilovlanib, yuvosh bo‘lib qoldi.

Odamlar qilichini ko‘tarib kelayotgan qishdan cho‘chiganday shosha-pisha harakatga tushdilar. Kimdir chorbog‘idan o‘tin arraladi, kimdir qo‘shnisining tom suvog‘iga hasharga chiqa boshladi.

Hamma yagona bir tashvish bilan – kuz tashvishi bilan turib, kuz tashvishi bilan yotadigan bo‘ldi.

Amaliy mashg‘ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Morfemika bo‘limi nimani o‘rgatadi?
2. O‘zak asos nima?
3. So‘z yasovchi qo‘shimcha bilan shakl yasovchi qo‘shimcha farqi?

4-amaliy mashg‘ulot:

LEKSIKOLOGIYA. SO‘Z VA UNING ATASH MA’NOLARI

Reja:

1. So‘z va leksema.
2. So‘z ma’nosining ko‘chish yo‘llari.
3. So‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari.

Tayanch so‘z va iboralar: leksema, monosemantik so‘zlar, polisemantik so‘zlar, omonim so‘zlar, sinonim so‘zlar, antonim va paronim so‘zlar.

O‘zbek tilida so‘z va leksema tushunchalarini o‘rganadigan bo‘lim – leksikologiya bo‘limidir. Ma’lum bir ma’no bilan bog‘langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar jamlanmasi so‘z deyiladi. So‘z – lug‘aviy va grammatik ma’nolarini ifodalaydi. Atash ma’nosini ifoda qilgan so‘zlar leksik, lug‘aviy ma’noga ega bo‘lgan so‘zlardir. Masalan, doska so‘zi – o‘quv quroli ma’nosini ifodalashi uning atash (lug‘aviy, leksik) ma’nosi hisoblanadi, ot so‘z turkumi, turdosh ot, aniq ot, birlikda, jamlovchi ot ma’nolari esa grammatik ma’no hisoblanadi. Odatda, leksik va grammatik ma’nolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlikka nisbatan so‘z atamasi qo‘llaniladi. Grammatik ma’nosiz, faqat leksik ma’no bildiruvchi til birligi uchun leksema atamasi

qo‘llaniladi. Bunday vaqtda so‘z morfologiya birligi sifatida, leksema esa leksikologiya birligi sifatida bir-biridan farqlanadi.

Tilimizda shunday so‘zlar borki, doimo bir ma’noda qo‘llaniladi. Masalan, daftar, stol, institut kabi. Bir ma’noni ifodalovchi so‘zlar monosemantik so‘zlar deyiladi.

Ba’zi so‘zlar o‘z va ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Jumladan, **yoqa** so‘zi – ko‘ylakning yoqasi o‘z ma’nosida, ariqning yoqasi esa ko‘chma ma’no hisoblanadi. So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari ko‘p ma’nolilikni keltirib chiqaradi, ya’ni polisemantik so‘zlar deyiladi. Polisemiya yunoncha “*poli*” — “*ko‘p*”, “*semia*” — “*ma’no*” so‘zlaridan olingan bo‘lib, ko‘p ma’noli demakdir. Polisemiya monosemiya (yunoncha “*mono*” — “*bir*”, “*semia*” — “*ma’no*”)ga zidlanadi.

So‘z ma’nosining ko‘chish yo‘llari quyidagilar:

I. Metafora (yunoncha “*metaphora*” — “ko‘chirish”) bir narsa-predmet nomining boshqa narsa-predmet nomiga ma’lum bir o‘xshashlik asosida ko‘chishidir. Masalan, *choynakning burni* birikmasida *burun* so‘zining ma’nosi odam yoki hayvon burniga tashqi o‘xshashligi asosida vujudga keladi.

1. Tashqi o‘xshashligi asosida. Masalan, *oltin soat* hamda *oltin kuz*.

2. Joylashish o‘rni o‘xshashligi. Masalan, *qo‘shni inson* va *qo‘shni dala*.

3. Xususiyat o‘xshashligi. Masalan, *shirin ovqat*, *shirin suhbat* va boshqalar.

II. Metonimiya yunoncha “*metonymia*” — “qayta nomlash” deyiladi. Bir narsa-predmet hamda hodisalar o‘rtasida zamon va makon hamda o‘zaro aloqadorlik asosida ma’no ko‘chishi metonimiya hisoblanadi. *Abdulla Oripovni o‘qidim* deganda Abdulla Oripov she’rlarini o‘qish tushuniladi.

III. Sinekdoxa yunoncha “*synecdoche*” — “birga anglamoq” so‘zidan olingan bo‘lib, qism orqali butunni yoki butun orqali qismni ifodalashni bildiradi. *Ular tirnoqqa zor o‘tdilar* gapida *tirnoq* so‘zi *farzand* so‘zi ma’nosida qo‘llanilgan.

IV. Narsa va hodisalar o'rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalanishi vazifadoshlik asosida ma'no ko'chish deyiladi. Vazifadoshlik asosida vujudga kelgan so'zlarni bilish, ularning ilgari qanday shakldagi narsalarni ifodalaganligini anglash tilimiz imkoniyatlarining naqadar boy ekanligini his qilishimizga yordam beradi.

Tilimizda tovush (yozuvda harflar) tomoni bir xil bo'lib, turlicha ma'nolarni ifodalovchi so'zlar va qo'shimchalar mavjud. Bunday so'z va qo'shimchalarning omonimlar (lot. "homos" — "bir", "onuma" — "nom") yoki shakldoshlar deyilishidan xabaringaz bor. Masalan, ot "hayvon", ot "ism", ot "irg'it" kabi. Shuningdek, tilimizda qo'shimchalar o'rtasida ham shakldoshlik munosabatlari mavjud. Masalan, -chi qo'shimchasi so'z yasovchi qo'shimcha (ishchi, suvchi) hamda yuklama (sen-chi, ayt-chi) ma'nolarida ishlatiladi. Shunga ko'ra, omonimlar lug'aviy (leksik) omonimlar hamda affiks omonimlarga bo'linadi.

Lug'aviy (leksik) omonimlar nutq jarayonida so'z o'yini uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, zakiylik san'atida ulardan o'rinli foydalanish askiyachilarning mahorati sanaladi.

Masalan, Abdulhay Maxsum Navbahor payrovi bo'yicha askiyada: *"Ikkovlaring ham o'ta dangasasizlar. Yakshanba kuni olma bog'ga kirib, daraxtlarni oqlaymiz", desam, "Bizni ish kam joyga yetaklang", deysizlar.* Bu o'rinda *ish kam* "uzum ko'tarib turadigan moslama" va "ish kam" ma'nolarini bildirish uchun qo'llangan yoki G'ulomjon Ro'ziboyev *cho'tir* so'zining tovush tomonining bir xilligidan foydalanib, ikki so'z o'rnida ishlatadi:

"Bir gap eshitib qoldim. Saydullaxon choyxonada nasiyaga muomala qilib, idoraga pul topshirmagan ekan, hisobchilar o'zini o'tqazib olib, "cho'turyapti" deb eshitdim". Bu o'rinda *cho'tir* so'zi: 1. Bujur; 2. Cho't ur ma'nolarida ishlatilgan.

O'zbek tilida leksik omonimlar ko'p ishlatilganligi sababli, u maxsus she'riy janr — tuyuqqa ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Bir umumiy ma'noni ifodalovchi so'z yoki qo'shimchalarga sinonimlar deyiladi. O'zaro sinonimik munosabatda bo'lgan so'z

va qo‘shimchalar sinonimlar uyasi yoki sinonimlar qatori deyiladi. So‘z maqomidagi sinonimlar lug‘aviy (leksik) sinonimlar, qo‘shimcha maqomidagi sinonimlar esa affiks sinonimlar sanaladi. Lug‘aviy sinonimlar garchand bir umumiy ma‘noni bildirsa ham lekin ularning ma‘no darajasi, ijobiy yoki salbiy bahoga egaligi, ma‘lum uslubga xoslanishi bilan bir-biridan farqlanadi. Nutqiy jarayonda so‘zlovchi maqsadiga muvofiq ravishda sinonimlar qatoridagi so‘zlardan birini tanlaydi. Masalan, yuqorida keltirilgan sinonimlar qatorida yuz so‘zidan chap tomondagi to‘rtta so‘zda (*oraz, uzor, ruxsor, chehra*) ijobiy baho va uchtasida (*oraz, uzor, ruxsor*) badiiy uslubga xoslanish belgisi bo‘lsa, o‘ng tomonidan beshta so‘zda (*bet, aft, bashara, nusxa, turq*) salbiy baho munosabati mavjud va bu salbiy baho ularda darajalanib, kuchayib boradi (*betga* nisbatan *aftda* salbiy baho kuchliroq, *turqda* esa hammasidan kuchliroqdir. Demak, bu beshta so‘zda salbiy baho kuchayib boradi).

Har qanday uslubiy xoslanish va so‘zlovchining bahosidan xoli bo‘lgan sinonimlar qatori a‘zosi *dominanta* (uslubiy xoslanish va baho bildirishga ko‘ra neytral) sanaladi. Demak, yuqoridagi sinonimlar qatorida yuz *dominanta* sanaladi.

Sinonimlar qatori a‘zolaridan nutq jarayonida o‘rinli foydalanish so‘zlovchining maqsadini aniq, ravon va ta‘sirchan ifodalashda katta ahamiyatga ega.

O‘zaro zid ma‘noli so‘z va qo‘shimchalarga antonimlar deyiladi. So‘z maqomidagi antonimlar lug‘aviy (leksik) antonimlar, qo‘shimcha maqomidagi antonimlar esa affiks antonimlar sanaladi. Nutqimizda lug‘aviy (leksik) antonimlardan foydalanish fikrimizni ta‘sirli ifodalashda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, badiiy adabiyotda zid ma‘noli so‘zlarni bir-biriga zidlash asosida badiiy san‘at hosil qilinadi. Bunday san‘atga tazod san‘ati deyiladi.

1-mashq. Gaplarni o‘qing, sinekdoxa yoki vazifadoshlik usuli bilan so‘z ma‘nosi ko‘chirilgan o‘rinlarni topib, izohlang.

1. Sekinroq gapiring, aylanay, devorning ham qulog'i bor.
2. Hozirgi yoshlarimizga ko'z tegmasin, ular bizdan ko'ra aqlliroq, bilimdonroq bo'lib o'sishyapti. 3. Guruhimizning birlashishi uchun unga bir bosh kerak bo'lib qoldi.
4. Samolyotning qanoti o'ta pishiq materialdan ishlangan.
5. Kechagi futbol bahsida O'zbekistonning qo'li baland keldi.
6. Olimpiadada birinchilikni bu gal Buxoro olib ketdi.
7. Avtomobilning eshigini ochib do'stini chiqarib oldi.
8. Askarlarimiz Vatan sarhadlarini ko'z bo'lib, quloq bo'lib tun-u kun sergaklik bilan qo'riqlamoqdalar. 9. Bu xushxabarni do'stlaringa yetkazish uchun oyoq bo'lib yugurdim.

2-mashq. Berilgan maqollarni ko'chiring. Antonimlarning ostiga chizing.

1. Birlashgan daryo bo'lur, tarqalgan irmoq bo'lur. 2. Bolali uy — bozor, bolasiz uy — mozor. 3. Bor maqtansa topilur, yo'q maqtansa chopilur. 4. Do'st achitib gapirar, dushman — kuldirib. 5. Yomonning yaxshisi bo'lguncha, yaxshining yomoni bo'l. 6. Yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi. 7. Kam gapirsang, ko'p eshitasan. 8. Oyoq kiyiming tor bo'lsa, dunyoning kengligidan ne foyda. 9. Erni er qilgan ham xotin, qaro yer qilgan ham xotin. 10. Qo'y bir terining ichida necha ozib, necha semiradi. 11. Holvani hokim yer, kaltakni yetim yer. 12. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

Amaliy mashg'ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. So'zning atash ma'nosi – bu?
2. Metafora va metonimiya haqida batafsil ma'lumot?
3. Sinekdoxa usuli orqali ma'no ko'chishlariga misollar keltiring?
4. Vazifadoshlik yo'li bilan ma'no ko'chishi?

5-amaliy mashg'ulot

LUG'AT VA UNING TURLARI

Reja:

1. Qomusiy va filologik lug'atlar.
2. Izohli va imlo lug'atlari.
3. Tarjima va etimologik lug'atlar.

Tayanch so'z va iboralar: *leksikografiya, ensiklopedik lug'at, izohli lug'at, imlo lug'at, tarjima lug'at, ters lug'at, chastotali lug'at va etimologik lug'atlar.*

Leksikografiya lot. “*lexikos*” — “so'z”, “*grapho*” — “chizmoq, yozmoq” so'zlaridan olingan bo'lib, lug'at tuzish amaliyoti va nazariyasi bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning bo'limidir. Leksikografiya nazariyasining predmeti lug'at tuzish tamoyillari va usullaridir. Leksikografiya amaliyoti esa lug'at tuzuvchilarning ishini tashkil etish, so'zlarni kartochkalarga tushirish, sistemaga solish va saqlash singarilarni o'z ichiga oladi. Leksikografiya nazariyasida lug'at turlari, so'zlik tarkibi va so'z maqolasining tuzilishi asosiy o'rinni egallaydi.

Avvalo, lug'atlar ikki turli bo'ladi: 1) ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar; 2) filologik (lingvistik) lug'atlar.

Bu ikki turdagi lug'atlar lug'at birliklarining nimaga qaratilgani bilan farqlanadi. Lug'atga kiritilayotgan birliklar barcha tushunchalarni o'z ichiga olsa, ensiklopedik (qomusiy) lug'at; ma'lum bir tildagi so'zlarni o'z ichiga olsa, filologik (lingvistik) lug'at hisoblanadi.

Qomusiy lug'atlarni yaratish uzoq davom etadigan, mashaqqatli ish sanaladi. Unga kiritiladigan maqolalar tushunarli, ravon tilda berilishi, ular turli-tuman kartalar, sxemalar, rangli va oq-qora rasmlar, atoqli shaxslarning portretlari bilan bezatilishi lozim.

Misol uchun, 14 jildli O'zSEning 1-jildini tayyorlash ishida 14 akademik, 13 akademiyaning muxbir a'zosi, 88 fan doktori,

professor, 539 fan nomzodi va boshqa ko‘plab mutaxassislar qatnashgan. Unda 3350 ta maqola mavjud. Mazkur jild ustida 1965–1971-yillar mobaynida tayyorlov ishlari olib borilgan.

1971–1980-yillar oralig‘ida O‘zSEning 14 jildi nashrdan chiqqan. O‘sha davr uchun bu juda katta voqea edi, lekin ushbu qomusiy lug‘atdagi ko‘plab maqolalar bugungi kun talabiga javob bermaydi, eskirdi. Ularni qayta ishlash, mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazaridan yoritish lozim bo‘lib qoldi. Shu tufayli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”ni yaratish to‘g‘risida maxsus qaror qabul qildi. Ana shu qaror asosida 2000–2006-yillarda 12 jildli “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” yaratildi.

Filologik lug‘atlar ma’lum bir tildagi so‘zlarni o‘z ichiga oladi. So‘zlar muayyan bir tartibda (yo alifbo asosida, yo mazmuniy guruhlar asosida) joylashtiriladi. Filologik lug‘atlarning o‘zi, eng avvalo, izohli va tarjima lug‘atlariga bo‘linadi. Tildagi so‘zlarni izohlashga qaratilgan lug‘atlar izohli lug‘at, muayyan tildagi so‘zlarning ikkinchi tilga tarjimasini berishga qaratilgan lug‘atlar esa tarjima lug‘at sanaladi.

1981-yili Moskvadagi “Русский язык” nashriyotida nashr qilingan 2 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, 2006–2008-yillarda O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti tomonidan nashr qilingan va 80 ming so‘z hamda so‘z birikmasini o‘z ichiga olgan 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, 2001-yili Toshkentdagi “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati tomonidan nashr etilgan “O‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati” yoki o‘zbekcha – ruscha, inglizcha – ruscha – o‘zbekcha lug‘atlar bunga misol bo‘la oladi.

Izohli lug‘atlar so‘zlikning tanlanishiga ko‘ra umumiy va tarmoq lug‘atlarga bo‘linadi. Tilning barcha so‘zlarini izohlashga qaratilgan lug‘atlar umumiy izohli lug‘atlar, ma’lum bir tarmoqqa doir so‘zlarnigina tanlab, ularni bir tartibda joylashtirib izohlashni maqsad qilgan lug‘atlar tarmoq lug‘at hisoblanadi. (Masalan,

kasb-hunarga doir lugʻatlar, maʼlum fan sohasi boʻyicha atamalar lugʻati va boshqalar.)

Har qanday lugʻat shu lugʻatning egasi boʻlgan xalqning katta madaniy va maʼnaviy boyligi sanaladi. Har bir tilda shu tildagi soʻzlarni toʻgʻri yozishga qaratilgan maxsus qonun-qoidalar majmuyi boʻladi. Bunga imlo yoki orfografiya qoidalari deyiladi. Imlo qoidalari amaldagi yozuvga mos ravishda yaratiladi. Kirill yozuviga asoslangan hozirgi oʻzbek yozuvi uchun bugungi kunga qadar 1956-yilda yaratilgan imlo qoidalari asos vazifasini oʻtab kelmoqda.

Lotin yozuviga asoslangan yangi oʻzbek yozuviga oʻtilishi munosabati bilan imlo qoidalariga ham sezilarli darajada oʻzgartirishlar kiritildi. Shu munosabat bilan 1995-yili A.Hojiyev muharrirligida yangi “Oʻzbek tilining imlo lugʻati” nashr qilindi. Imlo lugʻatlarida soʻzlar orfografiya qoidalari asosida alifbo tartibi bilan beriladi.

Tildagi har bir soʻz oʻzining kelib chiqish tarixiga, etimologiyasiga ega. Masalan, *ichkari* soʻzi *ich* oʻzagida tomon maʼnosini beruvchi *gari* qoʻshimchasidan iborat. Tildagi soʻzlarning kelib chiqish tarixini oʻz ichiga olgan lugʻatlar etimologik lugʻatlar sanaladi. Prof. Sh.Rahmatullayevning koʻp yillik samarali mehnatlari tufayli oʻzbek tilida ham dastlabki etimologik lugʻat paydo boʻldi.

1-mashq. “Oʻzbek tilining imlo lugʻati”dan foydalanib, keltirilgan soʻzlarning yozilishiga diqqat qiling.

Taajjub, taalluqli, budjet, taassurot, bugʻdoy, televideniye, eʼlon, eʼtibor, izzat, joʻshqin, koʻza, moʻjiza, muomala, moʻtabar, oktabr.

2-mashq. “Imlo lugʻati”dan quyidagi notoʻgʻri yozilgan soʻzlarning yozilishini aniqlang hamda daftaringizga koʻchirib oling.

Afgʻon, avf, battar, baynalminal, gram, istehzo, taʻmagir, taʻqiqlamoq, xayol, xohlamoq.

Amaliy mashgʻulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Lugʻat turlariga misollar keltiring.
2. Ensiklopedik va filologik lugʻatlarning oʻziga xosligini aytib oʻting?
3. Izohli lugʻatlarda feʻllar qanday koʻrinishda ifodalanadi?

6-amaliy mashgʻulot:

SOʻZ TURKUMLARI

Reja:

1. Mustaqil soʻz turkumlari.
2. Yordamchi soʻz turkumlari.
3. Oraliqdagi soʻzlar.

Tayanch soʻz va iboralar: morfologiya, ot, sifat, son, kelishik, olmosh, ravish, feʻl, koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, modal soʻz, taqlid soʻz va undov soʻzlar.

Soʻzlar borliqdagi nimani bildirishi (umumiy grammatik maʼnosi) yoki bildirmasligi, maʼlum soʻroqqa javob boʻlishi yoki boʻlmasligiga koʻra mustaqil soʻzlar va yordamchi soʻzlarga boʻlinadi.

Maʼlum bir soʻroqqa javob boʻlib, atash va umumiy grammatik maʼnoga (masalan, predmet, belgi, miqdor, harakat-holat kabi) ega boʻlgan soʻzlar mustaqil soʻzlar sanaladi. Masalan, *gul (nima?), chol (kim?), chiroyli (qanday?), yuztacha (nechta?), keldi (nima qildi?)* kabi.

Maʼlum soʻroqqa javob bermaydigan, atash maʼnosiga ega boʻlmagan, faqat grammatik maʼno ifodalovchi, lekin oʻzidan oldin kelgan soʻzga grammatik shakl sifatida qoʻshilib, u bilan bir lugʻaviy urgʻu ostida birlashmaydigan soʻzlarga yordamchi soʻzlar

deyiladi. Masalan, ammo, ham, faqat, *-chi (ayt-chi)*, *-mi (siz-mi?)* kabi.

Bulardan tashqari, mustaqil soʻzlarga ham, yordamchi soʻzlarga ham kirmaydigan, ularning har ikkisiiga xos belgini oʻzida maʼlum darajada aks ettiradigan oraliqdagi soʻzlar bor. Bunday soʻzlar undov soʻzlar, modal soʻzlar, taqlid soʻzlarni oʻz ichiga oladi.

Soʻzlarning umumiy grammatik maʼnolariga koʻra ana shunday guruhlariga boʻlinishi soʻz turkumlari sanaladi. Shunday qilib, soʻzlar, eng avvalo, uch guruhga boʻlinadi: 1) mustaqil soʻzlar; 2) yordamchi soʻzlar; 3) oraliqdagi soʻzlar (undov, modal, taqlid soʻzlar). Mustaqil va yordamchi soʻzlar ham oʻz ichida bir necha turlarga boʻlinadi: Mustaqil soʻzlar: ot, sifat, son, feʼl, ravish, olmosh; yordamchi soʻzlar: koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama kabi.

Borliqdagi narsa va hodisalarning, afsonaviy tushunchalarning nomi ot turkumiga mansub ekanligini bilasiz. Shuningdek, otlarning turdosh va atoqli otlarga boʻlinishi, son (birlik-koʻplik), egalik va kelishik shakllariga, shuningdek, baʼzan erkalash — hurmat shakllariga ega boʻlishi haqida ham oʻrta umumiy taʼlimda maʼlumotga ega boʻlgansiz.

Otlardagi yuqorida koʻrsatilgan grammatik shakllar nutq jarayonida turli xil uslubiy xususiyatlarga ham ega boʻladi. Otlar son-miqdor maʼnosiga ega va u birlik yoki koʻplik shakllari orqali ifodalanadi. Birlik nol koʻrsatkich (maxsus grammatik koʻrsatkichning yoʻqligi)ga ega.

Koʻplik -lar qoʻshimchasi orqali ifodalanadi. Bunga morfologik yoʻl deyiladi. Masalan, uylar, doʻstlar, binolar. Shuningdek, birlikdagi ot oldidan birdan yuqori boʻlgan sanoq sonlarni yoki daraja-miqdor ravishlarini: koʻp, ancha kabi soʻzlarni qoʻshish yordamida ham koʻplikni ifodalash mumkin. Bunga esa sintaktik yoʻl deyiladi. Masalan, koʻp odamlar, yigirmata maktab, ancha yillar kabi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'plik shakli sanaluvchi *-lar* otlarga qo'shilib doimo ko'plikni bildiravermaydi. U birlik ma'nosini o'zgartirmasligi ham mumkin. Bu vaqtda *-lar* hurmat, tasviriylilikni kuchaytirish, ta'sirchanlikni oshirish ma'nolarida qo'llaniladi. Masalan, *ko'zlarimga ishonmayman*. ("*O'tkan kunlar*") Bu jumladagi *ko'zlarimga* so'zini birlik shaklga — *ko'zimga* shakliga almashtirib ko'ring. Ikkinchi holat bilan birinchi holat bir xil ma'noni — birlik ma'nosini (bir kishining ko'zini) ifodalasa ham, lekin bu ikki holat ta'sirchanlik, ifodalilik belgisiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Birinchisida yuqoridagi belgilar bor, ikkinchi holatda esa yo'q. Yana solishtiring:

Bolalarning shovqinidan boshlarim og'rib ketdi — *Bolalarning shovqinidan boshim og'rib ketdi*. Har ikki holatda ham bir kishining boshi haqida fikr yuritiladi, lekin birinchi gapda boshlarim so'zidagi — *lar* ko'plikni bildirmasdan, bosh so'zining ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlash vazifasini bajaradi. Bunday ma'no esa ikkinchi holatda yo'q.

Donalab sanalmaydigan narsa va hodisalarni bildiruvchi otlar birlik shaklda kelsa ham aslida jamlikni bildiradi. Masalan, *ko'chaga qum to'kilgan* yoki *ariq to'la suv, ichgani tashna, bolam*. Bunday so'zlar ko'plik shaklini olganda ko'pincha narsa va hodisaning xilma-xil ekanligini bildiradi. *Suvlar* (gazli suv, mineral suv kabi); *bozordagi unlar*. Ba'zan tasviriylilik, ifodalilikni kuchaytiradi: *ko'z yoshini artdi* — *ko'z yoshlarini artdi*. Ko'plik atoqli otlarga qo'shilganda o'zi qo'shilgan otning ko'pligini emas, balki uning boshqalar bilan birgalikda ekanligi yoki geografik nomlarga qo'shilganda shu geografik joyning kengroq, atrofdagi joylar bilan birlikda ekanligini bildiradi: *Olimjonlar kelishdi* (*bir nechta Olimjon emas, Olimjon va uning yaqinlari*); *Mirzacho'llar obod bo'ldi* (*Mirzacho'l va unga yaqin joylar*).

Sifatlar belgini to'g'ridan to'g'ri (oq, ko'k kabi) yoki bir belgini qiyoslab, darajalab ko'rsatishi ham mumkin. Masalan, *ko'kish*, *ko'kimtir*, *ko'm-ko'k*, *to'q ko'k*, *och ko'k* va boshq. Bulardan ko'k belgini to'g'ridan to'g'ri ifodalab uning me'yorda

ekanligini; *ko'kish*, *ko'kimtir*, *ko'k* belgining me'yordan kam ekanligini, *ko'klik* haqidagi tasavvurimizga yetmaganligini, *ko'm-ko'k*, *to'q ko'k* sifatlari esa belgining me'yordan ortiq, kuchli ekanligini bildiradi.

Odatda, sifatlarning uch darajasi ajratiladi:

- a) oddiy daraja;
- b) orttirma daraja;
- d) ozaytirma daraja.

Belgining ortiq-kamlilik munosabati ifodalanmaydigan sifatlar oddiy darajadagi sifatlar sanaladi. Bunday sifatlarda maxsus daraja hosil qiluvchi vosita bo'lmaydi. *Shirin*, *go'zal*, *oq*, *qora* singari sifatlar oddiy darajaga mansubdir.

Belgining mo'ljaldan ortiqqligini, kuchliligini bildirgan sifatlar orttirma darajadagi sifatlar hisoblanadi:

1. Oddiy darajadagi sifatlarning birinchi bo'g'inidagi oxirgi undoshning m yoki p undoshiga almashtirib yoki shunday undosh qo'shib sifat oldidan takrorlash orqali: *ko'm-ko'k*; *sariq – sap-sariq*, *qizil – qip-qizil* kabi;

2. Tarkibidagi birinchi yoki ikkinchi unlini cho'zish yo'li bilan: *achchiq – a:chchiq*, *uzun – u:zun*; *chiroyli – chiro:yli* kabi;

3. Sifat oldidan *juda*, *g'oyat*, *nihoyatda*, *behad* singari so'zlarni qo'shish yo'li bilan: *yaxshi-juda* (*behad*, *g'oyat*, *nihoyatda*) *yaxshi* kabi.

Belgining mo'ljaldan kamligini, kuchsizligini ifodalaydigan sifatlar ozaytirma darajadagi sifatlar hisoblanadi. Bunday sifatlar quyidagi yo'llar bilan hosil qilinadi: 1) sifat oldidan *sal*, *picha*, *ozgina*, *xiyol*, *biroz* kabi so'zlarni keltirish yo'li bilan: *to'la – sal to'la*, *achchiq – ozgina achchiq*; 2) sifat oxiriga – *roq*, – *(i)sh*, *(i)mtir* qo'shimchalarini qo'shish orqali: *sariq – sariqroq* (*sarg'ish*, *sarg'imtir*) kabi. Bular ichida -roq qo'shimchasi *biroz*, *sal*, *ba'zan nim*, *och* so'zlari bilan sinonim bo'lib keladi. Shuning uchun ularni ko'pincha birining o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin bo'ladi. Masalan, *qizilroq – sal qizil*, *biroz qizil*, *och qizil* kabi.

Sifat yasovchi *-li* qo'shimchasi *-dor, -kor* qo'shimchalari va *ba-* old qo'shimchasi bilan sinonimik munosabatda bo'ladi, shuning uchun ularni birining o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin. Masalan, *go'shtli-go'shtdor, gunohli-gunohkor, mazali-bemaza* kabi; lekin doimo ham ularni bir-biri bilan almashtirish mumkin emas. Masalan, *yurakli, kuchli* so'zlarini *bayurak, yurakdor, yurakkor, kuchdor, bakuch, kuchkor* deb bo'lmaydi. Sifat yasovchi *-siz* qo'shimchasi *be-, -no* old qo'shimchalari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Shuning uchun ularni ko'pincha birining o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin. Masalan, *umidsiz, beumid – noumid*; lekin ularni ham doimo bir-biri bilan almashtirib bo'lmaydi. Masalan, *aqlsizni beaql* deyish mumkin, lekin *noaql* deb bo'lmaydi. Shuningdek, *nomard, noma'lum* singari so'zlardagi *no-* old qo'shimchasini *be-* old qo'shimchasi va *-siz* qo'shimchasiga almashtirib bo'lmaydi, chunki bu so'zlar forsojlik tilidan o'zbek tiliga tayyor holda o'tgan. Hozirgi o'zbek tilida yasalgan emas. Shunga ko'ra sifat yasovchi qo'shimchalardan o'rinli foydalanish katta ahamiyatga ega.

Sanaluvchi predmetlarning miqdorini, son-sanog'ini, tartibini bildirgan so'z turkumlari son deyiladi. Sonlar necha? qancha, nechta? nechanchi? qancha? so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan, o'n, ikki, besh; o'nta kitob, o'ninchi sinf, o'ntadan olma, uchala kishi kabi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida predmetning miqdorini, son-sanog'ini ifodalash uchun ko'proq yigirma uchta sondan foydalaniladi. Bulardan to'qqiztasi birlik sonlar: *bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz*; to'qqiztasi o'nlik sonlar: *o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to'qson*; beshtasi yuzlik, minglik va yuqori sonlarni bildiradi: *yuz, ming, million, milliard*. Bu sonlarning barchasi miqdorga egalik ma'nosini ifodalovchilar sifatida "*nol*"ga zidlanadi. Nol son miqdorga ega emaslikni bildiradi. Qolgan sonlar birlik sonlarning o'nlik songa qo'shiluvidan (*o'n bir, yigirma besh, to'qson to'qqiz*), shuningdek, yuzlik va o'ndan yuqori son oldidan birlik,

oʻnlik sonlarning keltirilishidan (*bir yuz ellik ming, toʻqqiz milliard ikki yuz million, oʻn bir ming besh yuz*) hosil boʻladi.

Sonlar maʼnosiga koʻra sanoq soʻzlar, tartib sonlar, jamlovchi sonlar, dona sonlar, taqsim sonlar, chama sonlarga boʻlinadi. Sonning maʼno turlarini quyidagi chizmada koʻring.



Bu koʻrsatilgan son turlaridan har qaysisining oʻz shakllari mavjud. Bosh shakl orqali ifodalangan miqdor nomlariga sanoq sonlar deyiladi. Masalan, *bir, oʻn, yigirma, ming, million* kabi.

Predmetning tartibini bildirgan sonlarga tartib son deyiladi. Tartib sonlar sanoq sonlarga *-nchi, -inchi* qoʻshimchalarini qoʻshish yoʻli bilan hosil boʻladi. Bulardan *-nchi* unli bilan tugagan, *-inchi* undosh bilan tugagan soʻzlarga qoʻshiladi. Masalan, *besh – beshinchi, oʻn – oʻninchi, ikki – ikkinchi*.

Predmet miqdorini jamlab koʻrsatgan sonlarga jamlovchi sonlar deyiladi. Jamlovchi sonlar sanoq songa *-ov, -ala* baʼzan *-ovlon* (eski shakl) qoʻshimchalarini qoʻshish bilan hosil boʻladi. Jamlovchi sonlar otlashgan xususiyatga ega boʻladi. Shuning uchun jamlovchi son qoʻshimchalari koʻplik va uch shaxsdagi egalik qoʻshimchalaridan birini olib keladi. Masalan, *besh – beshovi – beshovlari, uch – uchalasi – uchalalari, ikki – ikkovlon, ikkalasi* kabi. Misol: *Toʻrtovlon tugal boʻlsa, koʻkdagini undirar, oltovlon ola boʻlsa, ogʻzidagin oldirar*. Koʻrinib turibdiki, *-ov, -ovlon* birlik sonlarga, ikkidan yuqorisiga qoʻshiladi. Bir soniga *-ov* qoʻshimchasi qoʻshilib jamlovchi “kimdir” degan maʼnoda qoʻllanadigan *birov* soʻzi son maʼnosini yoʻqotib, olmosh turkumiga oʻtgan. *-ala* qoʻshimchasini olgan son egalik

qo‘shimchasini olmasligi ham mumkin. U vaqtda son otlashmagan bo‘ladi. Masalan, *ikkala kishi*. Jamlovchi son qo‘shimchalari unli bilan tugagan sonlarga qo‘shilganda, son oxiridagi unli tushib qoladi. Masalan: *ikki – ikkovi, ikkalasi; yetti – yettovi, yettalasi* kabi.

Predmet miqdorini donalab ifodalaydigan sonlar dona son deyiladi. Dona sonlar sanoq songa *-ta* qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi. Masalan, *besht* – *beshta*, *o‘n* – *o‘nta*. Bu qo‘shimcha faqat donalab sanalishi mumkin bo‘lgan predmetlarni sanash uchun qo‘llaniladi. Masalan, *o‘nta kitob, beshta daftar*, lekin *o‘nta kerosin, beshta benzin* deb bo‘lmaydi. *O‘nta suv* deyilishi mumkin, lekin bu vaqtda *o‘nta* soni shisha ma’nosini ham o‘z ichiga oladi. *O‘nta suv “o‘n shisha suv”* ma’nosida qo‘llaniladi. Shuningdek, mashinaga quyilgan benzin haqida gap ketganda, *o‘nta quy, o‘ttizta quydim*, degan jummalarni eshitamiz. Bunday vaqtda dona son “litrlar” ma’nosini ham o‘z ichiga oladi. *O‘nta quydim* jumlasini “*o‘n litrlar quydim*” ma’nosini ifodalaydi.

Predmet miqdorini taqsimlab ifodalaydigan sonlarga taqsim son deyiladi. Taqsim sonlar sanoq songa *-tadan* qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil bo‘ladi va ikkitadan ortiq predmetlarning bo‘laklarga teng ajratilganini bildiradi. Masalan, *ikkitadan, o‘ntadan* kabi.

Predmetning taxminiy miqdorini bildirgan sonlar chama sonlar deyiladi. Chama sonlar son asosiga *-tacha, -lab* qo‘shimchalari qo‘shishi orqali hosil bo‘ladi. Masalan: *o‘ntacha, minglab* kabi.

Eslatma: o‘zbek tili tarixida miqdorni ifodalash uchun *lak* (yuz ming), *tuman* (ming) sonlari ham ishlatilgan.

Barcha mustaqil so‘z turkumlari va hatto yordamchi so‘zlar hamda gap o‘rnida almashinib kelgan so‘zlarga olmosh deyiladi.

Olmoshlar ot, sifat, son, ravish, fe‘l o‘rnida va ba‘zan yordamchi so‘z, gap o‘rnida almashinib keladi. Masalan, *Gul ochildi. Uning ochilishi kishilarga rohat bag‘ishladi. Gullarning ko‘pi pushti rangda. Ana shu rang menga juda yoqadi. Karim*

gullarni uza boshladi. Bu esa bog‘bonning jahlini chiqardi. Va bog‘lovchisi o‘zaro teng ma’noli gaplarni bog‘laydi. Bu teng bog‘lovchilar sirasiga kiradi. Bu gaplarning birinchisida gul (ot) o‘rnida u, ikkinchisida pushti (sifat) o‘rnida ana shu, uchinchi gapda uza boshladi (fe’l) o‘rnida bu so‘zlari, to‘rtinchi gapda va bog‘lovchi o‘rnida bu olmoshi almashinib kelyapti.

Olmoshlar bevosita atash ma’nosiga ega bo‘lmaganligi uchun “ichi bo‘sh so‘zlar” deb ham yuritiladi.

Harakat-holat ma’nosini ifodalab, nima qildi (bo‘ldi)?, nima qilyapti (bo‘lyapti)?, nima qiladi (bo‘ladi?) singari so‘roqlarga javob bo‘luvchi so‘z turkumiga fe’l deyiladi. Masalan: *Talaba o‘qidi (nima qildi?). Mashinalar guvullaydi (nima qiladi?)* kabi.

Fe’ldan anglashilgan harakatning nutq momentiga nisbatan bajarilishi yoki bajarilmaslik paytini bildiradigan shakllarga zamon shakllari, ana shunday shakllar tizimiga zamon kategoriyasi deyiladi. Zamon turini belgilashda so‘zlanayotgan nutq vaqti asosiy tayanch nuqta bo‘lib hisoblanadi. Ana shunga ko‘ra uch zamonga bo‘linadi: 1) o‘tgan zamon, 2) hozirgi zamon, 3) kelasi zamon.

Fe’ldan anglashilgan harakatning nutq so‘zlanayotgan vaqtdan oldin bo‘lib o‘tganligini bildirgan shakllar o‘tgan zamon shakllari sanaladi. O‘tgan zamon shakllariga quyidagi shakllar kiradi: *-di, -gan, -ib, (-man, -san, -di) kabi*. Masalan, *keldi, kelgan, kelibman, kelibsan* va boshqalar. Bu shakllar garchi “o‘tgan zamon” umumiy ma’nosi asosida birlashsa ham lekin ularning har qaysisi bir-biri bilan ma’lum ma’nosiga ko‘ra farq qiladi: *-gan* shakli *-di* ga nisbatan harakatning nutq so‘zlangan vaqtdan ancha oldin ro‘y berganini bildiradi.

-ibdi, -ibman, -ibsan shakllari esa so‘zlovchi nutq momentidan oldin ro‘y bergan harakatni boshqa shaxsdan eshitganligini yoki oldindan kutilgan harakatning amalga oshganligini bildiradi. Masalan, *O‘g‘rini eshakka teskari mindiribdi. (Ertakdan)*

-di shakli, umuman, harakatning nutq momentidan oldin bajarilganligini bildiradi.

Fe'ldan anglashilgan harakat-holatning nutq soʻzlanayotgan vaqtda roʻy berishi yoki bermasligini bildirgan shakllarga hozirgi zamon shakllari, shunday shakllar tizimiga esa hozirgi zamon kategoriyasi deyiladi. Hozirgi zamon maʼnosi *-yapti*, *-yotir*, *-moqda* singari qoʻshimchalar qoʻshish orqali ifodalanadi. Masalan, *yozyapti*, *yozmoqda*, *yozayotir*. Bulardan *-yapti*, *-moqda*, feʼl asoslariga, *-yotir* esa feʼlning ravishdosh shakliga qoʻshiladi.

Hozirgi zamon shakllari maʼlum uslubga xoslangani bilan oʻzaro farqlanadi, *-yapti* uslubiy betaraf (neytral) shakl boʻlsa, *-moqda*, *-yotir* yozma nutq uslubiga xosdir.

Fe'ldan anglashilgan harakat-holatning nutq soʻzlanayotgan vaqtdan soʻng roʻy berish-bermasligini bildirgan zamon shakllariga kelasi zamon shakllari, shunday shakllar tizimiga esa kelasi zamon kategoriyasi deyiladi. Kelasi zamon maʼnosi feʼlning *-a* ravishdosh shakliga *-di*, *-jak*; feʼl asoslariga *-ar*, *-ur*, *-gusi* qoʻshimchalarini qoʻshish orqali hosil boʻladi. Masalan, *keladi*, *kelajak*, *kelar (ur)*, *kelgusi* kabi. Bulardan *-adi*, *-ar* uslubiy betaraf shakllar boʻlsa, *-jak*, *-gay*, *-ur*, *-gusi* shakllari badiiy va publitsistik uslubga xosdir.

Uslubiy betaraflik belgisiga koʻra *-adi* va *-ar* shakllari bir guruhni tashkil qilsa ham ular ifodalanayotgan harakatga gumon-taxmin maʼnosini bildirish-bildirmasligiga koʻra bir-biridan farq qiladi. Birinchisi bunday maʼnoga betaraf boʻlsa, ikkinchi shakl gumon-taxmin maʼnosiga ega.

Solishtiring: *keladi* — *kelar*.

Baʼzan turli zamonga mansub boʻlgan shakllar oʻzaro almashinishi mumkin. Masalan, *Tanklar*, *zambaraklar agʻanab yotibdi*. *Bir jangchining peshonasi bogʻlangan*, *bir jangchining esa yelkasidan qon oqmoqda* (Shuhrat).

Oʻtgan zamonda boʻlib oʻtgan voqealarga tinglovchini olib kirish, ularni uning koʻz oldiga olib kelish maqsadida hozirgi zamon shakli ishlatilgan.

Feʼllar ham boshqa mustaqil soʻz turkumlari kabi tub va yasama boʻladi. Masalan, *kel*, *ket*, *yur*, *oʻqi* singari feʼllar tub

fe'llar: *ishla, o'yna, jonlan, tasdiq qildi, kasal bo'ldi* kabi fe'llar yasama sanaladi.

Yasama fe'llar yasashga asos qismga ma'lum yasovchi vosita qo'shish yordami bilan hosil qilinadi. Yasovchi vosita qo'shimcha yoki so'z bo'lishi mumkin. Jumladan, yuqorida keltirilgan misollardan oxirgi ikkitasi yasashga asos qismga (*tasdiq, kasal*) so'z holdagi yasovchi vosita (*qildi, bo'ldi*) qo'shish yordamida hosil qilingan. Boshqalari esa qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan yasalgan. Shunga ko'ra, fe'l yasalishi ikki guruhga bo'linadi:

a) qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan (affiksatsiya);

b) so'z qo'shish yo'li bilan (kompozitsiya).

Birinchi yo'l bilan yasalgan fe'llar sodda fe'llar, ikkinchi yo'l bilan yasalgan fe'llar qo'shma fe'llar hisoblanadi.

Bugun, kecha, hozir singari so'zlar qachon? so'rog'iga javob bo'lib, harakatning bajarilish paytini, *olisda, yaqinda, pastda* singari so'zlar qayerda? qayerdan? kabi so'roqlarga javob bo'lib, ish-harakatning bajarilish o'rnini, *sekin, tez, arang, zo'rg'a* kabi so'zlar qanday? so'rog'iga javob bo'lib, harakatning qay tarzda bajarilishini, *oz, ko'p, ancha* singari so'zlar qancha? so'rog'iga javob bo'lib harakatning daraja-miqdorini, *atay, qasddan* singari so'zlar harakatning maqsadini bildiradi.

Harakatning belgisini (payt, o'rin, holat-tarz, miqdor, maqsad kabi belgilarni) bildirgan so'z turkumiga ravish deyiladi.

So'zlarning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatini ifodalash uchun ishlatiladigan yordamchi so'zlarga ko'makchilar deyiladi.

Masalan, *Oyni etak bilan yopib bo'lmas. (Maqol)*

Ko'makchilar tarixan mustaqil so'zlar bo'lib, hozirgi kunda leksik ma'nosini yo'qotgan va grammatik ma'no ifodalashga o'tgan so'zlardir. Mustaqil ma'nosini yo'qotish darajasiga ko'ra, ko'makchilar ikki guruhga bo'linadi: 1) sof (asl) ko'makchilar; 2) vazifadosh ko'makchilar.

Leksik ma'nosini tamoman yo'qotib, faqat grammatik ma'no ifodalashga o'tgan ko'makchilarga sof (asl) ko'makchilar deyiladi.

Bunday ko‘makchilarga *kabi, singari, bilan, birga, uchun, sayin, haqida, holda* kabi ko‘makchilar kiradi. Leksik ma‘nosini saqlagan holda, gapda grammatik ma‘no ifodalash vazifasini bajaruvchi so‘zlarga vazifadosh ko‘makchilar deyiladi. Bunday ko‘makchilarga *ustida (ish ustida), ostida (ozodlik bayrog‘i ostida), oldida (vijdoni oldida), orasida, orasiga (xalq orasida), boshida (yo‘l boshida), qarab (Toshkentga qarab yurmoq), bo‘ylab (daryo bo‘ylab)* singari ko‘makchilar kiradi.

Vazifadosh ko‘makchilar ko‘makchilashayotgan ot va fe‘llardir. Shunga ko‘ra bunday so‘zlar mustaqil so‘z vazifasida ham kelishi mumkin bo‘ladi. Masalan, *kitob televizor ustida turibdi – televizor ustida janjallashdi. Devordan bo‘ylab qaradi – Ariq bo‘ylab ketdi* va h.k.

Ko‘makchilar bir mustaqil so‘zni ikkinchi mustaqil so‘zga tobelashtirib bog‘laganligi uchun kelishik qo‘shimchalari bilan bir xil vazifa bajaradi, shuning uchun sof ko‘makchilarni ko‘p hollarda kelishik qo‘shimchalari bilan almashtirish mumkin bo‘ladi. Masalan, *Bolalar bog‘chasiga hadya qildim. Bolalar bog‘chasi uchun hadya qildim. Mehnatsevarligidan xalq o‘rtasida obro‘-e‘tibor topdi. Mehnatsevarligi uchun xalq o‘rtasida obro‘-e‘tibor topdi. Dalaga ketdi – dala tomon ketdi.*

Kelishik qo‘shimchalari bilan ko‘makchilar o‘rtasida mazmuniy umumiylik bo‘lsagina biri o‘rnida ikkinchisi kela oladi. Birinchi gapda har ikkisida atash ma‘nosi, ikkinchi gapda sabab ma‘nosi, uchinchisida yo‘nalish ma‘nosi mavjud. Ana shu umumiy ma‘no ularning o‘zaro almashinuviga imkon beradi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, mazkur umumiy ma‘noni qanday ifodalashda kelishik bilan ko‘makchi ma‘lum darajada bir-biridan farqlanadi. Kelishik qo‘shimchasi orqali ifodalangan ma‘no aniq, ko‘makchi orqali ifodalangan ma‘no esa umumiyroq, noaniqroq bo‘ladi. Ayniqsa, bu farq yo‘nalish ma‘nosini bildirishda aniq seziladi. Solishtiring: *Samarqandga ketdi – Samarqand tomon(ga) ketdi.*

Ikki va undan ortiq gap bo‘lagi yoki gaplarni o‘zaro bog‘lab keluvchi yordamchi so‘zlarga bog‘lovchilar deyiladi.

Gap bo‘lagi va gaplarni qanday bog‘lashlariga ko‘ra bog‘lovchilar ikki turli bo‘ladi:

a) teng bog‘lovchilar; b) ergashtiruvchi bog‘lovchilar.

O‘zaro teng munosabatda bo‘lgan gap bo‘laklari, gaplarni bog‘lash uchun ishlatiladigan bog‘lovchilar teng bog‘lovchilar hisoblanadi. Teng bog‘lovchilarga *va, hamda, ammo, lekin, biroq, yo, yoki, yoxud, yo... yo, goh... goh* singari bog‘lovchilar kiradi.

O‘zaro tobe munosabatda bo‘lgan gap bo‘lagi va gaplarni bog‘lash uchun ishlatiladigan bog‘lovchilarga ergashtiruvchi bog‘lovchilar deyiladi. Bunday bog‘lovchilarga *chunki, sababli, tufayli, shuning uchun, shu bois (sabab, sababli), ya’ni, -ki* singari so‘zlar kiradi. Biriktiruvchi bog‘lovchi sifatida oddiy so‘zlashuv uslubida ko‘proq *bilan (minan)* ko‘makchisi ishlatiladi. *Va, ham, hamda* yordamchilari esa yozma nutq uslublari uchun xoslangan. Zidlov bog‘lovchisi sifatida so‘zlashuv uslubi uchun *ammo, lekin* bog‘lovchilarining birikkan holidagi *ammo-lekin (ammolek)* shakli ko‘proq ishlatiladi. *Lekin* bog‘lovchisining *lek, vale (valekin)* shakllari ham badiiy uslub uchun xoslangan. Ayiruv bog‘lovchilaridan *yoxud, yoinki* yozma nutq uslubi (publitsistik, badiiy uslub)dagina qo‘llaniladi. Aniqlov bog‘lovchilari faqat yozma nutq uslubida qo‘llaniladi. Sabab bog‘lovchilaridan *chunki, shu sabab, shu tufayli* ko‘proq yozma nutq uslubida qo‘llaniladi. Shart bog‘lovchilaridan *garchi* yozma nutq uslubi uchun xoslangan. Chog‘ishtiruv bog‘lovchilaridan *xuddi* uslubiy betaraf, *go’yo* yozma nutq uchun xoslangan.

So‘z va gaplarga qo‘shilib, ularga qo‘shimcha ma’no yuklovchi yordamchilarga yuklamalar deyiladi.

Yuklamalarning ko‘pchiligi qo‘shimcha shaklida, ayrimlari esa so‘z shaklida qo‘llaniladi. Ana shu belgisiga ko‘ra yuklamalar ikki guruhga bo‘linadi:

1. So‘z yuklamalar: *faqat, hatto, nahotki* kabi.
2. Qo‘shimcha yuklamalar: *-mi, -chi, -a (-ya)* kabi.

E s l a t m a: aslida, ikkinchi guruhdagi yuklamalar qo‘shimchalar ekan, ularni so‘z turkumlari tarkibida o‘rganish shartlidir, chunki so‘z turkumlariga bo‘linish uchun u, albatta, so‘z maqomiga ega bo‘lishi kerak.

His-hayajon, buyruq-xitob, haydash-chaqirish ma’nolarini ifodalaydigan so‘zlarga undov so‘zlar deyiladi.

Undov so‘zlar ham xuddi modal so‘zlar kabi qo‘shimchalar olib o‘zgarmaydi. Masalan, *ho*y so‘zi kelishik, egalik qo‘shimchalari olmaydi. Unga yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilib yangi so‘z yasalmaydi.

Ayrim undov so‘zlar otlashganda, ya’ni ot vazifasida qo‘llan-ganda, egalik qo‘shimchasini olishi mumkin. Masalan, *Ohi olamni tutdi*. Bu o‘rinda *ohi* nimasi so‘rog‘iga javob bo‘lib, *oh* deyishning, *nola* qilishning nomini bildirib kelyapti.

Undovlar ma’no jihatdan ikki turli bo‘ladi:

1. His-hayajon undovlari. 2. Buyruq-xitob undovlari.

Undovlar boshqa so‘zlar bilan grammatik aloqaga kirishmaydi. Ba’zan kishilarning undov so‘zlar orqali ifodalagan his-hayajonini, buyruq-xitobini tasvirlash uchun undov so‘zlarga *demoq*, *solmoq*, *urmoq*, *tortmoq* singari fe’llar qo‘shilib keladi va qo‘shma fe’llar hosil bo‘ladi: *voy demoq*, *dod solmoq*, *oh urmoq*, *oh tortmoq*, *pisht demoq* kabi. Undovlar undov ohangi bilan ajralib turadi, lekin undov ohangi xilma-xildir. Bir undov so‘z turli ohang bilan talaffuz qilinib, turli xil ma’nolarni ifodalashi mumkin. Masalan, *Hay-hay*, *qanday mazali* (*rohatlanish*, *zavqlanish*); *Hay-hay*, *tegma* (*buyurish*); *Hay-hay*, *yigitlar bu yoqqa!* (*undash*, *ta’kidlash*); *Hay-hay*, *shakkoklik qilmang* (*fikrdan qaytarish*) va boshq.

Nutq jarayonida so‘zlovchilarning yoshi, amali nuqtayi nazaridan undovlardan foydalanish ham ma’lum darajada farq qiladi. Xususan, o‘zidan katta yoshdagilarga murojaat qilinganda yoki ma’lum lavozimni egallagan shaxslarga uning qo‘l ostida ishlayotgan shaxslar hoy deb murojaat etmaydi yoki *balli* undovi kattalar tomonidan kichiklarning qilgan yoki qilayotgan ishlaridan

mamnunligini ifodalash, ular mehnatini baholash maqsadida ishlatiladi, lekin kichiklar tomonidan kattalarning ishlariga nisbatan bunday undov orqali baho berilmaydi.

Shuningdek, undovlar ogʻzaki soʻzlashuv, badiiy, qisman publitsistik uslubda keng qoʻllanilib, rasmiy va ilmiy uslubda qoʻllanilish doirasi cheklangan. Baʼzan xat janrida, maʼlum voqea-hodisalar bayoni yuzasidan oʻzaro maktublarda yoki ishqiy maktublarda, undovlar qoʻllanilishi mumkin. Rasmiy doiralarning xatlarida undovlar qoʻllanilmaydi. Sababi, rasmiy doiralarning xatlari har qanday ehtirolardan xoli boʻladi.

Tabiatda insondan tashqari juda koʻplab tirik jonzorlar yashaydi. Ularda ham oʻziga xos nutq apparati mavjud. Mana shu nutq apparati yordamida ular turli-tuman ovoz chiqaradilar. Itlarning vovullashi, mushukning miyovlashi, tovuqning qaqalashi hech birimizga yot emas. Bundan tashqari, tevarak-atrofimizda beadam voqea va hodisalar sodir boʻlib turadi: narsalar bir-biriga tegadi, uriladi. Natijada har xil ovozlar hosil boʻladi. Inson oʻz faoliyati davomida mana shu ovozlar taqlid qilishga urinadi. Tilshunoslikda bunday ovozlar taqlid soʻzlar atamasi bilan yuritiladi.

Taqlid soʻzlar ikkiga boʻlinadi.

a) tovushga taqlid soʻzlar: *taraq, gumbur-gumbur, shov-shuv, duv-duv, qars-qars, tap, sharaq, shalop, shitir-shitir* va hokazo...

b) obrazga yoki holatga taqlid soʻzlar: *lip-lip, jimir-jimir, yalt-yult, lapang-lapang, dik-dik* kabi.

Taqlid soʻzlar egalik va kelishik qoʻshimchalarini oladi, turlanadi, gapda ot bajargan vazifalarda keladi. Masalan, *Shamolda barglarning shitir-shitiri eshitiladi. Daryoning shov-shuvidan quloqlarimiz bitib qolayozdi.* Taqlid soʻzlarning barchasidan feʼl yasaladi: *shovullamoq, gumburlamoq, dupirlamoq, qarsillamoq, yaltillamoq* kabi. Soʻzlashuv jarayonida *albatta, shubhasiz, ehtimol* singari soʻzlarni koʻp eshitasiz, lekin bunday soʻzlar borliqdagi narsa-hodisalar, belgi xususiyatlarini nomlamaydi. Shu bilan birgalikda yordamchi soʻzlarga oʻxshab

sof grammatik ma'no ham ifodalamaydi. Bunday so'zlar bildirilayotgan axborotga so'zlovchining tasdiq, ishonch, gumon kabi munosabatlarini bildiradi.

So'zlovchining munosabatini ifodalaydigan so'zlar modal so'zlar sanaladi. Masalan, *Mamlakatimiz, albatta, buyuk, gullagan yurtga aylanadi*. Yuqoridagi gapdan *albatta* so'zini tushirib qoldirsangiz ham gapning umumiy mazmuniga futur yetmaydi. Lekin, ishonch, tasdiq ma'nosi bo'rtib turmaydi. Gapga *albatta, shubhasiz* so'zlarining qo'shilishi bilan esa so'zlovchining gap orqali ifodalanayotgan axborotga ishonch, tasdiq munosabati alohida ta'kidlangan holda bayon qilinadi.

1-mashq. Berilgan gaplarni o'qing. Bo'lishsizlik ma'nosini hosil qiluvchi qo'shimcha va so'zlarni toping.

1. Ko'z milklari yallig'lanishi va ko'z olmasining qizarishi vitaminlar yetishmasligi natijasida paydo bo'lishi mumkin. 2. Kimyoviy tolalardan to'qilgan matolar dazmollanayotganda dazmol qattiq qizdirilmasligi kerak. Paxta va zig'ir tolasidan tayyorlangan matolar namlab yoki suv purkab, yaxshi quritmay dazmollanadi. 3. Qish uzoq davom etganligi uchun bahorning birinchi chechaklari ham ko'z ochishga chog'lanmayroq turibdi. 4. Bahor borliqqa o'z sepini yoyib ulgurgani yo'q. 5. Bir umr ezgulikni izlab, boshqalarga ma'rifat-u ma'naviyat ulashayotgan insonlarning hayot yo'llari ibratli ekanligini ko'pincha sezavermaysiz. 6. Bitta o'g'limni qoldirishga ko'zim qiymayapti-yu, ikkalangni qandoq tashlab ikkalamiz tushamiz. 7. Oyni etak bilan yopib bo'lmas. 8. Bir badavlat donishmanddan so'radilar: Turmushingiz farovon bo'lsa ham, nima uchun sizni xursand bo'lib yurganingizni ko'rgan emasmiz. U shunday javob beribdi: "Chunki och-yalang'och yashayotganlarni men hech qachon unutmaysan". (*Gazetadan*) 9. Bo'lmasa ishq ikki jahon bo'lmasin, ikki jahon demaki jon bo'lmasin. (*Navoiy*) 10. Zo'rni ko'rib tan berishni o'rganing. Chirkin fikrlarni, fisq va fasodlarni, ig'vo-g'iybatlarni, eng yomon hasad xaltalarini tilsiz shamollarga

topshiring, yellar hech kimga aytmay uzoq-uzoqlarga olib ketsinlar. (*M.G 'anijon qizi*)

2-mashq. Matnni o'qing, ko'makchilarni topib ular bog'langan so'zlar bilan birgalikda ko'chirib yozing.

ASSALOM, KELAJAK!

Ey sen, shoshib, hovliqib, dam-badam qo'lidagi soatiga qarab borayotgan inson! Bilarmisanki, qo'lingga bog'lab olganing soat emas, sendagi sanoqsiz zanjirlarning biridir.

Bu zanjir ila sening insoniyatga tutashliging bor. Tomchi bo'lib daryo bilan oqayotirsan, zarra bo'lib koinot bilan charx urayotirsan. Bu zanjir ila zamonga daxldorsan va sen ham ahli olam qatori uchinchi mingyillikda yashamoqdasan.

Bashariyat tarixi koinot umrining o'n besh daqiqasi emish. Bu zamon ichida u ne qadar kamol topdi? Mamont to'shini talashib bir-birini majaqlagan ajdod bilan din-u irq talashib, mazhab talashib yashayotgan avlod o'rtasida tafovut qancha?

Bu xayollar va bu savollar, yangi mingyillikda meni qiynab turgan hislar, yozilmagan she'rlarimdir.

Cheksiz, abadiy makon-u zamon ichra mavjudlik ulug' baxtim va olam-u o'zni anglamaslik ulug' dardimdir.

Men zarraman. Zarraning koinot bilan bir butunligi va tanholigi bor. Sayyoralar kabi o'z osmoni, o'z hayoti, o'z mehvari, o'z darvozasi bor. Zamonim – asrim, makonim – vatanim. Shu makonning erki mening erkim, zanjirlari mening zanjirlarimdir.

Ey, mening buyuk va ozurda yurtim, qudratli va jafokash Vatanim! Sen o'z zanjirlaring ichida eng uqubatlisi, eng og'riqlisi bo'lgan tobe'lik va mute'lik zanjiridan xalos bo'lding. Ozodlik kuning asr desa asr, ming yillik desa mingyillik ichida eng buyuk kundir. U sening yangi tarixing, mening yangi umrim boshlangan kun.

Ey, mening suyuqli O'zbekistonim! Zamonlar kelarki, botiniy zanjirlaring ham yechilar. Kelajak haqiqiy hur dunyo ichida sen

ham chinakam ozod mamlakat bo'larsan. Zamonlar kelarki, insoniyat mojarolarni, qon to'kislarni unutar, olamda mehr-u saxovat, poklik va ezgulik g'olib bo'lar.

Bizning bu g'urbat to'la asrda matonat bilan yashagan avlodning uyg'oq ruhi ul zamon aytar: "O'lmagan qul shunday kunga ham yetib keldi-ya!"

Shu umidbaxsh tuyg'u tufayli bugun: "Assalom, kelajak!" deya hayqirgim keladi.

Amaliy mashg'ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Mustaqil so'zlarga ta'rif bering.
2. Yordamchi so'zlarni sanab o'ting va misollar keltiring.
3. Oraliqdagi so'zlarning o'ziga xosligini aytib o'ting.
4. Morfologiya hamda leksikologiya bo'limlarining o'xshash va farqli tomonlari?

7-amaliy mashg'ulot:

SO'Z BIRIKMASI SINTAKSISI

Reja:

1. So'z qo'shilmasi va so'z birikmasi.
2. Tobe va hokim so'z.
3. So'z birikmasining birikish usuliga ko'ra turlari.

Tayanch so'z va iboralar: *teng bog'lanish, tobe bog'lanish, bitishuv, boshqaruv, moslashuv, otli birikma, fe'lli birikma, barqaror birikma.*

Tobe bo'lakning hokim bo'lakka kelishik, egalik qo'shimchalari, ko'makchilar va tobelashtiruvchi ohang yordamida bog'lanishi so'z birikmasi deyiladi. So'z birikmasida doimo ikkita qism bo'ladi. Ularning bittasi tobe, ikkinchisi esa hokim bo'ladi. Tobe bo'lak hokim bo'lakka ma'lum bog'lovchi vosita yordamida bog'lanadi. Demak, bog'lovchi vosita tobe bo'lak oxiriga qo'shiladi. Bundan faqat egalik qo'shimchasi yordamida

bog'langani mustasno. Egalik qo'shimchasi hokim bo'lak oxiriga qo'shiladi. Tobe bo'lak esa qaratqich kelishigida turadi. Ba'zan qaratqich kelishigi ifodalanmasligi ham mumkin. Masalan, institutning bog'i – institut bog'i. Bundan ko'rinadiki, so'z birikmasida tobe bo'lak bilan hokim bo'lakning joylashish o'ri ham aniq bo'ladi. Tobe bo'lak oldin, hokim bo'lak esa keyin keladi. Tobe bo'lakni hokim bo'lakka bog'lovchi vositaning qo'shilish o'ri ikki xil bo'ladi: kelishik, ko'makchi va ohang tobe qismga, egalik qo'shimchasi esa hokim qismga qo'shiladi.

Gap odatda bir so'zdan yoki bir necha so'zlarning o'zaro grammatik va mazmuniy bog'lanishidan ham tashkil topishi mumkin. Masalan, Kuz... Bog'larda mevalar qiyg'os pishgan. Yuqoridagi gaplarning birinchisi faqat bir so'zdan tashkil topgan bo'lsa, ikkinchisi to'rtta so'zning o'zaro grammatik va mazmuniy bog'lanishi natijasida hosil bo'lgan. Gap ikki va undan ortiq so'zlardan iborat bo'lganda, bu so'zlar o'zaro grammatik va mazmun tomondan bog'lanadi.

Eslab qoling. Bir so'zning boshqa so'zga ma'lum grammatik vositalar (grammatik qo'shimchalar, yordamchi so'zlar) yordamida bog'lanishi grammatik bog'lanish hisoblanadi. Masalan, yuqorida keltirilgan ikkinchi misolda bog'larda so'zi pishgan so'ziga -da kelishik qo'shimchasi yordamida bog'lanyapti.

Gapda so'zlarning bog'lanishi faqat grammatik bog'lanish bilan cheklanib qolmaydi. Bog'lanayotgan so'zlar mazmuniy tomondan ham o'zaro muvofiq bo'ladi. Masalan, gullamoq so'zi gul chiqarmoq ma'nosi bilan gullash xususiyatiga ega bo'lgan narsalarni bildiruvchi so'zlarga bog'lanadi: o'rik gulladi, jiyda gulladi kabi, lekin tosh, loy, suv kabi so'zlar bilan bog'lana olmaydi. Yashnadi, rivojlandi ma'nosi bilan yashnashi mumkin bo'lgan turli jamoa, tashkilot, mahalla nomlarini bildiruvchi so'zlarga ham bog'lanadi: qishloq gulladi, litsey gulladi kabi. Ko'rinadiki, o'zaro bog'lanayotgan so'zlarda mazmuniy uyg'unlik bo'ladi. Gapda so'zlarning bog'lanishi ikki xil bo'ladi:

a) teng bog‘lanish; b) tobe bog‘lanish.

Masalan, Kalila va Dimna; Kitobni o‘qimoq. Bularning birinchisida Kalila so‘zi Dimna so‘zi bilan va teng bog‘lovchisi yordamida; kitobni so‘zi esa o‘qimoq so‘ziga -ni tushum kelishigi yordamida bog‘lanyapti. Birinchi bog‘lanish teng bog‘lanish, ikkinchi bog‘lanish esa tobe bog‘lanish sanaladi.

O‘zaro teng bog‘langan bo‘laklar bir xil gap bo‘lagi vazifasida keladi va ko‘pincha bir xil so‘roqqa javob bo‘ladi. Ularni bir-biri bilan bog‘lovchi vosita sifatida teng bog‘lovchilar yoki sanash ohangi ishtirok etadi. Xususan, yuqoridagi o‘zaro teng bog‘langan bo‘laklarning hammasi qaratqich aniqlovchi vazifasida kelgan, kimning? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Hofiz, Navoiy, Bedil bo‘laklari bir-biri bilan sanash ohangi yordamida, Bedil esa Fuzuliy bilan va bog‘lovchisi yordamida bog‘langan.

Eslab qoling. Bir xil gap bo‘lagi vazifasida kelib, ko‘pincha bir xil so‘roqqa javob bo‘luvchi bo‘laklarning o‘zaro teng bog‘lovchilar yoki sanash ohangi yordamida bog‘lanishi teng bog‘lanish sanaladi.

Bir bo‘lakning boshqa bo‘lakka kelishik, shaxs-son, zamon qo‘shimchalari, ko‘makchilar va so‘z tartibi va ohang yordamida bog‘lanishiga tobe bog‘lanish deyiladi. Tobe bog‘lanish doimo ikki qismdan iborat bo‘ladi: tobe bo‘lak va hokim bo‘lak. So‘roq bog‘lanib kelgan qism hokim, so‘roqqa javob bo‘lib keluvchi qism tobe bo‘lak sanaladi. Masalan, chiroyli (qanday?) ko‘ylak, go‘zal (qanday?) mamlakat, dalaga (qayerga?) bormoq.

Tobe bo‘lak hokim bo‘lak bilan kelishik, egalik, shaxs-son qo‘shimchalari, ko‘makchilar va ohang yordamida bog‘lanadi. Bunday bog‘lanish ikki xil sintaktik birlikni vujudga keltiradi: a) gap; b) so‘z birikmasi.

Shaxs-son qo‘shimchalari yordamidagi bog‘lanish gapni, qolgan vositalar yordamidagi bog‘lanish so‘z birikmasini hosil qiladi. Solishtiring: Gul ochildi (shaxs-son, zamon qo‘shimchasi -di yordamida bog‘lanyapti) – gap. Gulning ochilishi (qaratqich va egalik qo‘shimchasi yordamida bog‘lanyapti) – so‘z birikmasi.

1-mashq. Gaplarni soʻz birikmalariga ajratib koʻchiring. Gap boʻlaklarining qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanganini tushuntiring.

Saxiylik kishilar oʻrtasidagi ishonch va muhabbatdan paydo boʻladi. Saxiy kishi oʻz iltifoti bilan birovga qarz yoki yordam bermaydi, balki unga boʻlgan ishonchining qanchalar quvvatga ega ekanligini oshkor etadi. Chingiz Ahmarov barchaga saxiylik koʻrsatishni xohlaydi. Hammaning koʻnglini olishni, qoʻlidan kelgancha yaxshilik qilishni istaydi. Demakki, u insonga ishonadi.

Chingiz Ahmarovning esdaliklarini oʻqib, savollarimga qisman javob topgandek boʻlaman: “Xalqning ishonchini oqlay oldimmi? Ruhimda toʻxtovsiz, iznsiz oqib yotgan cheksiz-chegarasiz hayajonlarimni, orzu-maqсадlarimni, ehtiroslarimni sanʼatga aylantirib, rang-tasvirga koʻchirib, odamlar qalbiga singdira oldimmi? degan soʻroq qarshisida shaxsiy yetishmovchiliklarim va turmush ogʻirliklarini esimdan chiqaraman, yanada koʻproq kuch bilan ishlash orqali xalqdan qarzlarimni uzishim kerakligini oʻylab ustaxonaga shoshaman. Yangi, katta asarlar yaratish ishtiyoqi meni bir soniya ham tark etmaydi... Ishlashim, tanda jon bor ekan, rasmlar chizishim kerak...”

2-mashq. Soʻz birikmalarini ajrating. Tobe boʻlakdan hokim boʻlakka bogʻlanish usullarini yozib qoʻying.

1. Tarixni anglash orqali insonda hayotni anglash qobiliyati shakllanadi. 2. Inson tarixning yaratuvchisi, ishtirokchisi va uni dunyoga keltiruvchi eng oliy xilqat ekanligini va bu rad etib boʻlmas haqiqatligini tan olamiz. 3. Insoniyat tarixi – bu har birimizga bogʻliq boʻlgan, oʻzligimizni koʻrsatadigan, bizning olis shajaramizni, nasl-u nasabimizni, insoniy qadr-u qimmatimizni belgilaydigan muqaddas va moʻtabar voqeʻlikdir. 4. Biz gʻolib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yangicha gʻoya kerak. Bu gʻoyaning zamirida xalqimizning oʻzligini anglashi yotadi.

Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas. 5. Har bir yangi avlod yangi tarixni taqozo etadi, uni yaratadi, takomillashtiradi. O'z dunyoqarashi va manfaatlari doirasida vujudga keltiradi.

(“Fidokor” gazetasidan)

Amaliy mashg'ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. So'z birikmasi?
2. Tobe so'z va hokim so'z?
3. Tobe so'zning hokim so'zga birikish yo'llari?
4. Otli va fe'lli birikma nima?

8-amaliy mashg'ulot:

GAP VA UNING IFODALANISHI

Reja:

1. Sodda gap sintaksisi.
2. Gap bo'laklari.
3. Qo'shma gaplar va ularning ifodalanishi.

Tayanch so'z va iboralar: *sodda yig'iq gap, sodda yoyiq gap, ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol, bog'langan qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap, ergash gapli qo'shma gap.*

Sintaksis yunoncha “syntaxis” so'zidan olingan bo'lib, “yopishtirish, bog'lash” demakdir. Demak, so'zlarning va gaplarning (qo'shma gap doirasida) o'zaro bog'lanish qonun-qoidalarini, ularning xillarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi sintaksis sanaladi. Bu bo'lim gapda so'zlarning bog'lanishini — so'z birikmalarini, gap va uning tuzilishi hamda mazmuniy turlarini o'rganadi. Boshqacha aytganda, sintaksis so'z birikmasi va gap haqidagi ta'limotdir. Biz o'z fikrimizni o'zgalarga yetkazish uchun gaplardan foydalanamiz. 1. Vatanimizni, milliy

qadriyatlarimizni chin dildan sevamiz. 2. Mehnat qilgan rohat ko‘radi. 3. Men institut talabasiman. Yuqoridagi uchta gap uch xil fikrni, uch xil axborotni ifodalaydi. Shu bilan birga, ulardan ifodalanayotgan voqeaning zamon, kim tomonidan bajarilayotganligi, bo‘lishli-bo‘lishsizligi, aniq-noaniqligi kabi qator ma’nolar ham anglashiladi. Bu ma’nolar gap kesimining kesimlik shakllari orqali ifodalanadi. Birinchi gapda sevamiz kesimi tarkibidagi -miz, ikkinchi gapda rohat ko‘radi kesimi tarkibidagi -a, -di, uchinchi gapda talabasiman kesimidagi -man shakllari shaxs, zamon (doimiylik), bo‘lishli (tasdiq), aniqlik ma’nolarni ifodalaydi.

Bu ma’nolar kesimlik ma’nolari sanaladi. Shuningdek, yuqoridagi ma’nolar kesimning nol shakli orqali ham ifodalanishi mumkin. Masalan: Bu – institut deganda uchinchi shaxs, hozirgi zamon bo‘lishli, aniqlik ma’nolari maxsus shakllar bilan ifodalanagan emas. Ohang ana shularning hammasini ifoda etadi. Maxsus shakllar qatnashmagan holda kesim nol shaklga ega bo‘ladi. Kesimlik ma’nolari maxsus shakllar yordamida (shaxs, zamon, bo‘lishli-bo‘lishsiz va mayl shakllari) hamda 0 (nol) shakl yordamida ifodalanadi. Demak, har qanday gapning asosida kesim yotadi.

Gapning gap bo‘lmagan boshqa sintaktik birliklardan (masalan, so‘z birikmasidan) farqi ham kesimlik belgisidir. Masalan: Men keldim – gap. Bu gapda keldim so‘zi grammatik shakllanib kesim vazifasida kelyapti. Mening kelishim — gap emas. Kelishim kesimlik shakliga ega emas va kesim vazifasida kelmayapti. Kesimlik belgisiga ega bo‘lgan har qanday so‘z gap bo‘lib kela oladi. Masalan: Bahor... Go‘zalsan!

Kesimlik belgisiga ega bo‘lib, tugallangan ohang bilan talaffuz qilinuvchi va ma’lum bir fikr ifodalovchi sintaktik birlik gap deyiladi. Kesimlik ma’nolari kesimlik shakllari orqali ifodalanadi. Har bir kesimlik ma’nosi alohida-alohida ifodalanishi mumkin. Masalan, yoz-ma (tasdiq-inkor) -say (mayl) -di (zamon) -m (shaxs-son). Bitta kesimlik shakli bir necha kesimlik

ma'nolarini ifodalaydi. Masalan, kel-di (o'tgan zamon, III shaxs, tasdiq, aniqlik mayli) yoki talaba-man (I shaxs, hozirgi zamon, tasdiq, aniqlik mayli). Ba'zan kesimlik ma'nolari hol shakli orqali ifodalanadi. Masalan, Kel (kelasi zamon, II shaxs, tasdiq-buyruq mayli) yoki Men talaba (I shaxs, hozirgi zamon, tasdiq, aniqlik).

Kesim nima qildi? nima bo'ldi? nima qilmoqda (qilyapti)? kim (dir)? nima (dir)? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan, ishlasang, tishlaysan maqoli ikkita kesimdan tashkil topgan. Birinchisi nima qilsang?, ikkinchisi nima qilasan? so'roqlariga javob bo'ladi. Otam – o'qituvchi gapida o'qituvchi bo'lagi kesim sanalib, kim (dir)?, kim hisoblanadi? so'roqlariga javob bo'ladi.

Kesimlar ifodalanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) fe'l kesimlar; 2) ot kesimlar.

Fe'ldan ifodalanib, nima qilmoq? nima bo'lmoq? so'roqlariga javob bo'lgan kesimlarga fe'l kesim deyiladi. Masalan, kitob o'qiyapman gapida o'qiyapman nima qilyapman? so'rog'iga javob bo'lib, fe'l kesim sanaladi.

Opam – shifokor gapida shifokor kim(dir)? So'roqlariga javob bo'lib, ot kesim hisoblanadi.

Esda saqlang. Ot, sifat, ravish, son, olmoshdan foydalangan kesimlarga ot kesim deyiladi.

Fe'l kesimlar shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, mayl "modal" ma'nolarni kesimlik (fe'l) shakllari orqali ifodalaydi. Ot kesimlarda esa otni kesim qilib shakllantirish uchun maxsus vositalar (-man, -san, -dir; bo'la (-man, -san, -dir). hisoblana (-man, -san, -dir), sanala (man, -san, -dir) qo'shiladi. Bunday ot kesimni shakllantiruvchi vositalar bog'lama deyiladi. Bog'lama ba'zan qo'llanilmasligi mumkin. Bunday vaqtda kesim ohang yordamida shakllanadi. Masalan: U o'quvchi.

Kesimlar tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma kesimlarga bo'linadi. Faqat bir so'z bilan ilodalangan kesimga sodda kesim, ikki va undan ortiq so'z bilan ilodalangan kesimga esa qo'shma kesim deyiladi. Masalan, qirlarda lolalar ochildi gapida ochildi

sodda kesim, “Lolazor” romanini o‘qib chiqdim gapida (o‘qib chiqdim bo‘lagi qo‘shma kesim sanaladi).

Sodda va qo‘shma kesimlar ifodalanishiga ko‘ra sodda fe‘l kesim va sodda ot kesim hamda qo‘shma fe‘l kesim va qo‘shma ot kesimlarga bo‘linadi Masalan, 1. Dugonam tashqariga ko‘z qirini tashladi. 2. Dadam kasalxonaning bosh shifokori hisoblanadi. Birinchi gapda ko‘z qirini tashladi bo‘lagi nima qildi? so‘rog‘iga javob bo‘lib, qo‘shma fe‘l kesim, ikkinchi gapda esa kasalxonaning bosh shifokori hisoblanadi bo‘lagi kim hisoblanadi? so‘rog‘iga javob bo‘lib qo‘shma ot kesim vazifasini bajaradi.

Ega kesim bilan grammatik va mazmun tomondan bog‘langanligi uchun doimo kesimning shakliga mos shaklda turadi. Eganing kesim shakliga mos (shaxs-son) shaklda kelishiga moslashuv deyiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan talabaman kesimi birinchi shaxs birlikda turganligi uchun uning egasi ham birinchi shaxs birlikdagi olmosh bo‘ladi. Yoki ishlaysiz kesimi II shaxs ko‘plik (hurmat) shaklida turganligi uchun u faqat siz so‘zini tanlaydi va bu so‘z ega vazifasida keladi.

Kesim bilan ega ba‘zan son shakli bo‘yicha moslashmasligi mumkin. Xususan, ega narsa, hayvonlarni bildiruvchi so‘zlar bilan ifodalanganda. Masalan, qushlar sayraydilar emas, qushlar sayraydi, lekin shaxsda doimo moslik bo‘lishi shart.

Gapning kesimi bilan bog‘lanib predmetlik ma’nosini ifodalovchi va kimni? nimani? kim (bilan, orqali, uchun), nima (bilan, orqali, uchun) so‘roqlariga javob bo‘lgan ikkinchi darajali bo‘lakka to‘ldiruvchi deyiladi.

Men undan (kimdan?) so‘radim: Mehringni qo‘yib, bunchalar saralab gul (nimani?) terding kimga? Gulidan (nimadan?) ko‘zini (nimani?) uzmayin singlim. Asta javob berdi: – O‘qituvchimga (kimga?).

To‘ldiruvchi kesimdan anglashilgan harakat-holat, belgi-xususiyat bilan bog‘langan predmetni bildirganligi tufayli ot, olmosh va otlashgan so‘zlar bilan ifodalanadi. To‘ldiruvchi doimo

gapning kesimi bilan bog‘lanadi. Agar u bog‘langan so‘z kesim bo‘lib shakllana olmagan bo‘lsa, ana shu so‘z bilan birgalikda kesimga nisbalan bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi. Bunday vaqtda u gapning emas, bo‘lakning bo‘lagi bo‘ladi. Masalan, Onamdan eshitgan gaplarni aytdim. Bu yerda onamdan eshitgan gaplarni birikmasi nimalarni? so‘rog‘iga javob bo‘lib, kesimga bir butun holda bog‘lanadi. Bu birikmali to‘ldiruvchi o‘z ichida qismlarga bo‘linadi: onamdan eshitgan (qanday) gap. Qanday? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi onamdan eshitgan birikmali aniqlovchi o‘z ichida yana tarkibiy qismlarga bo‘linadi: onamdan (kimdan?) eshitgan. Shunday qilib, to‘ldiruvchilar kesimga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanish-bog‘lanmasligiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: a) mustaqil to‘ldiruvchilar; b) nomustaqil to‘ldiruvchilar.

To‘g‘ridan to‘g‘ri kesimga tobe bog‘lanib kelgan to‘ldiruvchilar mustaqil to‘ldiruvchilar sanaladi. Masalan, seni sog‘indim gapida kimni? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi seni so‘zi kesim vazifasida keluvchi sog‘indim bo‘lagiga bog‘lanib, mustaqil to‘ldiruvchi vazifasida keladi. Kesim vazifasida kelmagan, bunday to‘ldiruvchilar o‘zi bog‘langan fe‘l bilan bog‘langan to‘ldiruvchilar nomustaqil to‘ldiruvchi hisoblanadi. Shuning uchun u biron bir ikkinchi darajali bo‘lakning tarkibiy qismi – bo‘lakning bo‘lagi vazifasini bajaradi. Masalan, Dangasaning non yeyishini ko‘r gapida dangasaning non yeyishini birikmasi nimani? so‘rog‘iga javob bo‘lib, birikmali to‘ldiruvchi vazifasida keladi. Birikmali gap bo‘lagi esa kimning? va nimani? so‘roqlariga javob bo‘luvchi aniqlovchi (dangasaning) va to‘ldiruvchi (non)larni o‘z ichiga oladi. Bu bo‘lak tarkibidagi non bo‘lagi nomustaqil to‘ldiruvchi, bo‘lakning bo‘lagidir.

To‘ldiruvchilar kesim bilan qanday bog‘lovchi vosita yordamida bog‘lanishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: a) kelishikli to‘ldiruvchilar; b) ko‘makchili to‘ldiruvchilar. Masalan, sen bilan (kim bilan?) olam munavvar gapida sen bilan bo‘lagi ko‘makchili to‘ldiruvchi. Senga (kimga?) aytar gapim bor gapidagi senga bo‘lagi kelishikli to‘ldiruvchi sanaladi.

To'ldiruvchi hokim bo'lakdan anglashilgan harakatiga, munosabatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) vositasiz to'ldiruvchi; 2) vositali to'ldiruvchi.

Tushum kelishigi orqali ifodalangan to'ldiruvchi vositasiz, qolgan shakllardagi to'ldiruvchilar vositali sanaladi.

Hol doimo fe'l kesimga bog'lanadi. Masalan, Quyosh ko'kdan mo'ralab qarar gapida qarar so'ziga mo'ralab so'zi bog'lanib, undan anglashilgan harakatning tarzini, ko'kdan so'zi qarar so'ziga bog'lanib, uning o'rnini bildiradi. Ba'zan hol ot kesimlarga ham bog'lanishi mumkin. Bunday vaqtda hol ot kesimdan anglashilgan predmetning o'rnini bildiradi. Masalan: Andijonda o't yoqsam, Farg'onada tutuni.

Ayrim paytlarda hol kesim vazifasida kelmagan fe'llarga ham bog'lanishi mumkin. Hol bog'lanib kelgan fe'lning kesim vazifasida kelishi yoki kelmasligiga ko'ra hollar xuddi to'ldiruvchilar kabi mustaqil va nomustaqil hollarga bo'linadi.

To'g'ridan to'g'ri kesim vazifasidagi fe'lga tobe bog'lanib kelgan hollarga mustaqil hollar deyiladi. Masalan, Dalalarda boshlanadi ish. (H.Olimjon) Bu gapda qayerda so'rog'iga javob bo'luvchi dalalarda o'rin holi nima qiladi? nima bo'ladi? so'roqlariga javob bo'luvchi fe'l kesimga tobe bog'lanib kelyapti. Shuning uchun bu hol mustaqil holdir.

Kesim vazifasida kelmagan fe'llarga tobe bog'langan hollar nomustaqil hol hisoblanadi. Masalan, Daladan charchab kelgan yigit tezda uxlab qoldi. Bu gapda qayerdan? so'rog'iga javob bo'lib hol vazifasida kelayotgan daladan bo'lagi kesimga emas, balki aniqlovchi vazifasidagi charchab kelgan bo'lagiga tobe bog'lanib kelyapti. Shuning uchun bu hol nomustaqil hol hisoblanadi.

Hollar o'zi bog'lanib kelgan hokim bo'lakning qanday belgisini bildirishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: 1) ravish holi; 2) o'rin holi; 3) payt holi; 4) sabab holi; 5) maqsad holi.

Ma'lum bir gap bo'lagi vazifasida kelgan predmetni bildiruvchi so'zlarga bog'lanib, uning belgisini bildirgan bo'lak

aniqlovchi hisoblanadi. Masalan, Shakar qovunlarning mayin hidlari sabo bilan tarqalar sekin gapida nima tarqaladi? so‘rog‘iga shakar qovunlarning mayin hidlari birikmasi javob bo‘ladi. Demak, bu birikmaning hammasi yaxlit holda birikmali ega vazifasida keladi. Birikmali ega, o‘z navbatida aniqlovchi va aniqlanmish qismlarga bo‘linadi: shakar qovunlarning (qaratqich aniqlovchi) mayin hidlari (aniqlanmish). Qaratqich aniqlovchi ham, aniqlanmish ham birikmali bo‘lib, sifatlovchi va sifatlanmishlardan tashkil topgan. Shakar (sifatlovchi) qovunlarning (sifatlanmish), mayin (sifatlovchi) hidlari (sifatlanmish). Aniqlovchilar sifat, olmosh va sifatdoshlr bilan ifodalanadi. Aniqlovchilar predmetning qanday belgisini ifodalashiga ko‘ra turli bo‘ladi:

- a) sifatlovchi aniqlovchilar;
- b) qaratqich aniqlovchilar;
- d) izohlovchi aniqlovchilar.

Predmetning belgisini (ta‘m-maza, xil-xususiyat, miqdor, tartib, o‘rin-paytga munosabat) bildirgan aniqlovchilarga sifatlovshi aniqlovchi deyiladi. Sifatlovchi aniqlovchilar qanday? qanaqa? qancha? nechta? qaysi? qanaqa? qayerdagi? nechanchi? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Masalan, qizil (qanday?) olma, uchta (nechta?) olma, ana bu (qaysi?) olma, adirdagi (qayerdagi?) olma, kechagi (qachongi?) olma, uchinchi (nechanchi?) sinf kabi. Sifatlovchi aniqlovchi sifatlovchi aniqlanayotgan predmet esa sifatlanmish deb yuritiladi. Sifatlovchi va sifatlanmish munosabati sifatlovchili birikma sanaladi.

Qaratqich aniqlovchi qaratqich, qaratqich aniqlovchi bog‘langan bo‘lak esa qaralmish deyiladi. Qaratqich va qaralmish munosabati qaratqichli birikma hisoblanadi. Qaratqich aniqlovchi qaratqich kelishigi shaklini, qaralmish egalik qo‘shimchasi shaklini olgan bo‘ladi. Qaratqichda qaratqich kelishigi doimo tushib qolavermaydi. Agar qaratqich atoqli otlar, olmoshlar, otlashgan so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lsa, albatta, qaratqich kelishigi bilan qo‘llanadi. Shuningdek, qaratqich va qaralmish

o'rtasida boshqa bir so'z bo'lsa, qaratqich kelishigi tushib qolmaydi. Masalan, Mirzacho'l shamoli, Mirzacho'lning sovuq shamoli.

Qaratqich bilan qaralmish o'zaro shaxs-sonda moslashadi. Masalan: mening daftarim, sening daftaring, uning daftari. Ayrim otlar, hatto atoqli otlar ham ba'zan bir necha shaxslarni ifodalashi mumkin. Bunday vaqtda ko'pincha qaysi Ahmad?, qaysi Karim? singari so'roqlar yordamida gap kim haqida ketayotganligini aniqlashtirib olamiz. Ana shu vaqtlarda izohlovchilarga ehtiyoj tug'iladi.

Predmetni boshqa bir nom berish bilan aniqlaydigan bo'lakka izohlovchi aniqlovchi deyiladi. Masalan, akademik Habib Abdullayev, Jo'ra soatsoz, dutorchi qizlar kabi. Izohlovchi bog'langan hokim bo'lak izohlanmish deyiladi. Izohlovchi va izohlanmish munosabati izohlovchili birikma sanaladi.

Izohlovchi-izohlanmish munosabati sifatlovchi-sifatlanmish munosabatiga o'xshaydi, lekin ular qanday so'zlar bilan ifodalanishi bilan farq qiladi. Sifatlovchi-sifatlanmish munosabatida sifatlovchi, asosan, sifat va sifatlashgan so'zlardan ifodalanadi. Sifat+ot ko'rinishida bo'ladi. Solishtiring: qizil gul (sifatlovchi-sifatlanmish); professor G'ozil Olim Yunusov (izohlovchi-izohlanmish). Izohlovchi taxallus va o'xshatish ma'nolarini bildirganda, izohlovchi bilan izohlanmish o'rtasiga tire qo'yiladi. Masalan. Erk kuychisi — Abdulhamid Cho'lpon she'rlarini sevib o'qiyman.

Bir umumiy bo'lakka tobe bog'lanuvchi, bir xil sintaktik vazifa bajaradigan, o'zaro teng bog'lovchilar va sanash ohangi yordamida bog'langan, ko'pincha bir xil so'roqqa javob bo'luvchi ikki yoki undan ortiq bo'laklarga uyushgan bo'laklar deyiladi. Gap bo'laklari ham, bo'lakning bo'laklari ham uyushib kelishi mumkin. Masalan, Rangi o'chgan, umri kechgan kuz guli...egil (Cho'lpon) gapida rangi o'chgan, umri kechgan bo'laklarining har ikkisi qanday? so'rog'iga javob bo'lib, kuz guli bo'lagiga tobe bog'langan. Bu bo'laklar o'zaro sanash ohangi yordamida teng

bog‘langan eganing aniqlovchilari sifatida bo‘lakning uyushgan bo‘laklari sanaladi. Uyushgan bo‘laklar ishtirok etgan gaplar uyushiq bo‘lakli gaplar hisoblanadi.

Gap tarkibidagi ma‘lum bo‘lakning ma‘nosini ta‘kidlab, izohlab keluvchi, boshqa bo‘laklardan to‘xtam va ohang jihatidan ajralib turuvchi bo‘laklarga ajratilgan bo‘laklar, shunday bo‘lakli gaplarga esa ajratilgan bo‘lakli gaplar deyiladi. Ajratilgan bo‘laklar ishtirok etgan gaplar mazmunan murakkablashadi. Gapning asosiy qismi ifodalagan axborotga ajratilgan bo‘lakdan anglashilgan qo‘shimcha axborot qo‘shiladi. Masalan, Tursunali akaga, shunday katta olimga, kuyov bo‘lish hazil gap emas. (O‘.Usmonov) Bu gapda birinchi axborot Tursunali akaga kuyov bo‘lish hazil gap emasligi gapning asosiy qismi orqali, ikkinchi axborot esa Tursunali akaning katta olimligi ajratilgan bo‘lak orqali ifodalanadi. Yuqorida bayon qilinganidek, ajratilgan bo‘laklar ikki xil vazifani bajaradi:

- a) ma‘lum bir bo‘lak ma‘nosini ta‘kidlash, bo‘rttirish;
- b) ma‘lum bir bo‘lakning umumiy ma‘nosini izohlash, konkretlashtirish, tushunarsiz ma‘nosini tushuntirish.

Ajratilgan bo‘lakning bu ikki xil vazifasi uning ajratish usuli orqali ham bilinib turadi. Ajratilgan bo‘laklar yuqoridagi vazifaga muvofiq ikki xil yo‘l bilan ajratiladi: a) tartibni o‘zgartirish; b) bir nomni boshqacha nomlash.

Ikki va undan ortiq sodda gaplarning o‘zaro grammatik, mazmun va ohang tomondan bog‘lanishidan tashkil topgan sintaktik butunlik qo‘shma gap deyiladi.

Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar o‘zaro quyidagi grammatik vositalar yordamida bog‘lanadi:

1. Bog‘lovchilar: a) teng bog‘lovchilar (va, hamda; ammo, lekin, biroq; yo, yo... yo, dam... dam... va boshq.);

b) ergashtiruvchi bog‘lovchilar (shuning uchun, chunki, -ki va boshq.)

2. Bog‘lovchi vazifasidagi bo‘lsa, esa so‘zlari va -u (-yu), -da yuklamalari.

3. Ohang: Qor yog‘di – rizq yog‘di.

Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarning o‘zaro qanday bog‘lovchi vositalar yordamida grammatik bog‘lanishiga ko‘ra qo‘shma gaplar uch guruhga bo‘linadi:

1. Bog‘langan qo‘shma gaplar qismlari teng bog‘lovchilar: bo‘lsa, esa so‘zlari, -y(u), -da yuklamalari yordamida bog‘lanadi.

2. Ergash gapli qo‘shma gaplar qismlari ergashtiruvchi bog‘lovchilar yordamida bog‘lanadi.

3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar qismlari ohang yordamida bog‘lanadi.

Qismlari teng bog‘lovchilar, bo‘lsa, esa so‘zlari -y(u), -da yuklamalari yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar bog‘langan qo‘shma gap hisoblanadi.

Qo‘shma gap qismlari teng bog‘lovchilar yordamida ham, ergashtiruvchi bog‘lovchi yordamida ham bog‘lanmasa, u holda ular bir-biri bilan ohang yordamida bog‘lanadi. Ana shunday qo‘shma gaplar ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar yoki bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar deyiladi. Ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gap qismlari o‘rtasida turli xil ma’no munosabatlari bo‘ladi. Masalan,

Zidlik: Ko‘prikni biz qurdik, dushmanlar o‘tdi.

Sabab: Qo‘ng‘iroq chalindi, dars boshlandi.

Payt: Dalasida o‘smas tikonlar, cho‘llarida chopmas ilonlar va boshqalar.

Qismlari o‘zaro ergashtiruvchi bog‘lovchi yoki shunday bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar yordamida tobe bog‘langan qo‘shma gaplarga ergash gapli qo‘shma gaplar deyiladi. Ergash gapli qo‘shma gaplar bosh va ergash gaplardan tashkil topadi. Mazmuni izohlanayotgan qism bosh gap, bosh gap mazmunini izohlaydigan va ko‘pincha tobe shaklda turgan qism esa ergash gap sanaladi. Ergash gap bosh gap talab etgan ma’lum so‘roqqa javob bo‘ladi. Masalan, Men xursandman, (nima sababli), chunki sen maqsadingga yetding.

1-mashq. Berilgan matnni o‘qing. Sodda gaplarni bog‘langan qo‘shma gaplarga aylantirib ko‘chiring.

ENG OG‘IR ZARBA

Xon bir begunoh odamni o‘g‘irlikda ayblab, uni toshbo‘ron qildirishga farmoyish beripti. Ko‘cha-ko‘yda ko‘ringanlar odamlarni qatl maydoniga haydab kelibdilar. Har kim mahkum yonidan kamida bittadan tosh otib o‘tishi shart deb e‘lon qilinibdi.

Olomon ichida mahkumning ukasi ham bor ekan. Xonning qahridan qo‘rqib, to‘nining paxtasidan bir hovuch olibdi-da, akasi sari otibdi. Minglab odam tosh otganda “voy” demagan aka o‘z ukasi paxta otganda, dod deb yuboribdi.

(Gazetadan)

2-mashq. Quyidagi gaplardan bog‘langan qo‘shma gaplar hosil qiling. Yo‘qsa, esa, bo‘lsa kabi vositalar bog‘lovchi vazifasini bajarsin.

1. U otasini sovuq qarshi olgani esiga tushardi. Ich-ichidan ezilib ketardi. 2. Ular eshaklarini shahar chetidagi soyda qoldirishdi. U yog‘iga piyoda ketishdi. 3. Ertayevning qisilgan ko‘zlari qorong‘ida “yalt” etgan pichoqday yiltillab ketdi. Komil qadalib turganini ko‘rdi. Yuzini chetga burdi. 4. Tergovchi qayoqqadir ketgan. U parvo qilmasdi. 5. Uchovlashib uni zo‘rg‘a tinchitishdi. Yigitlar navbatma-navbat darchadan mo‘ralab, Komilning yo‘lini poylashdi. 6. Kun botdi. Komildan darak bo‘lmadi. 7. Hozirgina Chavandozning oldiga kirdi. Aniq bir javob ololmas edi.

(O.Yoqubov)

Amaliy mashg‘ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Sodda gap deb nimaga aytiladi?
2. Sodda yig‘iq va sodda yoyiq gaplarga misollar keltiring.
3. Qo‘shma gaplar ta‘rifi?
4. Murakkab qo‘shma gaplar turlari?

9-amaliy mashg'ulot:

TINISH BELGILARI

Reja:

1. Nuqta, vergul va tirening ifodalanishi.
2. Qo'shtirnoq, ko'p nuqta va qavsning ifodalanishi.
3. Qavs, nuqtali vergul, ikki nuqta va undov belgilarining qo'llanilishi.

Tayanch so'z va iboralar: *punktuatsiya, nuqta, vergul, nuqtali vergul, ko'p nuqta, ikki nuqta, qavs, tire, qo'shtirnoq, undov va so'roq belgilari.*

Punktuatsiya so'zi yunoncha "punktum" – "nuqta, o'rin, joy" degan ma'noni anlatadi, ya'ni tinish belgilarini o'rganadi. Hozirgi kunda yozma nutqimizda 10 ta tinish belgilardan foydalanamiz. Ular quyidagilar:

I. Nuqtaning yozuv belgisi sifatida ishlatilishi qadimgi arab manbalariga borib taqaladi. U o'zbek tilida tinish belgisi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatila boshlangan.

Nuqta o'zbek tilida, odatda, quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. His-hayajonsiz aytilgan darak, buyruq gaplardan so'ng.

Milliy istiqlol sharofati bilan yangicha tafakkur va yangicha fikrlash shakllanmoqda. O'zingga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rma. Farzandlarimiz doimo sog'lom bo'lsin.

2. Atov gaplardan keyin.

Ilk bahor. Daraxtlar endi kurtak yoza boshlagan palla.

3. Ismi, otasining ismi (ba'zan familiya ham) qisqartirilganda, ularning birinchi harfidan so'ng.

M.Behbudiy, A.Fitrat, A. Cho'lpon kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir. *A.S. Pushkin* — rus poeziyasining quyoshi.

4. Nashriyot ishlarida, lug‘at va ma’lumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so‘zlarning birinchi harfi yoki bo‘g‘inidan so‘ng.

va sh.k. (va shu kabilar); s.t. (so‘zlashuv tilida); G‘.G‘. (G‘afur G‘ulom); Nav. (Navoiy); Toshk. (Toshkent); “O‘qituvchi” nashr.; 1995-y.

5. Qo‘shma gapning birinchi qismidan so‘ng kuchli to‘xtam bo‘lsa, mantiqan biri ikkinchisiga bog‘lanmagan qo‘shma gaplar orasida ham nuqta ishlatiladi. Bunday hollarda ikkinchi gap ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun bog‘lovchilari bilan boshlanishi mumkin.

Bobodehqon yerga baraka urug‘ini ekish bilan band. Chunki dalalarda ish qizg‘in.

6. Ba’zi bir hollarda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so‘ng ham nuqta qo‘yilishi kuzatiladi: 21.03.2010.

7. Butunning qismlarini sanash uchun qo‘llanilgan arab raqamlaridan so‘ng ham nuqta ishlatilishi mumkin.

Tovushlar quyidagi turlarga bo‘linadi: 1. Unli tovushlar. 2. Undosh tovushlar.

8. Hisob-kitob ishlarida nuqta belgisidan ko‘paytiruv alomati sifatida ham foydalaniladi. $2 \cdot 2 = 4$ (ikki karra ikki to‘rt).

II. Vergul tinish belgisi sifatida G‘arbiy Yevropada XV asrdan boshlab ishlatila boshlangan. O‘zbekcha matnlarda XX asr boshlaridan boshlab uchraydi. Undan quyidagi o‘rinlarda foydalaniladi.

1. Uyushiq bo‘laklar orasida.

Bolalarning xulqi, odobi, yurish-turishi, ko‘cha-ko‘yda, mahallada o‘zini tutishi, do‘stlari orasidagi mavqeyi, hurmati, oila yumushlariga qo‘shayotgan hissasi bilan doimo qiziqib turish lozim (M.Inomova).

2. Undalmalar vergul bilan ajratiladi.

*Uka, o 'qishning erta-kechi bo 'lmaydi. Men Sizni, oyijon, juda yaxshi ko 'raman. Salom sizga, **purviqor tog 'lar!***

3. Kirish so'z va kirish birikmalardan so'ng.

***Shubhasiz**, Vatanimiz jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o 'rin olajak. **Forobiyning yozishicha**, inson jamiyatda, o 'zaro munosabatlarda voyaga yetadi.*

4. Tasdiq, ta'kid, inkor va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi *ha, yo 'q, rahmat, xo 'sh, qani, xayr, ofarin, salom* kabi so'z-gaplardan keyin kelgan bo'laklarni ulardan ajratish uchun ham vergul qo'yiladi.

***Ha**, hushyor bo 'lish har bir fuqaroning Vatan oldidagi muqaddas burchidir. **Xayr**, biz jo 'nab ketyapmiz. **Xo 'sh**, xalq uchun siz nima ish qildingiz? Bu haqda o 'ylab ko 'rdingizmi?*

5. Ajratilgan bo'laklar orasida.

*Onaga, **eng ulug' zotga**, ehtirom chinakam insoniylik sanaladi. O 'zbekistonda, **jahonga yuz tutgan obod va ozod mamlakatda**, demokratiya kundan kunga barqarorlashib bormoqda.*

6. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil qilgan sodda gaplar orasiga.

Do 'sting mingta bo 'lsa ham oz, dushmaning bitta bo 'lsa ham ko 'p. Yurgan – daryo, o 'tirgan – bo 'yra.

7. Bog'langan qo'shma gaplarda ham vergul ishlatiladi.

Bilimli va tadbirkor bo 'ling, lekin bu xislatlaringiz sizni xudbinlikka sira yetakmalasin. Yo biz boraylik, yo siz keling.

8. Undov so'zlar his-hayajon bilan aytilmasa, ulardan so'ng vergul ishlatiladi.

***Ey**, menga bir minutga qarab qo 'ying.*

9. Ko'chirma gap darak, buyruq gap bo'lsa, undan so'ng vergul qo'yiladi.

***"Inson qalbi javohirlardek toza, pok bo 'lmog'i lozim"**, — deb aytgan edi Abu Rayhon Beruniy.*

III. So‘roq belgisining kelib chiqishini lotincha *questio* — so‘roq so‘ziga olib borib taqaydilar. O‘zbekcha matnlarda 1885-yildan boshlab uchraydi. 1900-yildan so‘ng muntazam ishlatila boshlangan.

So‘roq belgisi quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. So‘roq gaplarning oxirida.

Yomonlikning jazosiz qolmasligini bilasizmi? Navoiyning tilshunoslikka bag‘ishlangan qanday asari bor? Vazifani bajarib bo‘ldim (darak gap). Vazifani bajarib bo‘ldim? (ohang o‘zgaradi).

2. *Kim? nima? qanday? qanaqa? qaysi?* kabi so‘roq olmoshlaridan so‘ng.

Rang-tusni bildiruvchi sifatlar qanday? qanaqa? qaysi? so‘roqlariga javob bo‘ladi.

3. Gap yoki matn ichidagi birorta so‘z yoki jumla mujmal, noaniq, tushunarsiz bo‘lsa, undan so‘ng qavs ichiga qo‘yiladi. “Toping!” ma’nosida.

Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” qissasida (?) o‘zbek xalqining yaqin o‘tmishi haqida hikoya qilinadi. $5 \cdot 5 = ?$ (matematikada).

IV. Undov belgisi o‘zbek tiliga rus tilidan o‘tgan. Undov belgisi quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. Kuchli his-hayajon bilan aytilgan gaplardan so‘ng qo‘yiladi.

Oqpodsho yerdan bir siqim tuproq oladi.

– *Ana tuproq, mana tuproq! – deydi. – Bo‘rsildoq tuproq, mag‘izdor tuproq, hosildor tuproq. Tuproqmisan-tuproq! (Tog‘ay Murod)*

2. Buyurish, yalinish, istak, xohish va shu kabi ma’nolarni ifodalovchi gaplarning oxirida ham ishlatiladi.

Siz ham oyoqni ishlating! – deb buyurdi. Suv ostida o‘pqonlar ko‘p. Tortib ketmasin! (P. Qodirov)

3. So‘z boshida kelib, kuchli his-hayajon bilan aytilgan undalmalardan so‘ng qo‘yiladi.

Ey arslonlar arsloni! Mening yozuqlarimdan o't, mening qo'limni tut, belimni bog'la, muqaddas fotihangni ber! (A. Fitrat)

4. *Ha, yo'q, xo'p, uzr, mayli, xayr, salom kabi so'z-gaplar hayajon bilan aytilsa, ulardan so'ng qo'yiladi.*

Balli-balli! – dedi Rahim va Sharifga qarab im qoqdi. (A. Qodiriy)

Yo'q! Borolmayman, — dedi qayrilib.

5. Matn ichida alohida ta'kidlangan, ajratib ko'rsatilgan so'zlardan keyin qavs ichida berilishi mumkin.

“Boburnoma”da tarix, etnografiya, til, adabiyot geografiya, biologiya, botanika, hatto tabobatga (!) oid g'oyat qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

6. Aytilishi lozim bo'lgan fikr o'ta kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket uchta belgi qo'yiladi.

Charos kafti bilan yuzini to'sgancha o'zini orqaga tashladi.

– A-a-a!!! — dedi chinqirib. (O'.Hoshimov)

– Chiqar buni jallod!!! Jallodlar harakatlandilar.

– Xanjarimiz qonsirag'on! (A.Qodiriy)

7. His-hayajon bilan aytilgan so'roq, shuningdek, ritorik so'roq gaplardan so'ng.

Kimdir seni kutsa, kimnidir sen ham sog'insang, qanday baxt bu! (O'.Hoshimov)

V. Qavs o'zbek yozuvida XIX asrning oxirgi choragidan boshlab ishlatila boshlangan. Dastlab “Turkiston viloyatining gazetisi” da 1873-yilda ishlatilgan.

U quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Kiritma gaplarda. *O'zbekiston paxta ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanib (Xitoy, AQSH, Hindiston va Pokistondan keyin beshinchi o'rinda turadi), eksport bo'yicha AQSHdan so'ng ikkinchi o'rinda turadi.*

2. Remarkalarda. *Xon (yolg'iz). Shu tiriklikdan-da, bezdirdilar meni (Turib yuradur). Bir dushmanimning qoni qurimayin yana bittasi chiqib qoladur. (A.Fitrat)*

3. Olingan misollar yoki gaplar manbayida. Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidur. (**Abdulla Avloniy**) Jannat onalar oyog‘i ostidadur (**Hadisdan**). “Qasosli dunyo” (“**Avlodlar dovoni**” romanidan).

4. Izoh ma’nosidagi so‘z yoki so‘z birikmalarida.

Ro‘za hayiti (**Iyd al Fitr**) va Qurbon hayiti (**Iyd al Adha**)ning birinchi kuni O‘zbekiston Respublikasi hududida dam olish kuni deb belgilangan. “Demokratiya” yunoncha so‘z bo‘lib, tarjimada xalq hokimiyati (**demos — xalq, kratos — hokimiyat**) ma’nosini bildiradi.

5. Shaxs, joy, asar, hodisa va shu kabilarning ikki xil varianti berilsa, ulardan biri qavsga olinadi. “Qutadg‘u bilig” (“**Baxt keltiruvchi bilim**”). Shuhrat (**G‘ulom Aminjonovich Olimov**) atoqli o‘zbek yozuvchilaridan biridir.

Eslatma. Qavsdan matematika fanida ham keng foydalaniladi.

$(57 + 38) - 17 = ?$

[] ko‘rinishidagi qavsdan foydalanish hollari ham ko‘p uchraydi. Masalan, egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda shah [a] ri, o‘r [i] ni, sing [i] lisi so‘zlaridagi “a”, “i” tovushlari qoidaga ko‘ra tushiriladi kabi.

VI. Ko‘p nuqta XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbekcha matnlarda ishlatila boshlangan. 1876-yildan e’tiboran “Turkiston viloyatining gazetini”da muntazam qo‘llangan.

Ko‘p nuqta quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida.

To‘ra biroz o‘ylab turgach, podshoning devordagi suratini, so‘ngra o‘zining yelkasidagi pogonini ko‘rsatdi.

– Mana shu imperiya... .

Miryoqub hech narsa anglamadi. (A. Cho‘lpon)

2. So‘zlovchining cheksiz his-hayajonini, beqiyos tabiat manzaralarini ifodalash uchun.

Do‘xtir ayol og‘iz berkitib piq-piq yig‘ladi.

– Men... men O‘zbekistonda besh-olti yil ishlab edim, – deya yig‘ladi. – Bechora xalq-a, bechoragina xalq-a. (T.Murod). Qish... Butun atrof oppoq libosda...

3. Matn (jumla) qisqartirilsa.

– Anovi kuni menga bir oyat aytib edingiz?

– Xo‘sh, xo‘sh?

– Ilkimdin kelguncha... — deb boshlanar edi.

– Ha-ha, bo‘tam, lekin bu oyat emas, hazrat Navoiyning hikmatlaridur. (X. To‘xtaboyev)

4. Fikr bo‘lib-bo‘lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilsa.

Muhammadyor yolg‘iz:

– Turkistonda birinchi m...m...m... artaba tia... t... t... tr, — dedi-da, fikrg‘a toldi. (A.Cho‘lpon)

5. Suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirilsa.

– Manavi dub eshiklaringizni yelkamda tashib kelganman. Tushundingizmi?

– ...

– Tushundingizmi, deya pman? (X.Sultonov)

6. Tushirib qoldirilgan harf, so‘z yoki boshqalar o‘rnida.

Nuqtalar o‘rniga kerakli harfni qo‘yib ko‘chirib yozing.

Xayri...x, a...loq, ...abar.

VII. Tireni amaliyotga rus yozuvchisi N.M.Karamzin (XVIII asr) kiritgan. U o‘zbek yozuvida XIX asrning 70-yillaridan boshlab ishlatila boshlangan.

Tire quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Dialoglardagi har bir gapning boshida.

– Amaki, o‘ylab gapiryapsizmi? Qancha yo‘l yurib kelganimizni bilasizmi?

– Bilmayman. Qayerdan kelganingizning menga farqi yo‘q.

– Siz tabibmisiz o‘zi?

– Odamlar shunaqa deyishadi. Olloh istasa, men bir vositachi bo‘laman-u, dardmandga shifo yetadi. Bo‘lmasa yo‘q.

– Nima mening oshnamni davolashni Xudoyingiz istamayotibdimi? – dedi Kesakpolvon g‘ijinib.

– *Oллоҳ bir meniki emas, barchamizniki, – dedi chol ovozi bir parda ko‘tarib. – Siz nomusulmon odamga o‘xshab so‘zlar ekansiz. (T. Malik)*

2. Bog‘lamasiz qo‘llangan ot kesim bilan ega orasida.

Til – millatning qalbi. Yer – don, dehqon – xazinabon. Mehnating – boyliging.

3. Uyushiq bo‘laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin.

O‘zbek, qirg‘iz, qozoq, turkman, tojik – barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.

4. Muallif gapi bilan ko‘chirma gap orasida.

“Oddiylik axloqiy barkamollikning bosh shartidir”, — deb yozgan edi. (L.N.Tolstoy)

5. Ma‘lumot mazmunidagi asosiy gapdan so‘ng tartib bilan sanalgan har bir gap boshida.

1996-yil 26-aprelda ta‘sis etildi:

– *“Amir Temur” ordeni;*

– *“Buyuk xizmatlari uchun” ordeni.*

6. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilsa.

Olamni quyosh yoritadi, insonni – ilm.

7. Ayrim so‘z yoki gaplar izohlansa, ularning o‘rtasida.

O‘zbekiston Milliy sug‘urta kompaniyasi – “O‘zbekinvest”. Veksel – qimmatbaho qog‘oz, pul qarz olganlik haqidagi tilxat, qarz hujjatidir.

8. Zid ma‘noli bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar orasida.

Vaqting ketdi – baxting ketdi.

9. Kirishlar va ajratilgan bo‘laklar har ikki tomonidan vergul yoki tire bilan asosiy bo‘laklardan ajratiladi.

Biz – yoshlar – millatning tayanchi, Vatanning ishongan tog‘larimiz. Samarqanddagi Ulug‘bek rasadxonasida – bir paytlari bu yerdan turib ulug‘ bobomiz osmon ilmini o‘rgangan edi – katta ko‘lamda ta‘mirlash ishlari boshlab yuborildi.

10. Tenglik, taqqoslash va hokazo ma'nolarni bildiruvchi so'zlar orasida:

Toshkent — Andijon avtomobil yo'li ta'mirdan chiqarilmoqda.

11. Nashr, kitobot ishlarida.

Sultonov X. Onamning yurti. Qissa va hikoyalar. — T.: "Adabiyot va san'at nashriyoti", 1987.

Eslatma: Hisob-kitob bilan bog'liq fanlarda tire ayirish belgisini bildiradi: 307 – 23. Bugun Toshkentda – 3 °C sovuq bo'ladi.

VIII. Qo'shtirnoqni amaliyotga rus olimi prof. A.A.Barsov kiritgan. O'zbek yozuvida u kiritish belgisi sifatida XIX asrning 80-yillaridan boshlab uchraydi.

Qo'shtirnoq quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinadi.

"Apil-tapil qilingan ishning umri qisqa", – degan edi Sa'diy Sheroziy. *I.V.Gyote shunday deb aytgan edi: "Donishmandlik faqat haqiqatdadir"*. ***"Er kishiga zeb-u ziynat"***, – degan edi Alisher Navoiy, – ***hikmat va donishdir***".

2. Sitatalar qo'shtirnoq ichida yoziladi.

Buyuk yozuvchimiz A. Qahhorning quyidagi gaplari hali hanuz o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q: *"Yozuvchi adabiyotga ikki xil kiradi: birinchi asari bilan tutab, biri yashnab kiradi.*

Tutab kirgan yozuvchi uzoq tutaydi, ko'nglidan chiqarib emas, qornidan chiqarib yozadi. Yozuvchilikka cho'g'day yashnab kirgan yozuvchi asardan asarga yashnayveradi..."

3. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar, ishlatilishi odat tusiga kirmagan, eskirgan yoki yangi qo'llanayotgan, kesatiq, piching, do'q-po'pisa va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi leksik birliklar qo'shtirnoq ichida yoziladi.

... oradan yana bir necha oy o'tib, uchinchi marta sud bo'lgan. Bu safar Botirovning "jinoyati" o'n bir yillik qamoq bilan "taqdirlandi". (T.Malik) "Xalq artisti", beliga o'q tekkanday erta-yu kech to'rdagi karavotga yonboshlab "Teatr"

jurnalini varaqlaydi, xalq artisti bo‘lmoq sirlarini axtaradi, chamasi. (E.A’zamov)

4. Badiiy asarlar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va kartina nomlari qo‘shirnoq ichida beriladi.

“Lison ut-tayr” (Qush tili) asari haqida suhbatlashdik.

“Ma’rifat” gazetasi, **“Saodat”** jurnali, **“Mening oppoq kabutarlarim”** spektakli, **“Sohibqiron”** dramasi, **“Amir Temur”** portreti.

5. Korxona, muassasa, tashkilot, zavod, fabrika, mehmonxona, kema nomlari qo‘shirnoq ichida yoziladi.

“Uzdunrobita” qo‘shma korxonasi, **“Kochxolding”** konserni, **“Kamolot”** ijtimoiy harakati, **“Istiqlol”** tennis sport majmuasi, **“Diyor”** savdo uyi, **“Ekosan”** xalqaro jamg‘armasi, **“O‘zbekavtotrans”** Davlat aksionerlik korporatsiyasi, **“O‘ZDEUavto”** O‘zbekiston – Janubiy Koreya qo‘shma avtomobil zavodi, **“Chorsu”** mehmonxonasi.

6. Transport (mashina, samolyot, avtobus va sh.k.)larning markasini bildirgan so‘zlar, o‘simliklarning turini, mahsulotlarning nomini ifodalovchi leksik birliklar qo‘shirnoqqa olinadi.

“Neksiya” rusumli yengil mashina, **“Boing”** samolyoti, **“Otayo‘l”** mikroavtobusi, **“Kibo”** oyoq kiyimi, **“Hojimatov damlamasi”**.

7. Ayrim orden va medallar, faxriy unvonlar nomi qo‘shirnoq ichida beriladi.

“El-yurt hurmati” ordeni 1998-yil 28-avgustda ta’sis etildi. Professor Q.G‘. Abdullayev **“O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi”** faxriy unvonini bilan mukofotlandi.

8. Qonun, farmon, buyruqlarning nomi, ayrim bandlari qo‘shirnoq ichida beriladi.

1995-yilning 6-may kuni **“Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirishlar kiritish haqida”** Qonun qabul qilindi.

9. Sinflarning tartibini bildiruvchi harflar, baho ballari ham qo‘shirnoq ichida beriladi.

11-“A” sinfi **“Quvnoqlar va zukkolar”** bahsida g‘olib chiqdi. O‘qituvchimiz bugungi javobimga **“besh”** baho qo‘ydi.

IX. Ikki nuqta o‘zbek yozuvida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan e’tiboran ishlatila boshlangan.

U quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplardan so‘ng.

Oltmishga kirib bildim: umrim bekorga o‘tmabdi, odamlarga kerakli ekanman hayotda iz qoldiribman. (A.Qahhor)

2. Ko‘chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so‘ng.

Bundan so‘ng Qutidor turib ichkariga yugurdi, yarim yo‘ldanoq tanchada o‘tiruvchi Oftoboyim va Kumushga qichqirdi:

– Sir ochildi! (A.Qodiriy)

3. Uyushiq bo‘laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan keyin.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari: Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi milliy iftixorimiz, sharaf va shonimiz sanaladi.

4. Reja, amaliy mashg‘ulot, qaror qilindi kabi so‘zlardan so‘ng.

Amaliy mashg‘ulot: Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni.

Yuqoridagilar asosida yig‘ilish qaror qabul qildi:

I. Jamoaning Navro‘z bayramiga tayyorgarlik ishlari qoniqarli deb topilsin.

II. Navro‘z – umumxalq bayramini ko‘tarinki ruhda munosib kutib olish uchun yana zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.

5. Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta’minlash maqsadida turli xil rasmiy ma’lumotlarda, nashr ishlarida ayrim so‘zlardan keyin.

Toshkentda “Mustaqil O‘zbekiston: falsafa va huquqning dolzarb masalalari” amaliy mashg‘ulotida uchinchi an’anaviy respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

6. Sport musobaqalarida raqiblar o'rtasidagi hisobni ifodalash uchun olingan ochkolar yoki kiritilgan gollarning nisbatini belgilash uchun.

Sidneydagi XXVII yozgi olimpiada o'yinlarida hamyurtimiz Muhammadqodir Abdullayev raqibini 27 : 21 hisobi bilan yengdi.

“Andijon” va “Paxtakor” komandalari o'rtasidagi o'yin durang natija bilan tugadi – 2 : 2.

Eslatma: Hisob-kitob ishida bo'luv alomati sanaladi. 100 : 2 – 50

X. Nuqtali vergul o'zbek yozuvida 1885-yildan boshlab uchraydi. U quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatidan tugal fikrni anglatib, bir-biriga yaqin bo'lmagan hollarda.

Lekin avtor shu kichkinagina hikoyada katta ish qiladi; o'quvchining ko'z oldiga odamning havasi keladigan, har qanday kishining muhabbatini o'ziga qaratadigan, har qancha izzat qilsa arziydigan va bu izzatga o'zining jafokashligi, g'ayrati, farosati, el-yurt uchun qayg'urishi bilan sazovor bo'lgan bir chol keladi. (A. Qahhor)

2. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda.

Ish kuchini elga berma, yerga ber; jamg'armani selga berma, elga ber!

Yaxshini yomon dema, olishing bo'lsa ham,

Yomonni yaxshi dema, yaqining bo'lsa ham.

3. Uyushiq bo'laklar guruhlanib, o'zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, har bir guruhni anglatuvchi so'zdan keyin.

Gerb rangli tasvirda bo'lib, Humo qushi kumushrangda; quyosh, boshloqlar, paxta chanog'i va “O'zbekiston” degan yozuv tillarangda; g'o'za shoxlari va barglari, vodiylar yashil rangda; tog'lar havorangda; chanoqdagi paxta, daryolar, yarimoy va yulduz oq rangda beriladi.

4. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandidan tashqari har bir bandi oxirida.

Otabek timsoliga tavsif:

a) Otabek – o‘qimishli, o‘z davrining yetuk kishisi;

b) Otabek – mard va jasur yigit;

d) Otabek – o‘z ahliga sodiq, vafoli yor.

1-mashq. Matnlarni ko‘chirib yozing. Tirening qo‘yilish sabablarini tushuntirib bering.

Tarixiy sana va bayram nomlari

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 137-moddasiga muvofiq quyidagi kunlar bayramlar sifatida dam olish kunlari deb belgilandi:

1-yanvar – Yangi yil;

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni;

21-mart – Navro‘z bayrami;

9-may – G‘alaba kuni (Xotira va qadrlash kuni);

1-sentabr – Mustaqillik kuni;

8-dekabr – Konstitutsiya kuni.

Ma’lumot uchun, 2020-yili prezidentning O‘RQ-648-sonli qonuni bilan, 11-noyabr “Kasaba uyushmalari kuni” etib belgilangan.

11-noyabr – Kasaba uyushmalari kuni.

2-mashq. Gaplarni o‘qing. Ko‘p nuqtaning ishlatilish sabablarini tushuntiring.

– E-e, otam... – Qo‘zivoyni hiqichoq tutib qoldi. – X-xush kekelib... h-hiq... siz... H-hozir sizni... (*M. Ochilov*). Tor sadolari yuraklarni zirillatib tilga kirganidan keyingina zal asta-sekin tinchiy boshladi. O‘sha ondayoq Alimardonning tiniq ovozi osuda parvoz etdi:

“...Rangginamni sariq qilgan ul qalam qoshi...”.
(*O‘.Hoshimov*)

Xoji Ahmad o‘lar vaqtida Muhammadyorga qarab:

– O‘g‘lim! Meros sen...ga...o‘lturgan...joy... Vasiyatim...-o‘qi.. o‘.. qu..o‘qu..o‘qi..Men..r-r-r..zomen., — deb jon taslim qildi. (A.Cho‘lpon)

... O‘sha kecha shahar ko‘chalarida uzoq aylanib yurdim. (O‘.Hoshimov)

– Yig‘layman, to‘yib-to‘yib yig‘lab olaman goho. Pahlavonda ham yurak bor, uning ham g‘am-g‘ussasi bor, ukam... (X.To‘xtaboyev)

Asablar,

Asablar,

Asablar...

Sababsiz sochilgan g‘azablar

Gunohsiz chekilgan azoblar.

(E.Vohidov)

Amaliy mashg‘ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Nuqta va ikki nuqta tinish belgilari ishtirok etgan gaplar tuzing.

2. Tire va qo‘sh tirnoq tinish belgilarining o‘ziga xosligini aytib o‘ting.

3. Qavs va ko‘p nuqta tinish belgilari nima maqsadda qo‘yiladi?

4. Vergul va nuqtali vergul tinish belgilari ishtirok etgan matn yozing.

10-amaliy mashg'ulot:

SOHAVIY ATAMA VA SO'ZLARNING KELIB CHIQISHI HAMDA ULARNING VAZIFAVIY XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Atamalar va kasb-hunarga oid so'zlar leksik birlik sifatida.
2. Atamalar ma'nosidagi chegaralanish.
3. Kasb-hunarga oid so'zlarning vazifaviy uslubda qo'llanilishi.
4. Kasb-hunarga oid so'zlarning ilmiy va rasmiy uslubdagi vazifasi.

Tayanch so'z va iboralar: atamalar, umumiy va xususiy atamalar, morfologiya, assimilyatsiya, til birliklari me'yorlari.

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ma'lum fan, ishlab chiqarish sohasidagina qo'llaniladigan va asosan o'sha soha kishilari tushunadigan maxsus so'zlar *terminlar* – atamalar sifatida qaraladi.

“Hozirgacha termin tushunchasi tilshunoslikda turlicha talqin qilinmoqda, – deb qayd etishadi “*O'zbek tili leksikologiyasi*” asarining mualliflari. – Ba'zi tilshunoslar terminga ilm va texnikaga oid so'z va iboralarinigina emas, barcha uy-ro'zg'or asboblari nomlarini, ishlab chiqarishning hozirgi darajasidagi qurollarnigina emas, balki o'tmishdagi ibtidoiy qurollarning barcha nomlarini ham kiritadilar.

Agar masala shu taxlitda qo'yiladigan bo'lsa, har bir konkret predmet nomini termin deb atash lozim bo'lar edi. Gap terminning aniq bir ma'noni ifodalashida emas, bu jihatdan qaraladigan bo'lsa, kasb-hunar leksikasining ilmiy-texnikaviy terminlardan deyarli farqi yo'q, termin har qanday tushunchaning aniq atamasi sifatidagina emas, balki ilmiy tushunchani ifodalovchi vosita sifatida asosan yozma shaklda maydonga keladi”.

Demak, **“atama”** soʻzini *“termin”* tushunchasi maʼnosida qoʻllaganimizda, *uni umuman narsa-predmetlar, voqea-hodisalarning nomi sifatida emas, balki aniq bir ilmiy tushunchani ifodalaydigan va maʼlum bir fan sohasiga tegishli boʻlgan birliklarni anglashimiz lozim.*

Shu maʼnoda kasb-hunarga oid soʻzlar atamalardan farqlanadi. Bu haqda quyiroqda toʻxtalamiz.

Oʻzbek tilshunosligida *atamalarni oʻrganishga doir* koʻpgina ishlar amalga oshirilgan.

Koʻplab ilmiy kitoblar, risolalar, lugʻatlar, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar yozilgan, dissertatsiyalar himoya qilingan. Bu borada 200 dan ortiq lugʻatlarning nashr etilishi fanimizning katta yutugʻi hisoblanadi. Oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, *“Lotin yozuvi asosidagi oʻzbek alifbosiga oʻtish toʻgʻrisida”*gi Qonunning qabul qilinishi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi *Atamalar qoʻmitasi* olib borayotgan yirik hajmdagi ishlar atamashunoslik sohasining yanada yuqori bosqichga koʻtarilishiga sabab boʻldi.

Atamalarning shakllanishi ham xalqning tarixi qadar qadimiyydir. Toʻnyuquq, Kultegin, Bilga hoqon singari bitiktoshlarda xalqimiz mashgʻul boʻlgan hunarlarga oid atamalarni uchratamiz. Ular xalq tomonidan yaratilgan afsonalarda, qahramonlik qoʻshiqlarida ham mavjud boʻlgan. Ularni mujassam qilgan Mahmud Qoshgʻariyning *“Devonu lugʻotit-turk”* asari ularning bizgacha yetib kelishida katta tarixiy vazifani bajargan. Masalan, asardan ovchilik amaliy mashgʻulotidagi parchalarni olib koʻraylik:

Chagʻri berib qushlatu,
Toygʻan izib tishlatu,
Tilki, toʻngʻiz toshlatu
Ardam bila oʻklalim.

Mazmuni: (Yigitlarga) chagʻri (ov qushi) berib qush ovlaylik, Ov itini (qushlarning) izidan solib tishlataylik. Tulki, toʻngʻiz(lar)ni tosh bilan uraylik, Yutuqlarimiz bilan maqtanaylik.

Yigitlarig ishlatu,
Yig‘ach yamish irg‘atu.
Qulan, kiyik avlatu,
Bazram qilib avnalim.

Mazmuni: Yigitlarni ishlataylik, daraxt(lar)dan meva(lar)ni qoqtiraylik. Qulon, kiyik ovlataylik, (So‘ng) bayram qilib ovunaylik.

Shunday qilib, mana shu kabi tarixiy-ilmiy-badiiy manbalar orqali birgina jismoniy tarbiya va sportga oid *kurash, chopish, sakrash, chavandozlik, yoy, kamon, o‘q otish, mergan, merganlik, eshkak, kema, suzish, o‘zish, o‘yin, tepish, tepki, to‘p, to‘r, chavgon, qanot, qilich, kema yoki shaxmatga oid shatranj, shohmot/shaxmat, shoh/shax, farzin, rux, fil, ot/asp, piyoda/sipoh, mot, pot/pat, dona, oq, qora, katak, qanot, yurish, kishi, hujum* singari ko‘plab atamalar bizgacha yetib kelgan. Bu hol ijtimoiy hayotning barcha sohalariga tegishli.

Hatto dastlab shunday bir vaziyat yuzaga keldiki, atamalarni “*milliylashtirish*” ga ishtiyoq kuchayib ketdi. Tavsiyalar ham nihoyatda ko‘paydi. Jo‘yali fikrlar bilan bir qatorda, hazm bo‘lishi qiyin bo‘lgan takliflar ham o‘rtaga tashlandi. *Bu gapning tasdig‘i sifatida ayrim misollarni keltiramiz: matematika-riyoziyot, fakulteti-kulliyot, rassom-musavvir, gazetxon-mushtariy, auditoriya-saboqxona, xona, o‘quv xonasi, sirk-tomoshaxona, sirkul-pargar, sellofan-suvqog‘oz, seyf-zarf, attestatsiya-ko‘rik, samolyot-aeroplan, tayyora, aeroport-tayyoragoh, familiya-naslnoma, klub-da‘vatxona, titul list-sarvaraq va hokazo.*

Bu kabi tavsiyalar mustaqillikdan keyin – “*Davlat tili haqida*”gi Qonun qabul qilingach, o‘rtaga tashlandi. Ona tilimizning chin fidoyilari erksevar va millatsevar jadidlar tomonidan esa shu mazmundagi mulohazalar asrimizning boshlarida, mustamlakachilik paytlaridayoq o‘rtaga tashlanganligi tarixdan ma’lum.

Ulug‘ ma’rifatparvar Fitrat 1921-yildagi til, imlo qurultoyida kontrrevolyutsion “Chig‘atoy gurungi” tashkilotining dasturini

bayon etib, o'zbek tilidan yot so'zlar (arabcha, forsha, ruscha)ni chiqarib tashlasak, buyuk idealimiz bo'lgan turkchilikka birlashamiz, deb ochiq-oydin aytdi.

Ular (tilning sofligi uchun kurashuvchilar) ko'plab qadimiy so'zlarni tiriltirishni, o'zbek adabiy tiliga qabul qilishni tavsiya qildilar. Masalan, *arabcha zahmat, xalq, duo, nasihat, rais, olam, kitob, maktub* so'zlari o'rniga *emgak, el, o'qish, o'gut, boshliq, ochun, bitik, yozo* q so'zlarini, forsha *shahar, guvoh, tajriba* so'zlari o'rniga *baliq, taniq, sipok* so'zlarini, ruscha *parovoz, poyezd, revolyutsiya, proletar, samovar, pochta, agronom, elektr, geografiya, botanika, astronomiya, morfologiya, sintaksis* kabi so'zlar o'rniga *o'txona, otash arava, o'zgarish, yo'qsil, o'zi qaynar, choparxona, ekin bilg'ich, simchiroq, yer biligi, o'simlik biligi, yulduz biligi, sarf, nahv* kabi so'z va iboralarni ishlatishni ko'tarib chiqdilar.

Bu qarashlar shu ma'noda diqqatga sazovorki, ularda tilni mumkin qadar chet el unsurlaridan tozalash, umumturkiy birliklarni *adabiy til me'yori* sifatida belgilash g'oyasi yotadi. Masalaning qo'yilishi ana shu tarzda tushuniladigan bo'lsa, yuqoridagi *riyoziyot, kulliyot, musavvir, mushtariy, saboqxona, pargar, tayyora, tayyoragoh, naslnoma, da'vatxona* kabi so'zlar bu g'oyaga mos kelmaydi.

Masalaning boshqa bir muhim tomoni bor: tavsiya etilgan birliklar adabiy tilimizga leksik me'yor sifatida qabul qilinmadi. Nega? Shuning uchunki, *birinchidan*, tildagi o'zgarishlar jarayoniga o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarning ta'siri bo'ldi. Millatsevarlik millatchilik deb ayblanayotgan bir davrda, tilimizga bo'lgan bu kabi munosabatlar, yangilikka intilishlar qo'llab-quvvatlanmadi. *Ikkinchidan*, asrimizning boshlarida, hatto hozirda ham narsa va tushunchalarni ifodalovchi birliklarni tavsiya etilgan so'zlar shaklida qo'llash hali me'yorlashmagan, odat tusiga kirmagan edi va shundayligicha qolib ketdi.

Tilimizda qo'llanilib kelinayotgan *avtor, arxitektor, gumanizm, doklad, ideologiya, inspektor, intelligent, kontrol,*

komandirovka, komandirovochnaya, leksiya, ministr, oblast, ostanovka, planeta, problema, rayon, raport, redaktor, revolyutsiya, spravka, student, sekretar, tema, territoriya, traditsiya, forma singari soʻzlar oʻrnini muallif, meʼmor, insonparvarlik, maʼruza, mafkura, nozir, ziyoli, nazorat, safar, safarnoma, maʼruza, vazir, viloyat, bekat, sayyora, muammo, tuman, bildirishnoma/xabarnoma, muharrir, inqilob, maʼlumot maʼlumotnoma, talaba, kotib/kotiba, amaliy mashgʻulot, hudud, anʼana, shakl kabi tavsiya etilgan soʻzlar osonlik bilan egalladi. Chunki ular dubletlar sifatida tilimizda ozmi-koʻpmi oldindan ham qoʻllanilib kelinayotgan edi.

Koʻpgina misollar tahlili atamalar, nomlanishlar turgʻunligi murakkab masala ekanligini koʻrsatadi. Oʻzbekiston Respublikasi sobiq Ittifoq tasarrufida ekanligida, rus tilining Ittifoq hududidagi boshqa tillarga taʼsiri kuchli boʻlgan paytlarda biz hech bir ikkilanmasdan *respublika, oblast, rayon, avtor, agitatsiya, propaganda, ideya, plan, forma, protsent, protsess, komandirovka, raport, spravka, student, sekretar, ministr* kabi soʻzlarni, garchi ularning tilimizda (oldin qaysi tildan qabul qilingan boʻlishidan qatʼi nazar) muqobil variantlari boʻlsa-da, ishlataverar edik. Vatanimizning mustaqillikka erishishi munosabati bilan tabiiy ravishda bu soʻzlarga jamoatchilik tomonidan munosabat bildirildi. *Jumhuriyat, viloyat, tuman, muallif, tashviquot, targʻibot, gʻoya, reja, shakl, foiz, jarayon, safar, bildirishnoma, maʼlumotnoma, talaba, kotib(a), vazir* kabi muqobil variantlari ham 90-yillar boshlaridan ular bilan bab-baravar qoʻllanila boshlandi va bu parallellik tilimizda meʼyor sifatida maʼlum muddat saqlanib turdi.

Endi oradan oʻn yildan koʻproq vaqt oʻtgach, butunlay boshqa manzara kuzatiladi. Bu oʻtgan vaqt orasida birinchi guruh soʻzlar asosan ikkinchi guruh soʻzlariga oʻz oʻrnini boʻshatib berdi, deb bemalol ayta olamiz. Nega asosan deb aytayapmiz? Shuning uchunki, saragi sarakka, puchagi puchakka deganlaridek, bu soʻzlarning har biri vaqt gʻalviridan oʻtdi. Ayrimlari hozir ham

parallellik xususiyatini saqlab qoldi: *respublika-jumhuriyat*, *universitet-dorilfunun* kabi. Ularning semantik-uslubiy ma'nolari aynan bir xil bo'lmagani uchun ham shunday bo'ldi.

Bunday parallel qo'llanishning boshqa sabablari ham bor. Biz tilshunosligimizda *epitet* – *sifatlash*, *derivatsiya* – *so'z yasalishi*, *affiks* – *qo'shimcha*, *abbreviatura* – *qisqartma so'z*, *anafora* – *misra boshidagi tovush takrori*, *antroponimlar* – *kishi ismlari*, *toponimlar* – *joy nomlari*, *atribut* – *aniqlovchi*, *affrikatlar* – *qorishiq undoshlar*, *stil* – *uslub*, *stilistika* – *uslubshunoslik* kabi o'nlab atamalarni parallel holda hozir ham ishlatib kelmoqdamiz. Buning boisi atamalarning birinchisi xalqaro termin sifatida barcha tillarda qo'llanilib kelinayotganligidadir.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, yangi tavsiya etilayotgan so'zlarning ma'qul kelishi va me'yorlashishi ularni tilda avval qo'llanilib kelinayotgan yoki kelinmayotganiga ham bog'liq. *Boshqacha aytganda*, ularni ko'rish va eshitishga odatlanish me'yorlashishiga ko'maklashadi.

Atamalar qo'llashda me'yorni saqlab turish boshqa so'zlar, masalan, ko'p ma'noli yoki sinonim so'zlar me'yorini turg'un holatda ushlab turishga nisbatan osondek tuyuladi. Aslida esa bu yerda ham o'z muammolari bor. Masalan, shu paytgacha tilimizda faol ishlatilib kelinayotgan *tovar* so'zi o'rniga *mol* so'zini ishlata olamiz: *mol*, *sanoat mollari*, *mol ayirboshlash*, *mol olib kelmoq*, *narxi tushirilgan mollar* kabi. Ammo bunday ishlatish bemalol emas. *Sanoat mollari* deyish mumkin bo'lgan holda *oziq-ovqat mollari* deb bo'lmaydi, *mol keltirdim* deganda faqat sanoat mollari tushuniladi-yu, *tovar keltirdim* deganda farqlanmasdanmi yoki *promptovari*, *prodtovari* so'zlariga asoslanibmi, har ikkalasi ham tushunilaveradi. *Tovar* so'zidan *tovaroved* so'zini yasay olamiz-u, *mol* so'zidan ana shu ma'nodagi *molshunos* so'zini yasay olmaymiz. Yasagan taqdirimizda ham u *mol* so'zining asosiy ma'nosiga – *hayvon* ma'nosiga tortib ketadi va *hayvonni yaxshi biladigan*, *hayvon bilan shug'ullanadigan kishi* ma'nolarini anglatadi. O'zbek tilida esa bunday ma'nolarni ifodalashga zarurat

bo'lmagan. Aytaylik, *insonshunos*, hatto hazil tariqasi-da *ershunos* deyish ham mumkin, ammo *hayvonshunos* deb bo'lmaydi. Shunday ekan, tilimizda *tovaroved* yoki *tovarshunos* so'zidan foydalanib turishga to'g'ri keladi.

Ma'lum bo'ladiki, tilshunoslik ilmida, tilshunoslar va boshqa mutaxassislar faoliyatida, ayniqsa, atamalar bobida tildan foydalanishdagi vaziyatni muvofiqlashtirish, bir xillikni yuzaga keltirish, osonlik va qulaylik yaratish, eng muhimi, tushunarli bo'lishni ta'minlash maqsadida tavsiyalar berib boriladi. Aytaylik, *agroprom*, *agroximiya*, *akvarel*, *annotatsiya*, *arxeolog*, *astronom*, *vakant* so'zlari o'rniga *dehqonchilik sanoati*, *dehqonchilik kimyosi*, *suv bo'yoq*, *muxtasar bayon*, *qadimshunos*, *falakiyotchi*, *bo'sh o'rin/bo'sh lavozim* kabi so'z va birikmalarni ishlatish taklifi (Misollar A.Berdialiyevdan olindi).

Ammo bu tavsiyalar qanchalik ilmiy, amaliy va me'yoriy asosga ega? Bu variantlarning qaysi biri tilda yashab qolishi mumkin? Ularning qaysi biri narsa va hodisaning, predmet va tushunchaning mohiyatini to'laroq ifoda etadi? Bu masalani, qaysi variant ma'qul bo'lishidan qat'i nazar, hayotning o'zi, til elementlaridan foydalanish jarayoni hal qiladi, albatta. Lekin bunday tavsiyalarning berib borilishi, tavsiya etilayotgan variantlarning afzallik tomonlari tushuntirib berilishi mutlaqo zarur bo'lgan faoliyatdir. Faqat shunday yo'l bilangina tilimiz takomillashib, sayqallashib, so'z ma'nolaridagi eng nozik imkoniyatlar ham reallashib boradi. Aytilganlarning tasdig'i sifatida bir misol keltiramiz: psixologiya faniga oid ko'plab atamalar shu soha mutaxassislarining tavsiyasiga binoan o'z o'rnini sharq ilmida qo'llanib kelingan atamalarga bo'shatib berdi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, tildagi holatlarni tayinlashda har bir tilning o'z ichki qonun-qoidalariga tayanib, ko'pchilikka ma'qul bo'lish-bo'lmaslik jihatlari e'tiborga olinishi kerak.

Shu o'rinda yana bir misolni tahlil qilaylik. Ko'plab atamalarning muqobillarini izlash jarayonida rayon so'zi

oʻrnida *nohiya*, *tuman* soʻzlari ishlatila boshlandi. Keyinchalik, garchi soʻzning asl mohiyatiga unchalik toʻgʻri kelmasa ham tuman soʻzi meʼyorlashdi. Ammo, taʼkidlash lozimki, bu soʻzning birgina maʼnosi – viloyatning bir qismi boʻlgan, maʼlum chegaraga ega boʻlgan, maʼmuriy hudud atamasi sifatida meʼyorlashdi. Ammo, lugʻatda rayon soʻzining umuman joy maʼnosini anglatish imkoniyati ham koʻrsatilgan: *prigorodniy rayon* – *shahar atrofi rayoni*, *promishlenniy rayon* – *sanoat rayoni*, *zavodskoy rayon* – *zavodlar rayoni*, *rayon voyennix deystviy* – *urush harakatlari rayoni*, *rayon boya* – *jang maydoni*, *oboronitelniy rayon* – *mudofaa doirasi* kabi. Bu birikmalarni qanday meʼyorlashtiramiz? Bizning ongimizda u hozircha maʼmuriy hudud tarzida shakllanib turgan ekan, shahar atrofi tumani, zavodlar tumani, urush harakatlari tumani tarzida ham meʼyorlashib keta oladimi?

Buning ustiga, shu soʻz oʻzagidan yasalgan *rayonirovaniye*, *rayonirovanniye* – *rayonlashtirish*, *rayonlashtirilgan* soʻzlari bor. Masalan, biror ekin navlari urugʻini, yaʼni biror joyning sharoitiga eng koʻp moslashtirilgan navlar urugʻini rayonlashtirish. Buni qanday meʼyorlashtiramiz? *Urugʻni tumanlashtirish* debmi yoki *urugʻni joylashtirish*, *urugʻni joylarga moslashtirish* debmi? Harqalay, nazarimizda, masalaning yechimini vaqt koʻrsatadi.

Atamalarni almashtirish va meʼyorlashtirishda roʻy berayotgan jarayonlarni tahlil qilib quyidagi xulosaga kelish mumkin: atamalarning bir qismi tezgina almashdi, meʼyorlashdi va ommalashdi, yana bir qismi esa variantlar, dubletlar tarzida baravar ishlatilib kelinmoqda. Atama sifatida tavsiya qilingan birliklarning maʼlum qismi esa tilda oʻz oʻrnini topmadi, koʻpchilik tomonidan maʼqul koʻrilmadi. Demak, mustaqillikdan keyingi davr atamalarini meʼyorlashtirish xususida gap ketganda ana shu jihatlarning hayotiy ekanligini inobatga olishga toʻgʻri keladi.

Atamalar qoʻmitasining bu jarayonni muvofiqlashtirib borishda, tartibga solib turishda xizmatlari katta ekanligini qayd

qilish lozim. Qo‘mita o‘z faoliyatida bu borada juda ko‘p vazifalarni amalga oshirdi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, kasb-hunar leksikasi bir qancha xususiyatlari bilan terminologik leksikadan farqlanadi. Bu farqlar “O‘zbek tili leksikologiyasi” kitobida yorqin ko‘rsatib berilgan. Asrlar davomida *yaratiladigan kasb-hunarga oid so‘zlar ma’lum kasb-hunar kishilari orasidagina qo‘llaniladi va ular og‘zaki nutq jarayonida shakllangan bo‘ladi*. Bu guruh so‘zlarning imkoniyati bir kasb-hunar va u bilan shug‘ullanadigan kishilar doirasida chegaralangan. Shu tufayli ularning dialektal variantlari mavjud bo‘lishi ham mumkin. Shunday xususiyatlari bilan ular atamalarga qarama-qarshi turadi. Chunki atamalar fan va texnika, sanoat va qishloq xo‘jaligi, ma’naviyat va madaniyat sohasiga doir rasmiy tushunchalarni ifodalaydi va ular tegishli mutasaddilar tomonidan nazorat qilib boriladi. Ilmiy tushuncha ifodasi sifatida asosan yozma shaklda vujudga keladi va umumjahon yoki umummilliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Kasb-hunarga oid til birliklari me‘yorlari haqida so‘z yuritish ham ahamiyatli. Mavjud lug‘atlarni ko‘zdan kechirish shundan dalolat beradiki, ulardan o‘zbeklarning ijtimoiy hayoti, kasbi va hunarmandchiligiga oid atamalarning ma’lum qismigina joy olgan. T.Tursunovanning “*O‘zbek tili amaliy leksikasi*” (T., 1978) asarida keltirilgan ayrim misollarga murojaat qilib ko‘raylik: gilam turlarini bildiradigan *julxirs, zulbaraq, arabi, olachapalos, xoli-g‘oli, sholcha-qoqma yoki bosma* (1. chakmon. 2. ilma, chok turi), birishim, bo‘zastar, gulburi, dorpech, dug/duk, duxoba, do‘kon (1. dastgoh, stanok. 2. magazin), do‘ppi, yondori, jo‘ypush, zardevol/zardevor, zardo‘zi, zehdo‘zlik, yo‘rma, yo‘rmado‘zlik, kallapo‘sh, kalobtun, kashtado‘z, kibaz, (paxta) momiq, palak, peshonaband / peshonabog‘, popop, popopchilik, resman, tubatoy, urchuq, choyshab, shamshirak, o‘rmak, qatim, qo‘chqorshoxi / qo‘chqorak va boshqalar. Ulardan gilamning turlarini bildiradigan arabi, palos, sholcha so‘zlari hamda chakmon ma’nosidagi bosma, dorpech, dug / duk, duxoba, do‘kon, do‘ppi,

yondori, joypuli, zardevor / zardevor, zardo‘zi, zehdo‘zlik, yo‘nna, yo‘rmado‘zlik, kallapo‘sh, kalobtun, momiq, palak, popop, popopchilik, peshonaband / peshonabog‘, urchuq, choyshab, o‘rmak, qatim singari birliklar lug‘atlarda keltirilgan (Bu haqda qarang: O‘zbek xalq shevalari lug‘ati – T., 1971; O‘zbek tilining imlo lug‘ati. T., 1976; O‘zbek tilining izohli lug‘ati, I–II tomlar. M., 1981). Ammo gilamning turlarini bildiradigan julxirs, zulbaraq, xirs, xoli, qoqma; ilma, chok tun ma’nosidagi bosma va birishim (ipak), bo‘zastar (mato), gulburi (gul kesish), resman (sariq va oq g‘altak ip), tubatoy (gulsiz oddiy do‘ppi), shamshirak (narvon pochasiga o‘xshash yog‘och), qo‘chqorshoxi/qo‘chqorak (to‘qimachilikda naqsh turi) so‘zlari esa yuqorida tilga olingan lug‘atlarda o‘z ifodasini topmagan. Bir so‘z ikki uslubda, fan sohasida atama sifatida me’yorlashgan bo‘lishi ham mumkin. Masalan,

morfologiya:

1. Tilshunoslikda – tilda so‘zlarning o‘zgarish shakllari tizimi, grammatikaning so‘z shakllarining yasash usullari hamda so‘z yasash qoidalari haqidagi bo‘limi;

2. Botanikada – tuproqning tuzilishi va shaklini o‘rganadigan fan sifatida;

assimilyatsiya:

1. Biologiyada – organizm faoliyati jarayonida organik moddalarning o‘zlashishi, singishi va hazm bo‘lishi;

2. Tilshunoslikda – so‘zlarning talaffuzida ularning tarkibidagi ikki tovushning bir-biriga ta’sir qilish natijasida bir-biriga muvofiqlashuvi, bir-biriga singib, o‘xshab ketishi;

3. Tarix va etnografiyada – biror xalqning ikkinchi bir xalq urf-odatlarini, madaniyati va tilini o‘zlashtirishi natijasida unga aralashib qo‘shilib ketishi kabi.

Til taraqqiyotida buning aksi ham kuzatiladi. Ma’lum fan sohasi yoki kasb-hunarga tegishli bo‘lgan atamalarning ma’no doirasi kengayadi – determinlashish jarayoni ro‘y beradi, ya’ni ular tor atamalilik doirasidan chiqib, ommalashadi va barcha

vazifaviy uslublarda qo'llanila boshlaydi. Masalan, odamni operatsiya qilmoq – valyuta operatsiyasini amalga oshirmoq – harbiy operatsiyani bajarmoq; polk shtabi – paxta shtabi, g'alla shtabi; falsafa ilmi – falsafa o'qimoq kabi. Ular shu tariqa turg'un birikmalar tarkibida ham qo'llanila boshlaydi: gegemonlik qilmoq, avtomat bo'lib ketmoq, monopoliya qilib olmoq, reytingi baland, gradusi baland, ishiga plyus bo'lmoq, ishiga minus bo'lmoq, qo'shtirnoqqa olmoq, zangori kema kapitani va boshqalar.

1- mashq. Har bir sohaga oid 15 tadan atama yozish.

Namuna: O'qituvchi: kitob, daftar, slayd, doska, bo'r.

2- mashq. Ilmiy atamalarni davom ettiring...

Namuna: Ildiz – daraxt ildizi; ildiz – matematik atama.

Amaliy mashg'ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Kursning maqsadi nima?
2. O'zbek tilining sohada qo'llanishi kursining vazifalari nimalardan iborat?
3. Kursning boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Kursning qanday ahamiyati bor?

11-amaliy mashg'ulot:

SOHAVIY ATAMALAR VA SO'ZLARNING BOYIB BORISH USULLARI

Reja:

1. Iste'moldan chiqib ketgan so'zlardan yangi tushunchalarni ifodalash.

2. Yasovchi qo'shimchalar yordamida yangi so'z yasash.

3. So'zga so'z qo'shib yangi so'z yasash.

4. O'zlashma so'zlardan foydalanish.

Tayanch so'z va iboralar: *eskirgan so'zlar, tarixiy so'zlar, arxaik so'zlar, dialektizm, affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya, neologizm.*

O'zbek tili leksikasi bir qancha manbalar asosida boyib, rivojlanib boradi. Ularni, eng avvalo, ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1) o'z ichki imkoniyatlari asosida;

2) boshqa tillardan so'z olish asosida. Ularning birinchisi ichki manbalar, ikkinchisi esa tashqi manbalar sanaladi.

1. O'zbek tili leksikasining birinchi yo'l bilan boyib borish imkoniyatlari juda kengdir. Masalan,

a) ilgari qo'llanilib, keyin iste'moldan chiqib ketgan so'zlardan yangi tushunchalarni ifodalash uchun foydalanish: *vazir, hokim, viloyat, shirkat, noib, tuman* kabi;

b) yasovchi qo'shimchalar yordamida yangi so'z yasash: *uyali telefon, omonatchi, pudratchi, bojxona, auditchi (auditor), dizaynchi (dizayner)* va boshqalar;

Shaxs oti yasovchi qo‘shimchalari	Misollar
-chi	– asos anglatgan narsa bilan shug‘ullanish: suvoqchi, tunukachi, ishchi, gulchi. – asos anglatgan narsani yaratish bilan shug‘ullanish: kashtachi, sandiqchi, tandirchi. – shaxsning biror belgi bilan ajralib turishi: lofchi.
-dosh	– shaxs oti: sinf dosh, sirdosh – atama nomi: sifatdosh, ravishdosh
-gar (-kar)	– asosdan anglashilgan narsa bo‘yicha shaxsning kasb-hunari: savdogar, kimyogar, miskar.
-bon	– asos anglatgan narsani yetishtiruvchi yoki shu narsaning saqlovchisi: bog‘bon, saroybon, darvozabon.
-kor	– asos anglatgan narsani yetishtiruvchi, shu bilan shug‘ullanuvchi: paxtakor, pillakor, sholikor, san’atkor
-dor	– asos anglatgan narsaga egalik yoki aloqadorlik: quldor, mulkdor, muhrdor, do‘kondor.
-shunos	– asos anglatgan sohaning mutaxassisi: tilshunos, adabiyotshunos, san’atshunos.
-furush	– asosda ifodalangan narsani sotish bilan shug‘ullanuvchi: chitfurush, qandfurush, giyohfurush.
-boz	– asos anglatgan narsa bilan ko‘p shug‘ullanish: dorboz, xotinboz, qimorboz, nayrangboz.
-xo‘r	– asosdan anglashilgan narsalarni ko‘p va tez-tez iste’mol qiluvchi: choyxoxo‘r, go’shtxo‘r, qimizxo‘r
-paz	– asosdan anglashilgan ovqatni pishirish, tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi: somsapaz, kabobpaz, mantipaz

-soz	– asos anglatgan narsani yasash, sozlash, tuzatish bilan shugʻullanuvchi: aravasoʻz, soatsoʻz, kemasoz
-doʻz	– asos anglatgan narsani tikish, yaratish bilan shugʻullanuvchi: etikdoʻz, kashtadoʻz, mahsidoʻz
-kash	– asos ifodalagan narsa bilan shugʻullanish, ish-harakatni shu orqali bajarish: aravakash, suratlash, janjalkash
-xon	– asosdan anglashilgan narsani oʻqish bilan shugʻullanuvchi: kitobxon, gazetxon

s) Soʻzga soʻz qoʻshib yangi soʻzlar hosil qilish:

Ikki mustaqil soʻzning birikib yasalaridan qoʻshma, juft va takroriy soʻz hosil boʻladi. Qoʻshma soʻz: sadarayhon, sotib oldi, tuyaqush, soddadil, biroz, bir nafas, birpas. Juft soʻz: qozon-tovoq, achchiq-chuchuk, achchiq-tiziq, bola-chaqa, katta-kichik; Juft soʻz yangi lugʻaviy maʼno anglatga, yasama soʻz hisoblanadi: bordi-keldi (aloqa), issiq-sovuq (ahvol), quyuq-suyuq (ovqat).

Masalan, chol-kampir soʻzining maʼnosi chol va kampir, aka-uka soʻzining maʼnosi aka va uka, asta-sekin soʻzining maʼnosi asta va sekin soʻzining alohida-alohida atash maʼnosidan farqlanmaydi. Takroriy soʻz: ququ (qush), didit (yengil mashina), popop (asli: poppop, tikuv mashinasi), tutu (tovuq), pat-pat (mototsikl), shapshap, es-es, koʻz-koʻz, qop-qop. Qoʻshma, juft, takroriy soʻzning hosil boʻlishi kompozitsiya usulida, lekin undan soʻz yasovchi qoʻshimcha qoʻshib yangi soʻz yasalsa, qoʻshimcha qoʻshish usuli ham yuzaga chiqadi: nom-nishonsiz, dom-daraksiz, orzu-havasli, ogʻainigarchilik, pirpirak, pirpiramoq, poʻsht-poʻshtlamoq, sarson-sargardonlik, son-sanoqsiz, uy-joyli, gijgijlamoq, hayhaylamoq, qarindosh-urugʻchilik, haybarakal-lachi, vaqtichogʻlik, boshpanasiz kabi. Demak, bir soʻzda ikki yasalar usuli ham uchrashi mumkin.

d) dialektal soʻzlarni faollashtirish: mengzamoq (Xorazm) “oʻxshatmoq”, “tenglashtirmoq”, “qiyoslamogʻ” maʼnosida.

2. Oʻzbek tili leksikasi tashqi manbalar asosida ham boyib bormoqda:

a) arab tilidan kirib kelgan soʻzlar orqali: Arabcha soʻzlar oʻzbek tiliga VII-VIII asrlardan boshlab kirgan. Bu hol arablarning Markaziy Osiyoni bosib olishi bilan bogʻliq. Kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, maʼno, ilhom, kasb, qassob, sanʼat, asbob, bino, imorat, ovqat, gʻalla, fil, parranda, hasharot, inson, odam, oila, amma, xola, dimogʻ, idora kabi.

b) fors-tojik tilidan kirib kelgan soʻzlar orqali: osmon, oftob, bahor, baho, barg, daraxt, mirob, dasta, bemor, gʻisht, dasht, xonadon, shogird, xaridor, mard, kam, chala, balki, agar, ham kabi.

s) rus tilidan kirib kelgan soʻzlar orqali: rus tilidan, rus tili orqali boshqa tillardan koʻplab soʻzlar oʻzlashdi. Rus tili orqali kirgan soʻzlarning baʼzilari dunyodagi koʻpgina xalqlarning tilida tovush tomoni deyarli oʻzgartirilmay ishlatiladigan xalqaro soʻzlardir. Ular, odatda, internatsional (baynalmilal) soʻzlar deb yuritiladi. Oʻzbek tiliga oʻzlashgan internatsional soʻzlar tarixiy jihatdan quyidagi tillarga mansub:

– rus tiliga: sudya, samolyot, stol, stul, tok, ruchka kabi.

– lotin tiliga: reviziya, nota, metall, refleks, rezina, general, kapital, kanal, plan, direktor, radio kabi.

– grek tiliga: grammatika, pedagog, talant, tezis, kafedra, poeziya, poema, metr, neft, taktika, parallel kabi.

– nemis tiliga: raketa, kran, shaxta, rolik, politsiya kabi.

– ingliz tiliga: chempion, futbol, dollar kabi.

– fransuz tiliga: roman, palto, serjant, ministr, bank kabi.

Rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan soʻzlar ijtimoiy-siyosiy hayotga, sanoat, qishloq xoʻjaligi, fan-texnika, madaniy-oqartuv, sanʼat, savdo, sport, harbiy sohaga doir.

Dunyoda boshqa tillardan soʻz olmasdan faqat oʻz ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta ham til yoʻq.

Bundan o'zbek tili ham mustasno emas. Faqat ma'lum zarurat tufayli yangi tushunchani ifodalovchi o'z tilimizning ichki imkoniyatlari asosida ifodalab bo'lmagandagina tashqi manbalarga murojaat qilish foydalidir. Bobolarimiz Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiylar ham shunga da'vat qilganlar.

Keyingi davrlarda tilimizga Yevropa tillaridan bir qancha so'zlar yangi tushunchalar bilan birgalikda kirib keldi. Masalan, *monitoring, diller, skayner* kabi.

Bularning hammasi o'zbek tili leksik imkoniyatlarini kengaytirib, boyitmoqda.

1-mashq. Ichki imkoniyat orqali yasalgan so'zlardan yozish.

1. Affiksatsiya (qo'shimcha qo'shish) usuli orqali 20 ta yangi so'z hosil qiling.

2. Kompozitsiya (so'zga so'z qo'shish) usuli orqali 20 ta yangi so'z hosil qiling.

3. O'zlashma so'zlardan 20 tasini keltirib o'ting.

2-mashq. So'zlarni tartib bilan qo'yib, gaplar tuzing.

1. Talabalar, jo'nab ketishdi, bugun, yordam berishga, paxtakorlarga.

2. Singlisiga, Asror, sotib oldi, bir quti qalam, bir rasm daftar.

3. Bo'lmadi, o'tgan yil, qishda, sovuq, qattiq.

4. Cho'mildik, yozda, suv omborida, Kattaqo'rg'on.

5. Olindi, bu yil, paxtadan, mo'l hosil.

6. Ikkita, gilam, biz, sotib oldik, chiroyli.

7. Singlisi, Javohirning, Madina, qiz, aqlli va kamtarin.

8. O'tadi, oqib, O'zbekistondan, daryo, ikkita, katta.

Amaliy mashg'ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Eskirgan so'zlar haqida ma'lumot bering.

2. Yangi paydo bo'lgan so'zlar nima deb nomlanadi.

3. Affiksatsiya usuli orqali fe'l so'z turkumidan ot so'z turkumiga oid so'zlar yasalishiga misollar keltiring.

4. Kompozitsiya usuli orqali qaysi soʻz turkumlariga xos soʻzlar yasash mumkin?

12-amaliy mashgʻulot:

OʻZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI. OʻZBEK ADABIY TILIDA UNLI VA UNDOSH HARFLAR IMLOSI

Reja:

1. Orfografik tamoyillar.
2. Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalar.
3. Unlilar imlosi.
4. Undoshlar imlosi.

Tayanch soʻz va iboralar: *orfografiya, imlo, tamoyil, fonetik tamoyil, morfologik tamoyil, tarixiy-anʼanaviy tamoyil, farqlash va etimologik tamoyil, unli va undosh harflar imlosi.*

Orfografiya – “togʻri yozmoq” demakdir. Orfografiya oʻz navbatida orfoepiya va alifbo (grafika) bilan uzviy bogʻliqdir. Imlo qoidalar orfografik tamoyillar orqali amalga oshiriladi. Tamoyil (prinsip) – lotincha boshlanish demakdir. Imloviy tamoyillar yozuvning poydevoridir. Orfografiyaning uchta asosiy tamoyili bor: 1) fonetik tamoyil; 2) morfologik tamoyil; 3) tarixiy-anʼanaviy tamoyil. Bulardan tashqari, 4) differensial (farqlash) tamoyili va 5) etimologik tamoyillar ham mavjud. Lekin keyingi ikkalasi asosiy rol oʻynamaydi. Oʻzbek orfografiyasidagi mazkur tamoyillar oʻzaro bogʻliq holda ish koʻradi. Yozuvda xilma-xillikka yoʻl qoʻymaslik uchun bularga qatʼiy rioya qilinadi.

1. Fonetik tamoyil. Soʻz tarkibidagi nutq tovushlarining aytilishi va eshitilishiga koʻra yozilishi fonetik tamoyilga xos. Bunga koʻra soʻzlar adabiy talaffuzda qanday aytilsa, shunday yoziladi. Masalan, ong oʻzagidan la affiksi bilan yasalgan soʻz onгла emas, angla shaklida yoziladi, Ishla negizidan yasal-

gan ishlovchi soʻzida -a oʻrniga -o yoziladi. (tara – taroq soʻzlarida ham shunday). Shuningdek, ruscha чёт, чётка soʻzlari ham eshitalishiga koʻra choʻt, choʻtka tarzida yoziladi. Fonetik tamoyil orfografiyani jonli talaffuzga yaqinlashtiradi. Yozuv va talaffuzda maʼlum darajada umumiylik saqlanadi. Nutqimizda tushdi soʻzi tushti, tushgan soʻzi tushkan tarzida talaffuz qilindi. Baʼzan soʻz oxirida bir undosh tushirilib aytiladiki (Samarqan, xursan, pas kabi), bu soʻzlar talaffuzdan boshqacharoq yoki toʻliq yoziladi. Bu holat fonetik tamoyil orfografiyaning yagona tamoyili boʻla olmasligini koʻrsatadi. Xuddi shuningdek, alifbodagi kamchiliklar tufayli unlilar qattiq va yumshoq talaffuz qilinishidan qatʼi nazar, bir xilda yoziladi: biz, tiz, qiz, qish, koʻl, koʻz, qoʻy, qoʻzi, qalb kabi.

2. Morfologik tamoyil. Nutqdagi soʻz va affikslar qanday aytilishiga koʻra emas, balki ularning butunligiga yoki variantlaridan birini tanlab olish asosida yozish morfologik tamoyil deyiladi. Morfologik tamoyil soʻz va morfemalarni adabiy tilda muqim shakllarida saqlash va yozishga koʻmaklashadi, yozuvda bir xillikni taʼminlaydi. Masalan, uchta soʻzi ushta, kelib turibdi soʻzi kep turipti tarzida aytiladi. Ammo ular asliga muvofiq uchta, kelib turibdi deb yoziladi. Yoki -lar affiksining -la, -lor, -nar tarzida aytilishiga qaramay, uning butunligiga koʻra -lar shaklida yoziladi. Feʼlning infinitiv shakli -moq, shuningdek, qoʻshimchalarning deyarli hamma shakli morfologik tamoyil boʻyicha yoziladi: Egalik affikslari: -im, -ing, -i hamda kelishik affikslari: -ning, -ni, -da, -dan (joʻnalish kelishigi bundan mustasno), soʻz yasovchilar ham turlicha aytilishidan qatʼi nazar, imloda oʻzining bir xil morfologik shaklini saqlagan holda yoziladi. Koʻrinadiki, morfologik tamoyil oʻzbek orfografiyasining yetakchi tamoyili boʻlib hisoblanadi.

3. Tarixiy-anʼanaviy tamoyil. Soʻzlarning hozirgi talaffuz normasiga mos kelmaydigan, qadimdan oʻzlashib qolgan shaklda yozilishi tarixiy-anʼanaviy tamoyil deyiladi. Boshqacha aytganda, soʻzlar hozirgi holatiga koʻra emas, balki anʼana tusiga kirib

qolgan qoidaga ko'ra yoziladi: Chor Rossiyasi, pudratchi, fahm, rahm kabi. Hozirgi orfografiyada tarixiy-an'anaviy tamoyil asosida yoziluvchi ba'zi shakllar quyidagilar:

1. Buyruq-istak mayli (-gin) mumtoz adabiyotimizda qo'llanib kelgan an'ana (she'riyat talabi)ga ko'ra -gil, -g'il tarzida ishlatiladi:

borgil // borg'il.

Meni kutgil va men qaytarmen (K.Simonov).

Bas, yetar, cholg'uvchi, bas qil sozingni,

Bas, yetar ko'ksing urmagil xanjar (A.Oripov).

2. Maqsad ma'nosini anglatuvchi -gani shaklining -gali, -g'ali, -kali, -qali shakllari:

Ko'rgali keldingmu yor,

Kuydirgali keldingmu yor (qo'shiq).

3. Hozirgi-kelasi zamon sifatdosh shaklini yasovchi –ur shakli:

Yulduzlar o'tiga bardosh berurman,

Fazolar taftiga qilurman toqat (A.Oripov).

4. -mu shakli:

Sevgini tortib bo'lurmu

Toshu tarozi bilan (E.Vohidov).

Qora qoshing oy yuzingda hilol emasmu (P.Mo'min).

5. Navoiy, Fidoiy, Atoiy kabi so'zlar arab tilining qoidasini o'zlashtirish asosida orfografiyamizga kirib kelgan.

4. Differensial tamoyil. Talaffuzda bir-biridan aniq farqlanmaydigan yoki o'zaro farqlari deyarli sezilmaydigan darajaga kelib qolgan so'zlar yozuvda maxsus qoida bilan ajratilib yozilish differensiyalash (farqlash) tamoyili deyiladi. Bu tamoyil kam qo'llanadi. Ayrim misollar:

1. O'zaro yaqin, shakldosh so'zlar yozuvda tutuq belgisi yordamida farqlab qo'llanadi: da'vo – davo, nash'a – nasha, she'r – sher, sur'at – surat, ta'qib – taqib kabi.

2. Ba'zi shakldosh so'zlar talaffuzda urg'u yordamida farqlanadi. Imloda bunday so'zlarga urg'u belgisi qo'yiladi: atlas

(karta) atlas (mato), banda (shayka) – banda (qul), aralashma (qorishma) – aralashma (qo‘shilmaslik).

3. -li va -lik qo‘shimchalari yozuvda 1956-yilgacha farqlanmay qo‘llanilar edi. 1956-yildan boshlab adabiy orfografiyamizda ularni farqlab qo‘llashga o‘tildi. Tegishlilik ma’nosini ifodalashda -lik affiksi: shaharlik, qishloqlik, toshkentlik; ega ekanlik ma’nosida esa -li affiksi qo‘llana boshlandi: otli, to‘nli. Buning natijasida imloda bir xillikka erishildi. Qat’i nazar, mazkur affikslarni farqsiz qo‘llash holatlari hali ham uchrab turadi. Qiyoslang: chelakli kishi – chelaklik kishi va b.

4. -lik affiksi bilan ham so‘zlar farqlanadi: bog‘liq – aloqador, bog‘liq – mol yoki pichanni bog‘laydigan narsa; bo‘shlik – yuvosh, bo‘shlik – fazo kabi.

5. Etimologik yoki grafik tamoyil. O‘zlashgan so‘zlarning qadimgi etimologik yoki grafik holatini saqlab qolish asosida yozish imloda etimologik yoki grafik tamoyil deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, yozuvda o‘zlashma so‘zning etimologiyasi saqlanadi. Masalan, Navoiy, Lutfiy, Maoniy, mutolaa, mushoira, muammo kabi so‘zlar ham shu tamoyil asosida yozilgan. Rus tili va u orqali o‘zlashgan rol, sentner, tender, kompyuter, bank, senator, aksiya kabi so‘zlar etimologik-grafik tamoyil asosida yozilmoqda. Shunisi xarakterliki, o‘zbek tili talaffuzi uchun qiyin bo‘lgan ba’zi ruscha-internatsional so‘zlar hozirgi orfografik qoidalariga ko‘ra, istisno tarzda, tilimizning talaffuz xususiyatlariga moslab yoziladi va talaffuz qilinadi: kiosk – kioska, propusk – propuska, otpusk – otpuska, bank – banka kabi.

Ayni vaqtda orfografiya tamoyillari o‘rtasida uzviy aloqa ham mavjud. Oilaviy, Navoiy kabi so‘zlarning oxiridagi -viy, -iy qo‘shimchalari tarixiy-an‘anaviy tamoyilga ham, etimologik-grafik tamoyilga ham mos keladi.

Jo‘nalish kelishigi shakli -ga, -ka, -qa yozilishida fonetik va morfologik tamoyillar mos keladi.

Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalarimiz 1956-yilda tasdiqlangan edi. Davr o'tishi bilan u eskirdi, amaliy ehtiyojlarimizga javob bermay qoldi. Shu bois, 80-yillarning boshlaridayoq uni yangilashga urinishlar boshlandi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, mustaqillikning qo'lga kiritilishi yangi imlo qoidalarini ishlab chiqish uchun qulay imkoniyat yaratdi. Lotin yozuviga asoslangan yangi alifboning joriy etilishi esa bu jarayonni yanada tezlashtirib yubordi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yilning 24-avgustida 339-sonli "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida" qaror qabul qildi. U 82 banddan iborat bo'lib, quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi:

a) unlilar imlosi (1–7-bandlar);

b) undoshlar imlosi (8–32-bandlar).

2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33–37-bandlar).

3. Qo'shib yozish (38–50-bandlar).

4. Chiziqcha bilan yozish (51–56-bandlar).

5. Ajratib yozish (57–56-bandlar).

6. Bosh harflar imlosi (66–74-bandlar).

7. Ko'chirish qoidalari (75–82-bandlar).

Unlilar imlosi

Yangi imlo qoidalarida unli harflarning yozilishiga keng o'rin ajratilgan.

Aa harfi *savol, zamon, bahor* so'zlarida "o" kabi aytilsa ham har vaqt "a" yoziladi.

Oo harfi boshqa tillardan kirgan quyidagi so'zlarda "a" singari talaffuz etiladi, biroq hamisha "o" yoziladi: *kollej, monitoring, dekoratsiya, omonim, okulist* va h.k.

Shuningdek, *o* ba'zan *o'* kabi aytilishi ham mumkin, lekin baribir "o" yozilaveradi: *tonna, noyabr, boks, tort* va h.k.

Ii harfi *bilim, til, tilak, har xil, qism* kabi soʻzlarda qisqa aytiladi va “i” yoziladi, *badiiy, ommaviy, Lutfiy singari* soʻzlarda “i” choʻziq aytiladi, lekin doimo “iy” yoziladi.

Uu harfi *yutuq, butun, tovuq, sovuq, sovun* kabi soʻzlarda “i”ga monand talaffuz etilsa-da, qoidaga binoan “u” yoziladi.

Oʻoʻ harfi *oʻzbek, oʻlka, oʻsimlik* kabi soʻzlarda old qator, oʻrta-keng, lablangan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi.

E e harfi *eʻlon, ehtirom, feʻl, bermoq, meros, mone, tole, kofe* kabi soʻzlarda old qator, oʻrta-keng, lablanmagan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi:

“e”, “ë”, “ю”, “я” harflari yangi alifboda quyidagicha yoziladi:

e: yetti, yetmish, yetim;

yo: yolgʻiz, yomon, yongʻoq;

yu: yulduz, yumshoq, yumuq.

ya: yakka, yangi, yaroqsiz.

Milliard, material, million, radio, ukrain, said, doim, shoir, teatr, okean singari soʻzlar talaffuzida unlilar orasida “y” undoshi qoʻshib aytilsa-da, yozuvda tushib qoladi.

Taassurot, taalluqli, taajjub, matbaa, saodat, maorif, muomala, inshoot kabi soʻzlar oʻrtasidagi unlilar yozuvda saqlanadi.

Undoshlar imlosi

1. “B” tovushi *borib, javob, hisob, bob, xitob* kabi soʻzlarda “p”, *qibla, tobla* soʻzlarida “v” tarzida aytilsa ham “b” yoziladi.

2. *Avtomat, avtobus, avtomobil* kabi soʻzlarda “v” tovushi “f” tarzida talaffuz qilinsa-da, doimo “v” yoziladi.

3. *Fursat, fizika, fabrika, fahm-farosat, fasl* singari soʻzlarda “f” tovushi “p” kabi aytiladi, lekin asliga muvofiq ravishda har doim “f” yoziladi.

4. *Obod, ozod, faryod, tadbir, tadqiqot* kabi soʻzlarda “d” tovushi “t” tarzida aytilsa-da, har vaqt “d” yoziladi.

5. *Iztirob, tuzsiz, boʻzchi* soʻzlarida “z” tovushi “s” kabi aytiladi, biroq hamisha asliga mos ravishda “z” yoziladi.

6. *J j* harfi *jon, jahon, juma, g'ijjak, vaj* soʻzlarida til oldi, jarangli, portlovchi “*j*”, *jurnal, ajdar, garaj, tiraj* soʻzlarida esa til oldi, jarangli, sirgʻaluvchi “*dj*” undosh tovushini ifodalash uchun yoziladi.

7. *Sh sh* harfi *shahar, shimol, shoshmoq, osh, bosh* kabi soʻzlarda til oldi, jarangsiz, sirgʻaluvchi tovushni ifodalash uchun yoziladi. *Sh* harfi ikki tovushni ifodalasa, oraga tutuq belgisi qoʻyiladi: *Is'hoq, as'hob* kabi.

8. *Ch ch* harfi *chumoli, choy, achchiq, soch* kabi soʻzlarda til oldi, jarangsiz, qorishiq undosh tovushni ifodalash uchun yoziladi.

9. *R r* harfi *rahmat, rahm, diyor*; *L l* harfi *lola, bol, olmoq*; *N n* harfi *non, ona, osmon*; *G g* harfi *gul, ega, eg*; *Kk* harfi *kam, ikki, tok*; *Y y* harfi *yetti, yuz, dunyo, toy*; *Ng ng* harfi *ko'ngil, tong, ong*; *Q q* harfi *qizil, oq, aql*; *G' g'* harfi *g'oz, og'a, tog'*; *X x* harfi *xalq, axborot, baxt*; *H h* harfi *hamma, hosil, ehson, isloh* kabi soʻzlardagi muayyan tovushlarni ifodalash uchun yoziladi.

10. *Farzand, band, poyezd* soʻzlaridagi “*d*” undoshi, *go'sht, past, artist* soʻzlaridagi, “*t*” undoshi talaffuzda tushib qolsa ham yozuvda doimo ifodalanadi.

11. Xuddi shuningdek, *metall, kilovatt, kongress* kabi soʻzlar oxiridagi qoʻsh undoshlardan biri talaffuzda tushirilib qoldirilsa ham yozuvda hamisha ifodalanadi.

12. Tutuq belgisi *a'lo, ta'lim, e'lon, she'r, fe'l* kabi soʻzlarda unlidan keyin kelib, uning choʻziqroq aytilishini taʼminlaydi.

13. *Mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi soʻzlarda *o'* unlisi choʻziqroq aytiladi, lekin tutuq belgisi qoʻyilmaydi.

14. *San'at, in'om, mas'ul* kabi soʻzlarda unlidan oldin qoʻyilib, uning undosh tovushdan ajratib aytilishini taʼminlaydi.

1-mashq. Orfografik tamoyillarga asoslangan holda har biriga 10 tadan soʻz keltiring.

Namuna: Fonetik tamoyil – *qishloq+im= qishlog'im*,
morfologik tamoyil – *bog'+ga= bog'ga*

2-mashq. Tarixiy-an'anaviy va farqlash tamoyillariga oid soʻzlar ishtirok etgan 20 tadan gaplar yozing.

Namuna: Koʻpdin beri koʻrinmaysiz?

Amaliy mashgʻulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Orfografiya boʻlimi nimani oʻrganadi?
2. Orfografik tamoyillarni sanab oʻting.
3. Fonetik va morfologik tamoyilning farqli tomoni nimada?
4. Tarixiy-an'anaviy tamoyilga misollar keltiring.

13-amaliy mashgʻulot:

OʻZBEK ADABIY TILIDA ASOS VA QOʻSHIMCHALAR IMLOSI

Reja:

1. Oʻzakka qoʻshimcha qoʻshilganda tovush almashinuvi.
2. Oʻzakka qoʻshimcha qoʻshilganda tovush tushishi.
3. Oʻzakka qoʻshimcha qoʻshilganda tovush orttirilishi.
4. Asos va qoʻshimchalarning fonetik va morfologik tamoyillar orqali yozilishi.

Tayanch soʻz va iboralar: *Fonetik tamoyil, morfologik tamoyil, tovush tushishi, tovush almashinuvi, tovush orttirilishi.*

Qoʻshimcha qoʻshilishi bilan soʻz oxiridagi unli oʻzgaradi:

1) a unlisi bilan tugagan feʼllarga -v, -q, -qi qoʻshimchasi qoʻshilganda a unlisi oʻytiladi va shunday yoziladi: sayla – saylov, sina - sinov, aya - ayovsiz; soʻra - soʻroq, boʻya - boʻyoq; oʻyna - oʻynoqi, sayra - sayroqi kabi;

2) i unlisi bilan tugagan koʻpchilik feʼllarga -v, -q qoʻshimchasi qoʻshilganda bu unli u aytiladi va shunday yoziladi: oʻqi - oʻquvchi, qazi - qazuvchi, sovi - sovuq kabi. Lekin i unlisi bilan tugagan ayrim feʼllarga -q qoʻshimchasi qoʻshilganda bu

unli i aytiladi va shunday yoziladi: og'ri - og'riq, qavi - qaviq kabi.

Eslatma:

1) undosh bilan tugagan barcha fe'llarga -uv qo'shiladi: ol - oluv, yoz - yozuv kabi;

2) undosh bilan tugab, tarkibida u unlisi bor fe'lga -uq qo'shiladi: uz -uzuq, yut-yutuq kabi. Lekin uyushiq, burushiq, uchuriq, bulduriq (shuningdek bulduriq) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida i aytiladi va shunday yoziladi.

-k, -q undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga, shuningdek, *bek*, *yo'q* kabi ayrim bir bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilgandak undoshi *g* undoshiga, *q* undoshi *g'* undoshing a aylanadi va shunday yoziladi: *tilak-tilaging*, *yurak-yuragim*, *kubok-kubogi*, *bek-begi*; *tayoq-tayog'i*, *qoshiq-qoshig'i*, *yaxshiroq-yaxshirog'i*, *yo'q-yo'g'i* kabi. Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda *k*, *q* tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: *ishtirok-ishtiroki*, *ocherk-ocherki*, *erk-erki*, *huquq-huquqim*, *ravnaq-ravnaqi*, *yuq – yuqi* kabi.

Quyidagi qo'shimchalar qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

1) o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'g'in, ko'ngil kabi ba'zi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, qayir, ayir kabi fe'llarga nisbat shaklini yasovchi -il qo'shimchasi qo'shilganda, ikki, olti, yetti so'zlariga -ov, -ala qo'shimchalari qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va yozilmaydi: *o'rin-o'rnim*, *qorin-qorni*, *burun-burning*, *o'g'il-o'g'ling*, *ko'ngil-ko'ngli*, *yarim-yarmi*; *qayir-qayril*, *ulug'-ulg'ay*, *sariq-sarg'ay*, *ikki-ikkov*, *ikki-ikkala*, *yetti-yettov* kabi;

2) u, bu, shu, o'sha olmoshlariga -da, -dan, -day, -dagi, -ga, -gacha, -cha qo'shimchalari qo'shilganda n tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *unda*, *bunday*, *shunda*, *o'shancha* kabi; bu olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi; *buningiz*, *o'shanisi* kabi;

3) o, o, u, e unlilari bilan tugaydigan soʻzlarga egalik qoʻshimchalari quyidagicha qoʻshiladi:

a) koʻpchilik soʻzlarga egalik qoʻshimchalari -m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si (yoki -lari) shaklida tovush orttirmay qoʻshiladi: bobom, bobong, bobosi, bobomiz, bobongiz, bobosi (yoki bobolari); orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi kabi;

b) parvo, obroʻ, mavqe, amaliy mashgʻulot, avzo soʻzlariga I, II shaxs egalik qoʻshimchalari qoʻshilganda bir u tovushi qoʻshib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obroʻyim, obroʻying; obroʻyimiz, obroʻyingiz* kabi; III shaxs egalik qoʻshimchasi *parvo, avzo, obroʻ, mavqe* soʻzlariga -yi shaklida, aka amaliy mashgʻulot soʻziga esa -si shaklida qoʻshiladi: *avzoyi*, kabi (dohiy kabi u undoshi bilan tugagan soʻzga ham II shaxsda -si qoʻshiladi: *dohiysi* kabi);

4) men, sen olmoshlariga -ni, -ning, -niki qoʻshimchalari qoʻshilganda qoʻshimchadagi n tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: *meni, mening, meniki; seni, sening, seniki* kabi.

Quyidagi qoʻshimchalarning birinchi tovushi ikki xil aytilsa ham bir xil yoziladi:

1) -bon, -boz qoʻshimchalari baʼzan -von, -voz aytilsa ham hamma vaqt -bon, -boz yoziladi *darvozabon, masxaraboz* kabi. Lekin -vachcha qoʻshimchasi hamma vaqt shunday aytiladi va yoziladi: *amakivachcha, xolavachcha* kabi;

2) oʻrin kelishigi va chiqish kelishigi qoʻshimchasining, oʻtgan zamon yasovchisi va III shaxs koʻrsatkichi -di qoʻshimchasining boshidagi undosh baʼzan t aytilsa ham hamma vaqt d yoziladi; *ishda, misdan, ketdi, kelmabdi* kabi. Quyidagi qoʻshimchalarning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

1) taqlid soʻzlardan feʼl yasovchi -illa (chirilla, taqilla) qoʻshimchasi soʻz tarkibida v yoki u tovushi boʻlganda -ulla aytiladi va shunday yoziladi: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi;

2) nisbat shaklini yasovchi -dir qoʻshimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir boʻgʻinli soʻzlarga (kel soʻzidan boshqa), shuningdek, z undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan

keyin qo‘shiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yondir; o‘tkazdir, tomizdir* kabi. Qolgan barcha hollarda bu qo‘shimcha -tir aytiladi va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi;

3) jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi -ga, chegara bildiruvchi-gacha, ravishdosh shaklini yasovchi -gach, -guncha, -gani, -gudek, sifatdosh shaklini yasovchi -gan, buyruq maylining ikkinchi shaxs ko‘rsatkichi -gin, shuningdek -gina qo‘shimchasi uch xil aytiladi va shunday yoziladi:

a) k undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda bu qo‘shimchalarning bosh tovushi k aytiladi va shunday yoziladi: *tokka, yo‘lakkacha, ko‘nikkach, zerikkuncha, to‘kkani, kechik-kudek, bukkani, ekin, kichikkina* kabi;

b) q undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda bu qo‘shimchalarning bosh tovushi q aytiladi va shunday yoziladi: *chopiqqa, qishloqqacha, yoqqach, chiqquncha, chiniqqani, qo‘rq-qudek, achchiqqina* kabi;

v) qolgan barcha hollarda, so‘z qanday tovush bilan tugashidan va bu qo‘shimchalarning bosh tovushi -k yoki -q aytilishidan qat’i nazar, -g yoziladi: *bargga, pedagogga, bug‘ga, sog‘ga, og‘gan, sig‘guncha* kabi.

1-mashq. Matnni ko‘chirib yozing. So‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlarini topib tasnif qiling.

Ilmning afzalligi

Qadimgi Yunonistonning eng buyuk faylasufi Arastu o‘limi oldidan o‘g‘lini chaqirib shunday debdi:

– Bolajonim, o‘z umrimni ilm-u hikmatning sirlaridan voqif bo‘lish yo‘lida sarf qildim. Ilm-u hikmat nuri bilan juda ko‘p tugunlarni yechdim, ammo o‘limga kelganda chora topolmadim. Senga qiladigan vasiyatim shuki, o‘g‘lim, mol-davlat orqasidan orttirgan izzat-obro‘da baqo yo‘q. Izzat-hurmat, shon-sharaf ilmda. Ilm orqasidan qo‘lga kiritilgan shon-sharaf fano va zavolni bilmaydi, davlat va siyosatning o‘zgarishi unga ta’sir qilmaydi.

O'g'lim, shohlar sening otangni ilmi tufayli ulug'lashdi, bo'lmasa, otang ham ular qaramog'idagi bir odam edi. Shohlar tobeligidagi odamlar shohlarga ta'zim qilishadi va sig'inishadi. Obidlar va ma'budlar orasida yer bilan osmoncha farq bor.

Otangning ilmi bo'lmaganda, uning podshohlar uchun kitob ortilgan eshakdan farqi qolmasdi.

Ularga sig'inadigan va xizmatini bajo keltiradigan bir g'ulom bo'lar edi, xolos.

Izzat-ehtiromga loyiq bo'lay, nomim abadiy qolsin desang, ilm orttir! (*Muhammad Avfiy*)

2-mashq. “Obod mahalla” mavzusida matn yozish.

Amaliy mashg'ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Yasovchi asos va yasovchi vosita nima?
2. Ot so'z turkumiga xos so'zlar yasalganda qanday fonetik o'zgarishlar ro'y beradi?
3. Sifat so'z turkumiga xos so'zlar yasalganda qanday fonetik o'zgarishlar ro'y beradi?
4. Fe'l so'z turkumiga xos so'zlar yasalganda qanday fonetik o'zgarishlar ro'y beradi?
5. Tovush o'zgarishi hodisalariga misollar keltiring.

14-amaliy mashg'ulot:

O'ZBEK ADABIY TILIDA QO'SHIB YOZISH IMLOSI

Reja:

1. Qo'shib yoziladigan qo'shma otlar imlosi.
2. Qo'shib yoziladigan qo'shma sifatlar imlosi.
3. Qo'shib yoziladigan qo'shma olmoshlar imlosi.
4. Qo'shib yoziladigan qo'shma ravishlar imlosi.

Tayanch so'z va iboralar: imlo qoidalari, qo'shib yozish, qo'shma otlar imlosi, qo'shma sifatlar imlosi, qo'shma olmoshlar imlosi, qo'shma ravishlar imlosi, qisqartma so'zlar imlosi.

Qo'shma so'zlarning quyidagi turlari qo'shib yoziladi:

Bir tushunchani ifodalovchi va bir bosh urg'u bilan aytiladigan qo'shma otlar va qo'shma sifatlar: kutubxona, tabriknoma, jo'xoripoya, xushsurat, ilhombaxsh, kamgap, ulug'sifat, izzattalab, gultojixo'roz, oqqush, achchiqtosh kabi. Shuningdek, qaratuvchi birikmaning (olmaning qoqisi - olmaqoqi) bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar qo'shib yoziladi, masalan: otquloq, sheryurak, devqomat, kirsovun, nosqovoq, belbog', cho'lyalpiz, so'zboshi, yurtboshi, makkajo'xori kabi;

-r, -ar, -mas qo'shimchasi bilan yasalgan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: o'rinbosar, buzoqboqar, ertapishar, ishyoqmas, beshiktervatar, izquvar, ko'ngilochar, erksevar kabi.

Ikkinchi qismi turdosh otlardan bo'lgan geografik joy nomlari: Yangiyo'l, Uchquduq, Oqsaroy, Beshariq, Zafarobod kabi. Lekin ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: Markaziy Osiyo, O'rta Chirchiq, Ko'hna Urganch kabi;

Xona, noma, poya, bop, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: oshxona, tabriknoma, bedapoya, hammabop, xushbichim, hamshahar, qo'ymijoz, maymunsifat, kamhosil, umumdavlat, bug'doyrang va h.k.

Narsani boshqa bir narsaga qiyoslash orqali hosil qilingan qo'shma otlar va sifatlar qo'shib yoziladi: toshbaqa, oybolta, qo'yko'z, sherdil, otquloq singari. Narsaning rangi, mazasi, nima uchun mo'ljallanganligi kabi ma'nolarni bildiruvchi qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: ko'ksulton, oqbosh, achchiqtosh, ko'zoynak, suvilon kabi.

Son bilan otning birikuvidan hosil bo'lgan turdosh qo'shma otlar: qirqquloq, sakkizoyoq, mingoyoq kabi;

Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yo'li bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar: kinoteatr, radiostansiya, elektrotexnika, fotoapparat, bayramoldi, teleshou kabi;

1-mashq. Gaplarni o‘qing, qo‘shma otlarni topib, ularning yasalishini tushuntiring.

1. Qizlar tillaqosh, bargak, zebigardon, qo‘ltiqumor, marjon, uzuk, bilaguzuk taqib, shoyi ko‘ylak, nimcha, kamzul kiyib yasanar edilar. (N.Safarov) 2. Laylakqor urib turgan bir kun edi. Birdan bozorboshida dod-faryod ko‘tarilib qoldi. (Abdulla Qahhor) 3. Elmurod so‘rab-surishtirib, nihoyat, ko‘pgina chiroqlar charaqlab turgan hovliga kirib keldi. (Parda Tursun) 4. Ariq bo‘yida hamisha, har yoz ikkita jaydari atirgul, pastda namozshomgul, gultojixo‘roz, sadarayhon o‘sib yotadi. (Oybek)

2-mashq. Gaplarni ko‘chiring. Qo‘shma sifatlarni aniqlab, ularning qanday so‘z turkumlaridan yasalganini izohlang.

1. Hulkarning och jigarrang yonoqlarida ajib bir qizillik o‘ynaydi. (P. Qodirov) 2. Markaziy Osiyoning erksevar, mard va jasur xalqi dushmanga qarshi mardonavor kurashdi. (B.Ahmedov) 3. Milliy mafkuramizda milliylik umumbashariy g‘oyalar bilan uyg‘unlashib ketgan. (S.Olimov) 4. Orzu millatga hayotbaxsh ruh bag‘ishlaydi. (Rahmon Qo‘chqor) 5. Ona yerning xushbo‘y tafti mast qiladi kishini. (E.Oxunova) 6. U otasi Muzaffar Farmonovning batamom aksi: dadasi yum-yumaloq, baqaloq bo‘lsa, bu xushqad, xushsurat. (O.Yoqubov)

3-mashq. Gaplarni o‘qing. Sodda va qo‘shma olmoshli gaplarni alohida ko‘chirib yozing. To‘rtinchi gapdagi mavzu bo‘yicha fikr bildiring.

1. Meni Sodir Badalovich yubordilar, – dedi so‘rashish uchun ikkala qo‘lini baravar uzatib. (X.To‘xtaboyev) 2. Yigitning dong‘i o‘zi tug‘ilib o‘sgan shaharga ham yetib boribdi. (Ertakdan) 3. So‘fi hech narsa demay o‘rnidan turdi. (Cho‘lpon) 4. O‘zingga o‘zingni maqtagandan qo‘rq. (Maqol) 5. Ana o‘sha yerda o‘zimizni ko‘rsatamiz. (Said Ahmad) 6. Tesha Saidiy bilan bahslashish qo‘lidan kelmaganini har bir so‘zi, har bir harakati bilan bildirib turar edi. (Abdulla Qahhor) 7. Ali Qushchi

nechundir yana o'sha iliq bahor kunini esladi. (*O.Yoqubov*)
8. Choyxonada, peshin bo'lib qolganiga qaramay, hech kim yo'q edi. (*O'.Umarbekov*) 9. Lekin buni u hech qachon hech kimga aytmagan edi. (*Omon Muxtor*)

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qanday so'zlar doimo qo'shib yoziladi?
2. Qo'shma otlar qo'shib yozilishi sabablarini keltirib o'ting.
3. Qo'shma fe'llar qanday hollarda qo'shib yozilishi mumkin?
4. Qisqartma so'zlar haqida ma'lumot bering.

15-amaliy mashg'ulot:

O'ZBEK ADABIY TILIDA CHIZIQCHA BILAN YOZISH

Reja:

1. Juft so'zlar imlosi.
2. Takroriy so'zlar imlosi.
3. Qo'shimcha yuklamalar imlosi.
4. Chiziqcha va tirening farqi.

Tayanch so'z va iboralar: imlo qoidalar, juft so'zlar, takroriy so'zlar, yuklamalar.

El-yurt, mehr-shafqat, qovun-tarvuz, omon-eson, kecha-kunduz, yozin-qishin, asta-sekin, uch-to'rt, o'n-o'n beshta (10-15 ta), bilinar-bilinmas, bordi-keldi, kuydi-pishdi, don-dun, oz-moz, mayda-chuyda, aldab-suldab, o'ylab-netib, so'ramay-netmay, kiyim-kechak, adi-badi, ikir-chikir, duk-duk, taq-tuq, qop-qop, ming-ming (ming-minglab), bitta-bitta (bitta-bittalab), baland-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, yaqin-yaqinlargacha, hamma-hammasi, uy-uyiga, ich-ichidan kabi.

Juft yoki takror so'zlarning o'rtasida chiziqcha ishlatiladi: *ota-ona, orzu-umid, kecha-kunduz, qing'ir-qiyshiq; tog'-tog', sekin-tez* kabi. Juft so'zdan qo'shimcha yordamida yasalgan so'zlar ham

chiziqcha bilan yoziladi: *baxt-saodatli*, *xayr-xo‘shlashmoq* kabi; Juft so‘z qismlari orasida -u (-yu) bog‘lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo‘yiladi va juft so‘z qismlari ajratib yoziladi: *do‘st-u dushman* (*do‘st-dushman*), *kecha-yu kunduz* (*kecha-kunduz*) kabi;

Yetakchi va ko‘makchi fe‘l bir xil shaklda bo‘lsa, chiziqcha bilan yoziladi: *yozdi-otdi*, *borasan-qo‘yasan*, *uxlabman-qolibman* kabi.

Belgini kuchaytiruvchi *qip-qizil*, *yam-yashil*, *dum-dumaloq*, *kuppa-kunduzi*, *to‘ppa-to‘g‘ri*, *bab-barobar* kabi so‘z shakllari chiziqcha bilan yoziladi (lekin *oppoq* so‘zi qo‘shib yoziladi).

So‘zning -ma, ba- yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *ko‘chama-ko‘cha*, *uyma-uy*, *rang-barang*, *dam-badam* kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so‘zlar qo‘shib yoziladi: *ro‘baro‘*, *darbadar* kabi.

Rus tilidan aynan yoki so‘zma-so‘z tarjima qilish yo‘li bilan olingan so‘zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *unter-ofitser*, *kilovatt-soat* kabi.

-chi, -a (-ya), -ku, -u (-yu), -da, -e, -ey (-yey) qo‘shimcha yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: *sen-chi*, *boraylik-chi*, *sen-a*, *kutaman-a*, *bola-ya*, *mingta-ya*, *keldi-ku*, *kelgan-u*, *yaxshi-yu*, *yaxshi-da*, *qo‘y-e*, *yashang-e*, *o‘g‘lim-ey*, *keldi-yey* kabi. Ammo -mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina, -qina) qo‘shimcha yuklamalari o‘zidan oldin kelgan so‘zga qo‘shib yoziladi: *keliboq*, *o‘ziyoq*, *ko‘rganov*, *ko‘rdiyov*, *mengina*, *qo‘shiqqina* kabi.

Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, -nchi qo‘shimchasi o‘rniga chiziqcha (-) qo‘yiladi: *7-sinf*, *5-“A” sinfi*, *3-*, *7-*, *8-sinf* *o‘quvchilari*, *60-yillar*, *1991-yilning 1-sentabri* kabi. Tartib sonni ko‘rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: *XX asr*, *X sinf* kabi.

Chiziqcha orfografiya bo‘limida o‘rganilsa, tire tinish belgilarda o‘rganiladi. Masalan: *asta-sekin*, *tez-tez*; *Hamal keldi* – *amal keldi*, *Qo‘shning tinch* – *sen tinch*.

1-mashq. Soʻzlarni oʻqing. Ular ishtirokida gaplar tuzing, soʻng daftaringizga koʻchirib yozing.

Orzu-umid, aka-uka, chol-kampir, issiq-sovuq, kecha-kunduz, el-yurt, asta-sekin; baxt-u saodat, ota-yu ona, qop-qora, koʻm-koʻk, rang-barang, men-a, bor-e, bolam-ey, biz-chi.

1-mashq. Gaplarni oʻqing, chiziqcha va tirening ishlatilish sabablarini ayting.

Mehribon kishining pand-nasihatlarini olgin — ular seni saodatga yetaklaydi. Koʻzing sogʻida ezgulik qil, mol-dunyong borida ulash, yedir. (*Yusuf Xos Hojib*) Beva-bechora, mayib-majruh, xor-u zor insonlarga koʻngildan chiqarib berilgan moddiy yordam: pul-non, mayiz-yongʻoq, kiyim-bosh va hokazolarga xayr-sadaqa deyiladi. (*M.Sattor*) Goʻzallik shunday narsaki, u insonda mehr-muhabbat, shodlik, erkinlik va shunga oʻxshash tuygʻularni uygʻota olishi shart. (*A.Oripov*) Gʻoʻzalarim tiniqib-tiniqib suv icha berdi. Gʻoʻzalarim qonib-qonib suv icha berdi. Chilla suv — tilla suv boʻldi. (*T.Murod*)

Aravakash uning soʻzini ilib oldi:

– Shirin-shirin gap oʻrnida shirin-shirin ashuladan boʻlsin, opa, taʼrifingiz eshitib jigarlarimiz laxta-laxta qon boʻlib ketgan. (*A.Choʻlpon*)

Amaliy mashgʻulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Juft va takroriy soʻzlar qanday yoziladi?
2. Chiziqcha bilan yoziladigan qoʻshimcha yuklamalar haqida maʼlumot bering.
3. Chiziqcha bilan tirening farqi nimada?
4. Imlo qoidolari haqida bilasizmi?

16-amaliy mashg'ulot:

O'ZBEK ADABIY TILIDA AJRATIB YOZISH IMLOSI

Reja:

1. Ajratib yoziladigan qo'shma fe'llar imlosi.
2. Ajratib yoziladigan qo'shma sonlar imlosi.
3. Ajratib yoziladigan qo'shma sifatlar imlosi.
4. Izofali birikmalar imlosi.

Tayanch so'z va iboralar: imlo qoidalar, yetakchi va ko'makchi fe'llar, sifat darajalari, izofali birikmalar.

Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi:

sarf qildi, ta'sir et, tamom bo'l, sotib ol, olib kel, olib chiq, miq etma kabi.

Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan ajratib yoziladi:

aytib ber, olib ko'r, so'rab qo'y, ko'ra qol, bera boshla, yiqila yozdi; ketgan edi, ketgan ekan, ketgan emish kabi.

Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi:

aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan) kabi.

Ko'makchilar ajratib yoziladi:

shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo'yi kabi. Lekin *bilan* ko'makchisining *-la* shakli, *uchun* ko'makchisining *-chun* shakli chiziqcha bilan yoziladi: *sen-la, sen-chun* kabi.

Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha so'zlari o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan ajratib yoziladi:

hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u yerda, shu yoqdan, o'sha yoqqa kabi.

Lekin *birpas, biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon* so'zlari qo'shib yoziladi. Shuningdek, *qay* so'zi *yoq*,

yer soʻzlari bilan ishlatilganda bir y tovushi tushsa, bu soʻzlar qoʻshib yoziladi: *qayoqqa, qayerda* kabi.

Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan *toʻq, jiqqa, him, liq, lang, och* kabi soʻzlar ajratib yoziladi:

toʻq qizil, jiqqa hoʻl, tim qora, liq toʻla, lang ochiq, och sariq kabi.

Murakkab son qismlari ajratib yoziladi:

oʻn bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi kabi.

Yildan yilga, tomdan tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi joʻnalish kelishigida boʻlgan birikmalar ajratib yoziladi.

Belgining ortiq darajasini bildiruvchi *koʻpdan koʻp, tekidan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizidi* kabilar ajratib yoziladi.

Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan soʻzlarga *i* shaklida, unli bilan tugagan soʻzlarga *yi* shaklida qoʻshiladi: *dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan soʻzlar, shuningdek, qismlaridan har ikkisi oʻzbek tilida mustaqil ishlatilmaydigan soʻzlar qoʻshib yoziladi: *gulbeor (guli beor), dardisar* kabi.

1-mashq. Soʻzlarni qoʻshib yoki ajratib yozish qoidalari asosida ikki guruhga boʻlib koʻchirib yozing.

Koʻz//oynak, sotib//olmoq, alla//qachon, shu//yerga, baland//parvoz, xom//semiz, tinchlik//sevar, umum//davlat, shaharlar//aro, shirin//soʻz, jigar//rang, besh//kokil, otash//qalb, gʻayrat//qilmoq, bilag//uzuk, Yakka//saroy, Olti//ariq, Qum//qoʻrgʻon, Sot//voldi, kino//yulduz, radio//markaz, tele//tanlov.

2-mashq. Matndan qoʻshma feʼllarni ajratib yozib oling, nega ajratib yozilganligini izohlang.

ENG YAXSHI DORI

Shunday xastalar bo'ladiki, ularni faqat so'z bilan davolamoq zarur. Abu Ali ibn Sinoning fikriga qaraganda, bemorni dori-darmon bilan birga so'z bilan davolagan ham afzal, chunki so'z shunchalik sir-sinoatga ega bir mo'jiza hisoblanadi.

Bir og'iz shirin so'z. Siz bu so'zning naqadar umidbaxsh va katta qudratga ega ekanligini his qilganmisiz? Qiziq, ba'zan noyob dori-darmonlar-u zamonaviy meditsina asbob-uskunolari ham o'jizlik qilib qolganda ana shu bir og'iz so'z bemorga ruhiy dalda, jismoniy quvvat bag'ishlaydi! Chunki so'z xoh yaxshi, xoh yomon bo'lsin, avvalo, bosh miyaga ta'sir qiladi. Bosh miya esa organizmdagi butun jarayonlarni boshqaradi va nazorat qilib turadi. Yomon so'z orqali asabiylashganda, odamning aft-angori o'zgaradi, rangi o'chadi, qo'l va oyoqlari titraydi, quloqqa so'z kirmaydi, nafas olishi va yurak urishi tezlashadi. Shu payt kishi o'zini bosib ololmasa, yomon kasallikka chalinishi mumkin.

Rivoyat qilishlaricha, bir kuni Luqmoni Hakim ko'chada ketayotgan ekan. Qarasa, sal oldinda borayotgan bir qiz dam-badam qon tuplarmish. Hakim qiz uyiga kirib ketgach, uning orqasidan kirdi. Luqmoni Hakim qizning otasiga: "Qizingiz bedavo dardga uchrabdi, afsuski, muolajaning iloji yo'q", debdi. Uning bu so'zlarini haligi qiz eshik orqasida eshitib turgan ekan. Birdan yuragi duk-duk urib, qaltirab yiqilibdi va hushidan ketibdi. Xullas, shu bir og'iz so'z oqibatida qiz ruhiy dardga giriftor bo'lib, olamdan o'tibdi.

...Kunlarning birida qizning otasi Luqmoni Hakimni uchratib qolibdi. Shunda ota:

– Taqsir, qizim bedavo dardga chalinganini qanday bilib edingiz? – deb so'rabdi. Luqmoni Hakim debdi:

– Qizingiz ko'chada kela turib, bot-bot qon tuplaganini ko'rgan edim.

Bu javobni eshitgan chol shart etib, o'z peshanasiga uribdi. Keyin sal o'ziga kelgach:

– E, attang, qizim o‘sha kuni shotut yeb edi, siz ko‘rgan tupik shotut sharbati edi-ku! E, attang! – debdi.

Hakim chol oldida tiz cho‘kib, uzr so‘rabdi:

– Siz menga va bizdan so‘nggi avlodlarga unutilmas saboq berdingiz. Bir so‘z bilan soppa-sog‘ odamni o‘ldirish yoki bemorni oyoqqa turg‘izib yuborish mumkin ekan! Yunonlar: “Dardni bilmasang, yaxshisi sen bemorni tinch qo‘y”, – deb bejiz aytmagan ekanlar.

Amaliy mashg‘ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qo‘shma otlar qachon ajratib yoziladi?
2. Qo‘shma fe‘l va qo‘shma sonlar yozilishini tushuntirib bering.
3. Qo‘shma sifatlar qachon qo‘shib, qachon ajratib yoziladi?
4. Qaysi so‘z turkumiga oid qo‘shma so‘zlar doimo ajratib yoziladi?

17-amaliy mashg‘ulot:

O‘ZBEK ADABIY TILIDA BOSH HARFLAR IMLOSI

Reja:

1. Shaxs nomlari imlosi.
2. Joy nomlari va ularning imlosi.
3. Suv havzalari va inshootlari nomlari hamda ularning imlosi.
4. Tarixiy sana va bayram nomlari hamda ularning imlosi.

Tayanch so‘z va iboralar: shaxs nomlari, narsa nomlari, tashkilot va korxona nomlari, suv havzalari va inshootlari nomlari, tarixiy sana va bayram nomlari.

Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: Dilbar, O‘rinova, Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o‘g‘li, Hamza Hakimzoda, Navoiy, Furqat, Abdurauf Fitrat; Yelpig‘ichxon, Salomjon Alikov kabi.

Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: Andijon, Yangiyo‘l (shaharlar), Naymancha, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chig‘atoy (mahalla), Zavraq (dara Yorqoq (yaylov), Qoratog‘, Pomir (tog‘lar), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanal); Turkiya, Hindiston (mamlakatlar) kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum kabi.

Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: Hulkar, Qavs, Mirrix (yulduz va sayyoralar nomi) kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi bo‘lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi.

Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san‘at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo‘yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: “Tong” (mehmonxona), “Saodat” (firma), “Navro‘z” (xayriya jamg‘armasi), “Kamalak” (bog‘cha), “Botanika” (bog‘), “Paxtakor” (stadion), “Tanovar” (kuy), “Ozodlik (haykal), “Jasorat” (yodgorlik), “Sino” (sovutgich) kabi.

Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro‘z bayrami.

Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi.

Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so‘zгина bosh harf bilan boshlanadi: Bosh vazirning o‘rinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Milliy tiklanish partiyasi kabi.

Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so‘z bosh harf bilan boshlanadi: Sog‘liqni

saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo‘mitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti kabi.

Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so‘z bosh harf bilan boshlanadi: “O‘zbekiston Qahramoni” (unvon), “Oltin Yulduz” (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so‘zgina bosh harf bilan boshlanadi: “Sog‘lom avlod uchun” (orden), “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” (faxriy unvon) kabi.

Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan boshlanadi: Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim (O.Yoqubov).

Eslatma:

1. Ko‘chirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi so‘zi (agar u atoqli ot bo‘lmasa) kichik harf bilan yoziladi: “Bu men”- qo‘rqibgina javob berdi ko‘laga (O.Yoqubov);

2. Xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qo‘yiladi va ular kichik harf bilan yoziladi:

Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rishga tayyorlash vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs) quyidagi masalalarni:

– mazkur ishni ko‘rib chiqish uning huquq doirasiga kirishkirmasligini;

– ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi protokol va ishga oid boshqa materiallar to‘g‘ri tuzilgan-tuzilmaganligini ... hal qiladi;

3) gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qo‘yib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘at boyligi asosan besh manba negizida tarkib topgan: 1) umumturkiy so‘zlar; 2) o‘zbekcha so‘zlar; 3) tojik tilidan kirgan so‘zlar; 4) arab tilidan kirgan so‘zlar (“O‘zbek tili” darsligidan).

Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo‘lmagan ba’zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: AQSH (Amerika Qo‘shma Shtatlari), AES (atom elektr stansiyasi), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) kabi.

Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.

1-mashq. Matndagi atoqli otlarni toping, ularning yozilishiga alohida e'tibor bering.

AHMAD AL-FARG'ONIY

Ahmad al-Farg'oniyni to'liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniylidir. U VIII asr oxirlarida Qubo (hozirgi Quva) shahrida dunyoga keladi. Quva shahri o'sha davrning madaniy-ilmiy markazlaridan bo'lgan. 20 yoshgacha Quva shahrida yashab, shu yerda ta'lim oladi.

Uning nomi o'sha davrlardayoq keng tarqalib, Marv shahriga taklif etiladi. Ahmad al-Farg'oniylar nomi ko'p o'tmay shunchalik e'tibor qozondiki, 30–35 yoshlarida uni “Tinchlik shahri” deb atalgan Bag'dodga “Bilim uyi”, ya'ni “Xizonat-al hikma” yoki “Bayt-ul hikma”ga taklif etishadi. Uning ko'p asarlari Ma'mun huzurida yashagan davrda yaratildi. Uning mashhur “Kitob javome' ilm an-nujum val-harakat as-samoviya” (“Astronomiya va sayyoralar harakati”) kitobi ham o'sha davrda yaratildi.

Olimning asarlari XII asrdayoq Italiya, Fransiya hamda Germaniya universitetlarida o'qitila boshlandi. Bu davrda uning mashhur asarlari lotin tiliga, Ya'qub Onado'liy tomonidan ibroniy tiliga o'girildi.

Ahmad al-Farg'oniylar Ovrupada Alfraganus nomi bilan mashhur bo'ldi. Uning qo'lyozmalari dunyo bo'yicha tarqalgandir. Amerikaning Prinston universiteti, Sankt-Peterburg, Qohira, Parij, Mexiko va Hindistonda olim qo'lyozmalari mavjudligi ro'yxatga olingan.

Al-Farg'oniylar kabi buyuk bobokalonlarimizning nomlarini va asarlarini tiklashimiz milliy qadriyatlarimizni anglashda, o'zligimizni idrok etishimizda ibratli saboq bo'ladi.

(N.Ibrohimov)

2-mashq. Har bir ustundagi soʻzlar qatorini davom ettiring.

Namuna:

Tashkilot, korxona va muassasa nomlari	Suv havzalari va inshootlar nomlari	Tarixiy sana va bayram nomlari	Shaxs nomlari
<i>Termiz agro- texnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti</i>	<i>Sirdaryo</i>	<i>1-sentabr — Mustaqillik kuni</i>	<i>Alisher</i>

Amaliy mashgʻulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Shaxs nomlari imlosi?
2. Narsa nomlari imlosi?
3. Tashkilot, korxona va muassasa nomlari imlosi?
4. Tarixiy sana va bayram nomlari imlosi?
5. Suv havzalari va inshootlari nomlari imlosi?

18-amaliy mashgʻulot:

OʻZBEK ADABIY TILIDA KOʻCHIRISH QOIDALARI

Reja:

1. Koʻp boʻgʻinli soʻzlarning koʻchirish qoidalar.
2. Harfiy birikmalar koʻchirilishidagi muhim xususiyatlar.
3. Oʻzlashma soʻzlarning boʻgʻin holatda koʻchirilishi.

Tayanch soʻz va iboralar: bir boʻgʻinli va koʻp bogʻinli soʻzlar, ochiq va yopiq boʻgʻin, tutuq belgisi, oʻzlashma soʻzlar, harfiy birikmalar va shartli belgilar.

Ko‘p bo‘g‘inli so‘zning oldingi satrga sig‘may qolgan qismi keyingi satrga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi: *to‘q-son*, *si-fatli*, *sifat-li* kabi. Tutuq belgisi oldingi bo‘g‘inda qoldiriladi: *va’-da*, *ma’-rifat*, *mash’-al*, *in’-om* kabi.

So‘zning boshi yoki oxirgi bo‘g‘ini bir harfdan iborat bo‘lsa, ular quyidagicha ko‘chiriladi:

1) so‘z boshidagi bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-badiy* emas, *aba-diy*, *e-shikdan* emas, *eshik-dan* kabi;

2) so‘z oxiridagi bir harfdan iborat bo‘g‘in yolg‘iz o‘zi keyingi satrga ko‘chirilmaydi: *mudofa-a* emas, *mudo-faa*, *matba-a* emas, *mat-baa* kabi.

O‘zlashma so‘zlarning bo‘g‘inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko‘chiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko‘chiriladi: *dia-gramma*, *mono-grafiya* kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrga qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko‘chiriladi: *silin-drik* kabi.

3. Bir tovushni ko‘rsatuvchi harflar birikmasi (*sh*, *ch*, *ng*) birgalikda ko‘chiriladi: *pe-shayvon*, *pe-shona*, *mai-shat*, *pi-choq*, *bi-chiq-chi*, *si-ngil*, *de-ngiz* kabi.

4. Bosh harflardan yoki bo‘g‘inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar, shuningdek, ko‘p xonali raqamlar satrdan-satrga bo‘lib ko‘chirilmaydi: *AQSH*, *BMT*, *ToshDU*, *16*, *245*, *1994*, *XIX* kabi.

5. Harfdan iborat shartli belgi o‘zi tegishli raqamdan ajratib ko‘chirilmaydi: *5-^A sinf*, *V^B guruhi*, *110 gr*, *15 ga*, *105 m*, *25 sm*, *90 mm* kabi.

6. Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko‘chirilmaydi: *“Navro‘z – 92”* (festival), *“O‘qituvchi – 91”* (ko‘rik tanlov), *“Termiz – 16”* (g‘oza navlari), *“Foton – 774”* (televizor) kabi.

7. Sh.D.Egamova, L.J.Davronova kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib

ko‘chirilmaydi. Shuningdek, v.b. (va boshqalar), sh.k. (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so‘zdan ajratib ko‘chirilmaydi.

1-mashq. So‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib daftaringizga ko‘chirib yozing.

Ma’lumot, maxsus, ta’kidlamoq, ko‘ngilchan, singil, taassurot, taajjub, saodat, taxt, kelingiz, ingliz, gramm, metall, matn, trolleybus, kitobxon, jurnalist, daftar, O‘zMU, XXI asr, Navro‘z — 2001, 9-“A” sinf.

2-mashq. Ko‘chirish qoidalariga zid ravishda qismlarga ajratilgan so‘zlarni belgilang va ularni to‘g‘rilab daftaringizga ko‘chirib oling.

Den-giz, ta-a-lluq-li, ke-tin-giz, o-ta-la-ri, Nam-Du, ko‘n-gil, tran-sport, mesh-chan, sa-o-dat, ma-’lumot, B-MT, Er-on, a-ka-xon, u-kam, ton-ggi, sanoq-li.

3-mashq. Matnni o‘qing. So‘zlarni bo‘g‘inlarga ajrating.

Hoy Ubaydulloxon! Ubaydulloxon! Qani, seni yo‘qlovchi bir mehriboning bormi? Hozir sening bog‘laringga bahor keldi. Maysalar unmoqda. Osmoningda turnalar! Nahot, ularning qurquri senga eshitilmasa?! Xumori tutib yig‘lamaysanmi? Qirlaringdagi lolalar, gunafshalar, varrak uchirgan tomlaringdagi chuchmomalar nahot xumor qilib ko‘zlaringga ko‘rinmasa!

Uning xayolida jonlangan onasining nolalari qanchalik aqlli bo‘lmasin, ammo otasi Asadullo maxsumning yoshligidan qulog‘iga quygan hikmatlari xayolidan kecharkan, qamoq azob-uqubatlarini ham, sog‘inch xumorlarini ham birdan unutardi. Yangidan o‘zida kuch-g‘ayrat tuyardi, kelajagiga, o‘z maqsadlariga erishishga umid uyg‘onardi.

— Bir g‘ofil bandani g‘aflat uyqusidan uyg‘otib, yo‘lga solmoqning o‘zi qanchalik savob!

Bir yetimning boshini silasang, bir gʻaribning mushkulini oson qilsang, bir bechoraning koʻngliga malham boʻlsang, buning savobiga ne yetsin! “Ammo, xalqning dardiga darmon boʻlmoq niyatida jon fido qilsang, uning baxt-saodati uchun oʻz halovatingdan kechsang, hayotingni uning yoʻliga tiksang, buning savobiga teng savob boʻlarmikan dunyoda! Bunday bandasidan Xudoyim oʻz marhamatini darigʻ tutmaydi”, — derdi otasi.

Darhaqiqat, xalq uchun jonini qurbon qilishdan afzalroq, inson uchun ulugʻroq savob yoʻq! Xalqning baxt-saodati, ozodligi yoʻlida qurbon boʻlganlarga, oʻlim yoʻq!

(Shukrullo “*Tirik ruhlar*”)

“Tushunchalar tahlili” – texnologiyasi yordamida tayanch soʻz va iboralar bilan ishlash

Tushunchalar	Mazmuni
Sintaksis	Sintaksis soʻzlarning oʻzaro birikish usullarini, soʻz birikmasi va gaplarning qurilishi va ifoda xususiyatlarini oʻrganuvchi boʻlimdir. Soʻzlarning tildagi muayyan qonun-qoidalar asosida oʻzaro birikuvidan soʻz birikmalari va gaplar hosil boʻladi. Sintaksis ikki boʻlimdan iborat: soʻz birikmasi sintaksisi va gap sintaksisi.
Soʻz birikmasi	Ikki va undan ortiq mustaqil soʻzlarning maʼno va grammatik jihatidan birining ikkinchisiga ohang yoki kelishik va koʻmakchilar yordamida bogʻlanishi. Mustaqil soʻzlar maʼno va grammatik jihatdan bir-biri bilan bogʻlanib, soʻz qoʻshilmasini hosil qiladi: <i>Keng dalada dehqonlar va hasharchilarning shoʻx-shodon ovozlari yangraydi.</i>
Gap	Fikr ifodalashning, nutqning eng kichik birligi gapdir. Gap biror voqea-hodisa haqidagi xabarni, soʻroqni yoki buyruqni ifodalovchi asosiy sintaktik

	butunlikdir. Gapning asosini kesim va ega yoki faqat kesim bo‘laklariga aloqador <i>grammatik asos</i> tashkil etadi. Gap orqali nisbiy tugallangan fikr, tuyg‘u ifodalanadi. Tugal fikr matnda to‘liq namoyon bo‘ladi. So‘z birikmalari va so‘zlar o‘zaro sintaktik jihatdan birikib gapni, gaplar esa o‘zaro mantiqiy jihatdan bog‘lanib matnni hosil qiladi.
--	--

Gaplar quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Ifoda maqsadiga ko‘ra: darak gap, so‘roq gap, buyruq gap, istak gap.
2. His-hayajon ifodalashiga ko‘ra (emotsionallikka ko‘ra): his-hayajon (undov) gaplar, his-hayajonsiz gaplar.
3. Modallikka ko‘ra: tasdiq gaplar va inkor gaplar.
4. Grammatik asosga ko‘ra: bir bosh bo‘lakli gaplar (egali va egasiz gaplar) va ikki bosh bo‘lakli gaplar.
5. Grammatik asos miqdoriga ko‘ra: sodda gaplar va qo‘shma gaplar.

Amaliy mashg‘ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qisqartma so‘zlar ko‘chirish qoidalarini izohlang.
2. Harfiy birikmalar ko‘chirilish qoidalarini ayting.
3. Olinma so‘zlar bo‘g‘in ko‘chirilish qoidalari haqida ma’lumot bering.

19-amaliy mashg'ulot:

ADABIY TIL ME'YORLARI. FONETIK VA TALAFFUZ ME'YORLARI

Reja:

1. Umumxalq tili va adabiy til.
2. Umumxalq tili va adabiy tilni farqlab turuvchi xususiyatlar.
3. Fonetik va talaffuz me'yorlari.
4. Orfoepik hodisalar.

Tayanch soʻz va iboralar: umumxalq tili, adabiy til, sheva, lahja, toshkent shevasi, fargʻona shevasi, qarluq lahjasi, qipchoq lahjasi hamda oʻgʻuz lahjalari.

Umumxalq tili maʼlum bir xalqning soʻzlashuv tilidir. Umumxalq tili kengroq hajmda boʻlib, u sheva va lahjalar, kasb-hunarga oid soʻzlar, atamalar, jargonlar, maʼlum toifa (biror ijtimoiy guruh)ga oid soʻzlarni ham oʻz ichiga oladi. Bu xil tilda nutq erkin boʻlib, til qoidasiga asoslanmaydi. Har bir davrda xalqning umumiy adabiy tili bilan birga, sheva va lahja tillari ham boʻladi. Sheva va lahja maʼlum hududda yashovchi aholining tilidir. Oʻzbek umumxalq tilida 3 ta lahja mavjud. Ular qarluq lahjasi, qipchoq lahjasi hamda oʻgʻuz lahjalaridir. Bir-biriga yaqin shevalar yigʻindisi – lahja deyiladi. Maʼlum hududda qoʻllanib, shu hudud aholisi uchun tushunarli boʻlgan umumxalq tili shakli – sheva deyiladi. Masalan, Toshkent shevasi, Andijon shevasi kabi.

Adabiy til esa maʼlum bir til qoidalari asosida tuzilgan, ishlangan tildir. Adabiy til barchaga tushunarli boʻlgan soʻzlar, qoʻshimcha ibora va gaplardan iborat boʻladi. Adabiy til qoidalari – meʼyorlarini belgilash uchun tilshunos olimlar sheva va lahjalarni oʻrganadilar, umumga tushunarli til xususiyatlarini belgilab, anʼanaviy adabiy til qonun-qoidalarini ham hisobga olib, zamonaviy adabiy tilni va uning meʼyorlarini belgilaydilar. Adabiy tilda adabiy, ilmiy asarlar yoziladi, bu til – matbuot,

adabiyot va ilmiy asarlar tili, ma'ruzalar, so'zlashuv tili bo'lib qoladi.

Til me'yoring fonetika, grammatika va boshqalarda bir variantni tanlash qandaydir darajada qat'iy bo'lsa ham, lug'aviy me'yorlar haqida gap ketganda voz kechish kerak deb bo'lmaydi. Tilning lug'aviy boyligidan foydalanganda me'yorning imkoniyati muallifga takrorni, bir xillikni yengishda chiroyli nutq tuzishda qo'l keladi. Nutqning to'g'riligi uning adabiy me'yorlariga mosligidir. Nutq o'zida adabiy tilning fonetik talaffuz, lug'aviy so'z yasaliishi Grammatik uslubiy me'yorlarini mujassamlashtirgan bo'ladi. Nutqning to'g'riligi uning eng aloqaviy fazilatidir.

Ma'lum bo'ladiki, og'zaki nutqning to'laligicha adabiy holatga keltirilishini ta'minlash talaffuz jarayonini me'yorlashtirish bilan bog'liq. Og'zaki nutq ishlatiladigan qaysi soha va yo'nalish bo'lmasin, turli uslublardagi vazifasini belgilash bo'lmasin, barcha o'rinlarda ham til birliklarini bir me'yorga keltirib qo'llash masalasi birinchi o'rinda turadi.

Nutq shaxsiy hodisa. Agar so'zlovchi adabiy me'yorlarini kishi egallamagan bo'lsa yoki o'z shevasi bergan shaxsiy variantni afzal deb qarasa, uning puxta adabiy me'yordan cheklanishi mumkin. O'zbek tili xususiyat jihatidan uch lahjadan iborat. Kelishik me'yorlari. Adabiy tilimizda "kuchli" va "kuchsiz" me'yorlari bor. Kuchli me'yorlar adabiy tilda so'zlovchi shaxslar tomonidan hamma vaqt amalga oshiriladi. Kuchsiz me'yorlar og'zaki nutqda ham e'tibor berilishi oqibatida yuzaga keladi. O'zbek tilining qarluq lahjasidagi shahar shevalarida qaratqich va tushum kelishiklari bir xil ko'rsatkichga ega, ya'ni ikki kelishik uchun ham –ni xizmat qiladi. Qaratqich-qaralmish aloqasida xoslik ma'nosi ifodalanishida ba'zi bir o'zgacha sharoitlarda qaratqich ko'rsatkichi ishlatilmaydi. Masalan: O'zbek tili, shahar kengashi, bahor fasli. Turli sabablarga ko'ra kelishik joylarini almashtirib ishlatish, ya'ni hamma hollarda ham hozirgi zamon o'zbek tili normalarini buzish hisoblanadi. Birlarni bee'tiqod.

Birlarni riyo ko‘rdim. Tushum kelishigi affiksini vazn talabi bilan tushirib qoldirsa, she’rda g‘alizlikni hosil qiladi:

*Quloq soling alvon-alvon so‘zlarga,
Karvon yurar olsiz to‘la tuzlarga,
Uyga keling, ikki birday miyani
Urush janjal kim qo‘yibdi sizlarga.*

Turkiy xalqlarning ba’zilari tilida jo‘nalish kelishigi o‘rnida ayrim hollarda o‘rin-payt kelishigidan foydalanish uchraydi.

*Suratda ra’nosan o‘zing,
Men muftalo qayda boray?*

1-mashq. Jonli so‘zlashuv nutqiga xos so‘zlarni yozma adabiy tilda yozing.

N a m u n a: sevindi — suyundi.

Anjon – Andijon, Samarqan – Samarqand, asma – astma, do‘stlik – do‘stlik, ishleman – ishlayman, televizor – televizor, ko‘yni – ko‘ngli, obketaman – olib ketaman, to‘r – to‘rt, ishka – ishga, silar – sizlar, bo‘maydi – bo‘lmaydi, istudent – student, abzal – afzal, mart – mard, dasro‘mol – dastro‘mol.

Yuqoridagi so‘zlar ishtirokida og‘zaki matn tuzing.

2-mashq. So‘zlashuv nutqiga xos qisqargan so‘z shakllarini orfoepik me’yorlarga muvofiq talaffuz qiling, so‘ngra ular ishtirokida gaplar tuzing.

Olvoling, ketvordi, kemayapti, kamayipti, daraxtti, ishlamedi, boriylar, turmayladi, isrop qimeylik, tayarlandi, ardoladi, ketomadi, g‘iyvat.

3-mashq. Hamzaning hajviy she’rini «nutq toni» (yuqori tantanavorlik, jo‘shqinlik)ga e’tibor bergan holda o‘qing.

MEVALAR MOJAROSI

Gilos haddan oshiqib,
Xafalikdan toshiqib,
Keldi o‘rik boshiga,
Musht ko‘tarib shoshiqib:
“Ey o‘rik, san so‘zlama,
– Maqtanmoqni ko‘zlama!
Yonboshingga bir tepay,
Bog‘ga hargiz yuzlama.
G‘o‘rang qursin, kech bitar,
Yegan kishi tish sinar...

Yuqoridagi she‘rdan xulosa qilib, eski adabiy tilning xalq tiliga qanday moslashganini tushuntiring.

Amaliy mashg‘ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Umumxalq tili haqida ma‘lumot bering.
2. Adabiy til qoidasini ayting.
3. Umumxalq tili va adabiy tilni farqlab turuvchi belgilarni tushuntirib bering.

20-amaliy mashg‘ulot:

IMLOVIY VA GRAMMATIK ME‘YORLAR

Reja:

1. Imloviy me‘yorlar.
2. Grammatik me‘yorlar.
3. Og‘zaki va yozma adabiy tilning o‘ziga xos xususiyatlari.

Tayanch so‘z va iboralar: og‘zaki va yozma adabiyot, badiiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar, imloviy va grammatik me‘yorlar.

O‘zbek adabiy tili olimlar, ziyolilar, adiblarning og‘zaki va yozma adabiyotining asosiy ijodkorlari bo‘lgan xalqimizning asrlar osha mashaqqatli mehnati, tilga sayqal berishi, uni chuqur

o'rganishi borasidagi xizmatlari evaziga turkiy tillar oilasida o'ziga xos mavqega ega bo'ldi. O'zbek tilida juda ko'p o'lmas badiiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Bu ham o'zbek tilining madaniy tillar qatoridan o'rin olishini ta'minladi.

Qadimdan ma'lumki, til eng muhim aloqa – aralashuv, fikr almashuv qurolidir. Bu qurol qator boshqa vazifalarni ham bajaradi: u yoki bu xalq tarixi yoki umuman voqe'lik haqida xabar beradi, ularni avloddan – avlodga yetkazadi, kishilar ongiga ta'sir etadi, estetik zavq bag'ishlaydi. Shuningdek, u bilim berish yoki bilim olish quroli hamdir.

Ana shunday qator vazifalarni bajaruvchi hamda funksional imkoniyati yanada ortib borayotgan bu qurolning – o'zbek adabiy tilining ishlatilishi, uning qay darajada sayqal topganligi, o'tkirligi, muayyan vazifani bajarishga xoslanganligi, tuzilishi, mohiyati bilan shaklining mutanosibligi, go'zal va ixchamligi kabilar uning qudratli madaniy qurol ekanligini ko'rsatadi. Qurolni yaratish va unga sayqal berish esa shu tilga mansub bo'lgan xalq vakillarining, ziyolilar, adiblar, shu qurolni ishlatishga ehtiyoji bor bo'lgan barcha kishilar va nihoyat, shu ish bilan maxsus shug'ullanuvchi mutaxassislarning ishidir.

Darhaqiqat, nutq – bu til deb atalmish noyob quroldan foydalanish jarayoni. Demak nutqiy jarayon – tilning o'z vazifasini bajarish jarayoni. Bu jarayon yaxshi yoki yomon kechishi mumkin. Notiq esa ma'lum ma'noda bu jarayonni amalga oshiruvchidir.

“Qobusnoma”da Kaykovus hamma hunarlar ichida so'z hunari – notiqlikni a'lo deb bilgan: “Bilgilkim, hamma hunardan so'z hunari yaxshi”.

Nutq xoh og'zaki, xoh yozma bo'lsin, go'zal yoki quruq – qo'pol bo'lishi mumkin.

O'tkir teshani qo'lga olgan usta u bilan ajoyib bir quticha yasashi mumkin. Shu teshani qo'lga olgan chala bir havaskor usta bir zumda qo'lini chopishi yoki yaxshi narsani ishdan chiqarishi mumkin.

Respublikamizda ta'limning barcha tizimlarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida" qabul qilgan qarori asosida faoliyat yuritilmoqda.

An'anaviy imlo me'yorlarini saqlab qolgan holda lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosi bilan ish ko'radigan imlo ham o'z me'yoriy qoidalariga ega va bu me'yorlar yuqorida tilga olingan hujjatda o'z ifodasini topgan. Undagi qoidalarga amal qilish tilimizdan foydalanuvchilar uchun bundan keyin majburiy sanaladi va shu tarzda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan tadbirlar natijasida o'zbek tilining orfografik me'yori yo'lga qo'yiladi.

A.Mamatov quyidagi mulohazalarni bayon qiladi: "Yoshlarning adabiy til normalariga amal qilgan holda so'zlashishi, nafaqat ularning o'qimishlilikidan darak beradi, balki ayni vaqtda aqlli va madaniyatlilikini ham ko'rsatadi. Shuning uchun yoshlar hamma vaqt nutq madaniyati va nutq odobiga qat'iy rioya qilgan holda so'zlashga harakat qilishlari lozim. Talaffuz etilgan har bir tovush, so'z, ibora, aniq va ravon jaranglashi kerak. Yoshlarning notiq bo'lishi shart emasdir (balki), lekin faqat fikrini, tushunchalarini to'g'ri, aniq iboralar bilan ifoda qilishlari zarur, chunki ona tilimizning sofliğini saqlash har bir yosh avlodning sharaflı burchidir".

Ona tilimizga davlat tili maqomining berilishi uning hayotiylik, yashash shart-sharoitlarini belgilab berdi. Rivojlanishi va istiqboli qonun yo'li bilan kafolatlandi.

1-mashq. Suv havzalari bilan atalgan joy nomlarini izohi bilan o'qing.

Achchiqko'l – Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanidagi qishloq. Achchiqko'l – asli suv havzalaridan biri – ko'lning nomi, ko'l suvining achchiqligi, o'ta sho'r ekanligi, iste'mol qilish uchun yaroqsizligi ko'lning shu tarzda nomlanishiga sabab bo'lgan. Ko'l hozirda yo'q bo'lib ketgan, lekin uning nomi shu

atrofdagi aholi turar joyi atamasi sifatida saqlanib qolgan. Aniqrog'i, ko'l nomi asosida qishloq nomi vujudga kelgan.

Xalqimizda "Ko'l qurisa ham nomi qurimaydi" degan naql bor. Darhaqiqat, respublikamizda garchi o'zi qurib, yo'qolib ketgan bo'lsa-da, nomi hamon saqlanib qolgan ko'llar anchagina topiladi. Ular hozirda qishloq nomlari sifatida yashab kelmoqda.

Shaytonko'l (Farg'ona viloyati Beshariq tumani), Oydinko'l (Farg'ona viloyati Buvayda tumani), Qorako'l (Farg'ona viloyati Uchko'priq tumani), Oqko'l (Farg'ona viloyati Dang'ara tumani), Damko'l (Farg'ona viloyati tumani), Qo'g'aliko'l (Namangan viloyati Zadaryo tumani), Bordimko'l (Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani), Darvozako'l, Sho'rko'l (Namangan viloyati Yangiqo'rg'on viloyati), Chapko'l, Polvonko'l (Namangan viloyati Norin tumani), Oltinko'l (Andijon viloyati Oltinko'l tumani), Bordonko'l (Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani) singari qishloq nomlari hozirda mavjuddir.

2-mashq. Keng iste'moldagi quyidagi so'zlarni guruhlar (odam va hayvon a'zolari, tabiiy borliqqa oid hodisa, harakat va holatni ifodalovchi nomlar) ga ajratib ko'chiring.

Pishirmoq, boqmoq, g'or, cho'qqi, tovon, to'piq, bosh, oyoq, yurmoq, turmoq, yer, quyosh, urmoq, yugurmoq, oy, suv, qo'l, barmoq, tirnoq, chopmoq, havo, sakramoq, daryo, tog', jag', bo'yin, tirsak, siljimoq sudralmoq, soy, tog', cho'zilmoq, dara, qir, og'iz, jag', o'chmoq, teri, ekmoq, bel, dovon, cho'qqi, boqmoq.

Amaliy mashg'ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Imloviy me'yor deganda nimani tushunasiz?
2. Og'zaki va yozma adabiyot nima?
3. Nutq odobini izohlab bering.

21-amaliy mashg'ulot:

LUG'AVIY VA SEMANTIK ME'YORLAR

Reja:

1. Leksik me'yorlar.
2. Xususiy me'yorlar.
3. Leksik me'yor muammolari.

Tayanch so'z va iboralar: *leksik me'yorlar, xususiy me'yorlar, argo va jargonlar.*

Leksik me'yorlar deganda nutq jarayonida umumxalq tilida mavjud bo'lgan so'zlarni to'g'ri tanlash va o'rinli ishlatish tushuniladi. Ko'p ma'nolilik, sinonimlar va variantlar shaklidagi leksik birliklar doirasida tanlanish imkoniyatining ko'pligi uning xususiy me'yorlarining shakllanishiga ham sabab bo'lgan. Tilimizdagi dialektizm, neologizm va boshqa leksik birliklarning me'yoriy xususiyatlarini bilish kam leksik me'yor to'g'risidagi ma'lumotlarimizni kengaytiradi.

Dialektizmlar va adabiy til me'yori doirasida me'yorni belgilash tilimizdagi mas'uliyatli masalalardan biri sanaladi. Chunki, adabiy til sheva leksikasidan ularning ko'pchiligi uchun umumiy bo'lgan so'zlarni tanlab oladi va uni o'z leksik tarkibiga kiritadi (mas., *sigir-siyir-inak; chaqaloq-buvak, tuxum-moyak-yumurta, chumoli-mo'rcha-qarinja-qumursqa* kabilar).

O'zbek tilida aynan ekvivalentlari mavjud va varvarizm sifatida qaraladigan *nu, tak, vot, sovsem, voobuy, tolko, tolko tak, yestestvenno, obyazatelno, konechno, uje, pochti, tak chto, znachit, kak raz, neujeli, tem boleye, dokument, oformit qilmoq, organizovat qilmoq, prinimat qilmoq, razresheniye olmoq, podpis qo'ymoq, bo, akun, soni* kabi so'z va birikmalarining ishlatilishi ham ijobiy hodisa emas. Bu yerda ham me'yor buzilgan.

Mustaqillik tufayli yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida tabiiy ravishda tilimizda ham juda ko'plab yangi so'z va iboralar, birikmalar paydo bo'lyapti. Bu holatni, asosan, fan,

ishlab chiqarish, iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar, huquq sohalarida, qisman maorif, madaniyat, san'at va badiiy adabiyot sohalarida kuzatamiz. Xalqimiz ularni qanday qabul qilishidan qat'iy nazar, ularni qo'llashdagi har bir holatga munosabat bildirib borilishi, me'yor sifatida tavsiya etilayotgan variantlarning nega shunday tarzda ma'qul ko'rilganligi asoslanishi zarur bo'ladi.

Xususiy me'yorlar sifatida qaraladigan ma'lum sohaga va kasb-hunarga oid til birliklari me'yorlari haqida bilimga ega bo'lish ham mumkin.

Kasb-hunarga oid birliklardan tashqari tilimizda biror ijtimoiy guruh yoki toifaga, masalan, talabalar, savdo xodimlari, sportchilar, o'g'rilar, bezorilar, shofyorlar kabilarning o'ziga xos va boshqalar tushunmaydigan, jargon deb ataladigan "yasama tili" mavjud. Bu til ana shu guruhlar doirasida amal qiladi va og'zaki shaklda me'yorlashib, og'izdan og'izga ko'chib yashaydi. Shu jarayonda ularning ayrimlari yo'qolib ketishi, ayrimlari o'zgarishi, davrlar o'tishi bilan bu qatlam yangi birliklar hisobiga boyib borishi mumkin. Ma'lum qismi esa ommalashib ketadi. *Dollar* ma'nosini beradigan *ko'k*, *karam* so'zlari bunga misol bo'la oladi.

Badiiy adabiyot matnida jargonlar maxsus vazifa bajaradi. Uning ko'magida asar voqealari bir qadar ishonchli tasvir qilinishi yoki qahramonlar tili individuallashtirilishi mumkin. Masalan, *qafas* (13) – *turma*, *arava* (66) – *mashina*; *malax* (56) – *pul*; *dum* (54) – *orqadan kuzatib yuruvchi odam*; *buyurtma*, *mukofot* (36, 45) – *o'g'irlangan mol*, *narsa* kabi.

Ma'lum bo'ladiki, tildagi me'yorlashish ko'p qirrali jarayon bo'lib, umumiste'moldagi so'zlar ma'lum kasb-hunar yoki jargon doirasida atamalashishi, asosiy me'yorlashgan holatidan chetga chiqib ketishi yoki buning aksi – kasb-hunar yoki jargonga oid xususiy me'yorlar qamrovidagi atamalarning ma'nosi kengayib, ular umumxalq mulkiga aylanishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalaridagi ijobiy holatlar bilan birga nutq madaniyatiga salbiy ta'sir etuvchi ayrim jihatlarni (tildan

foydalanishdagi ba'zi kamchiliklarni) o'quvchilarga misollar asosida tushuntirib berish, ularning e'tiborini qaratish hamda bunday holatlarga yo'l qo'ymaslikka yordam berishi mumkin. Quyida gazeta tilida adabiy me'yorga rioya etilmagan ayrim holatlar tahlilini keltiramiz.

Gazeta tilida leksik me'yor muammolari. So'z tanlash va uni jumlagi mos holda qo'llash materialni tushunarli, mazmunli, aniq, ta'sirchan tarzda gazetxonga yetkazishning muhim shartidir. So'z qo'llash muammosi ko'pdan buyon tilshunos olimlar, matbuotchilar nazarida bo'lib kelmoqda.

Gazeta tilida leksik me'yor talablari quyidagi hollarda buzilmoqda:

1. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi to'g'risidagi qonun loyihasining muhokamasi davrida boshlangan harakat – ruscha-baynalmilal so'zlarni turkiy, o'zbekcha, fors-tojikcha, arabcha so'zlar bilan almashtirish, yangi so'z va terminlar ijod qilish bilan bog'liq holatning ta'siri hamon davom etmoqda. Gazetalarda so'z va terminlarni qo'llashda turli xillik mavjud. Ko'pchilik tomonidan noto'g'riligi izohlangan, asoslangan, keng iste'moldan tushib borayotgan ayrim so'zlar gazetalarda variant sifatida ishlatilmoqda. *M.*, *oliygoh*, *tayyoragoh*, *aeroqo'nalg'a*, *ro'znoma*, *muzofot* kabilarning asosiy dubletlari keng iste'molda bo'lishiga qaramay, ular parallel holda gazetalarda uchramoqda. Misol: O'zbekiston *muzofot*larining vakillari o'ziga xos kamalak misol yetti xil rangli milliy libosda sahnaga kirib keladilar. Zero, O'zbekistonda har bir *viloyat*ning o'ziga xos san'ati bor (XS., 1.09.98).

2. Gazetalarda ayrim tushunarsiz, izohtalab so'zlarning qo'llanilish holatlari uchramoqda. M: Tahlilchilar uning ildizlarini izlashmoqda, kuzatuvchilar *terakt* oqibatlarini bayon etishyapti (XS., 4.12.02). Ulug'bek rasadxonasida janob Prezident men- ga *usturlobni* ko'rsatdi (XS., 30.01.98). Faqat nodonligi bois kimlarningdir otgan o'qiga aylanganlar. Manqurt bo'lib, *zom-bi* bo'lib, odamzot kushandasiga aylanganlar (XS., 20.11.01).

Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi targʻibotda ham bosh tamoyil *pragmatizm* boʻlmogʻi kerak (XS., 8.11.02). Biroq bu *charxi- dunda* oʻzligimizni asragan holda taraqqiyot, fan ummoniga hech qachon qurimas daryodek quyilguvchi xalq boʻlib qolamiz (D., 22.11.01). UEFA vakillari, agar shu holat yana takrorlandigan boʻlsa, “Sparta” klubi oʻyingohini ham *diskvalifikasiya* qilishlarini taʼkidlashdi. Uning tarkibiga 15 ta qoʻshiq kiritilgan boʻlib, shundan ikkitasi “eski” qoʻshiqlarning yangilangan “shakli”: “Qurbon boʻlaman” va “Faryod”ning *remixlari* (D., 22.11.01).

3. Soʻzlarni dialektal shaklda ishlatishga eʼtibor baʼzan oshib bormoqda. M.: *Huv anavi* oʻspirin mast boʻlib oyoqqa turolmay qolgan otasini suyak kelayotgani – oʻsha otaga, oilaga, mahallaga, millatimizga isnod emasmi? (Z., 13.02.01). Leksik-stilistik norma buzilishlarining aksariyati ham soʻz qoʻllash bilan bogʻliqdir.

1-mashq. Quyidagi matnni koʻchiring. Rus tilidan hamda arab va fors-tojik tilidan oʻzlashgan soʻzlarni alohida-alohida koʻchiring.

ABU MUSLIM

13-dekabrda “Turon” qishloq binosida ulugʻ adibimiz, muallif Fitratning 5 parda, 7 koʻrinishlik “Abu Muslim Xurosoniy” nomli tomoshasi oʻynaldi.

Oxirgi koʻrinishda abbosiylarning birinchi xalifasi rolini Sayfi qori juda yumshoq oʻynadi. Ayniqsa, Abu Muslim bilan Marv begi qizining oʻlishlari chogʻida, karomatgoʻy shayx choponi ostidan hovarjlarning jasusi Zahhok chiqib kelgan vaqtda, oʻzining katta va tuzalmas xatolarini anglagʻon damlarda shu qadar kam harakat edikim, sira qoʻya qoling! Sayfi qorining ampulasi (oʻynayturgan oʻyunlari) beltulikdir. Rejissur shuni koʻzda tutib uni gʻoyat jiddiy boʻlgʻon shu xil rollarga chiqarmasligʻi kerak.

Bizning Turkistonda “dogʻuli ayyor” deb nom chiqargʻon Zahhok rolida Uygʻur boshdan oyoq yaxshi. Koʻzga ilinar-ilinmas sustlik va ruhsizligini sanamasak, Marv begining qizi Gulnor rolida Maʼsuma xonim yaxshi, Abu Muslimning vaziri Homid

rolida O'ktam, Marv begi rolida Sayfi qori, Amir Ali rolida Shokir, Gulorning enagasi rolida Robiya Tutash tekis o'ynaydilar. Narsiyor rolida chiqqan Bosit bilan Yazid rolidagi Olimning yuksak ruh bilan vaziyat va ahbolg'a yondashtirib o'ynashlarini aytib o'tmak kerak. Boshqa kichkina vazifalar ham durust bajarildi.

Sahnamizning o'zini tuzatishga ham jiddiy harakatlar ko'rila boshladi. Sirdaryo muzofot firqa qo'mitasining mas'ul sarkotibi o'rtoq Abdulhay Toji bilan Eski shahar ijroqo'mining muvaqqat raisi Mannon Ramz o'rtoqdir. Markazning birdan bir san'at markazi bo'lg'on "Turon" binosi va Davlat necha havaslik kishilarga topshirib pullik yordam va'da qilg'onlar.

(A.Cho'lpon)

2-mashq. Matndagi sinonim so'zlar o'rniga mosini qo'yib ko'chiring.

AVESTO

"Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, uning ilk sahifalari Zardusht tomonidan VII asrning oxirlarida Amudaryo sohillarida yaratilgan. Keyinchalik janubiy Eronda otashparastlik diniy ulamo-kohinlari tomonidan to'ldirilib takomillashtirilgan. Bu kitob 12 000 ho'kiz terisiga bitilgan. Makedoniyalik Iskandar Sharqni zabt etganda uning nodir nusxasini Elladaga eltib kerakli joylarni tarjima qildirgan.

"Avesto"ning Vatani O'rta Osiyo va unga chegaradosh yurtlardir.

"Avesto" zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lishi bilan birga, ilm-fan, hayotning barcha sohalari bo'yicha mukammal ma'lumot beradigan ulkan, eng ko'hna manba hisoblanadi. Grek olimi Plini "Avesto"ni 2 million baytdan iborat (eramizdan oldingi III asrda) degan edi. Biz undan O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining eng qadimgi marosimlari: urf odat, e'tiqod, ibodat paytida qiroat qiladigan oyatlari, diniy ma'rosimlarida ijro

etadigan qo‘shiq-lari, minglab xalq ohanglari haqida ma’lumot olamiz. Bundan tashqari, kitobda qadimgi xalq og‘zaki ijodiga taalluqli yagona syujetli – dostonlardan parchalar mavjud.

Shuningdek, “Avestoda” eramizdan oldingi 2000-yillardan tortib to oltinchi asrlargacha bo‘lgan davrdagi O‘rta Osiyo va Eron xalqlari tarixiga doir, Sirdaryo va Amudaryo sohillarida yashaydigan xalqlarning ijtimoiy turmushiga oid ma’lumotlar bor. Chunonchi, kitobda shu sarzaminda istiqomat qilgan xalqlarning kasb-kori, savdo-sotig‘i, qo‘shni xalqlar bilan munosabatlari bayon qilingan. Har bir kasb-hunar egasining jamiyatda tutgan o‘rni alohida qayd etilgan. Dehqonlar bilan chorvadorlar jamiyat moddiy ne’matlarini yaratuvchilar sifatida ta’riflangan.

(H.Homidiy. “Ko‘hna sharq darg‘alari” kitobidan)

Amaliy mashg‘ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Leksika so‘zining ma’nosini ayting.
2. Sema nima?
3. Xususiy me’yorlarga misollar keltiring.
4. Leksik-stilistik norma nima?

22-amaliy mashg‘ulot:

OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQNING O‘ZIGA XOSLIGI

Reja:

1. Verbal va noverbal muloqot.
2. Yozma muloqot.
3. Muloqot texnologiyasi va texnikasi.

Tayanch so‘z va iboralar: og‘zaki va yozma nutq, verbal va noverbal muloqot, muloqot texnologiyasi

Avvalo og‘zaki muloqotdan boshlaylik. Buni so‘zlar orqali vujudga keladigan aloqa yoki fikr almashish deb belgilash mumkin. Bu yozma va og‘zaki bo‘lishi mumkin. Og‘zaki aloqa odamlarga fikrlar, qadriyatlar, takliflar almashish imkonini beradi

va odam boshqasi bilan bog‘lanishi mumkin bo‘lgan muhitni yaratadi. Do‘stimiz bilan suhbat qurganimizda, bu og‘zaki aloqa, chunki u boshqa odam bilan muloqot qilish uchun so‘zlardan foydalanishga imkon beradi. Og‘zaki aloqaning ahamiyati shundaki, u ma’lumotlarni uzatish juda aniq bo‘ladigan sharoit yaratadi. Aloqa og‘zaki bo‘lgan sanoat muhiti misolini olaylik, lekin asosan yozma aloqa – xatlar, turli xil hujjatlar, hisobotlar va eslatmalar orqali ishchilar boshqalar bilan aloqa qilishadi. Bu ko‘p vaziyatlarda og‘zaki aloqa emas, balki yozma aloqa. So‘zlar fikr almashish uchun ishlatilganligi sababli, biz buni og‘zaki aloqa deb bilamiz.

Noverbal muloqot yuz ifodalari, imo-ishoralar va shuningdek, harakatlar orqali amalga oshiriladi. Odamlar ko‘pincha og‘zaki bo‘lmagan muloqot qilishadi. Ikki kishining bir-birlarining tillarini bir-biri bilan aloqa qilishini bilmasligini ko‘rganmisiz? Ular juda ko‘p qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan bo‘lsalar ham, ular qandaydir tarzda yuz ifodasi, ko‘z qarishlari va qo‘llarning harakati bilan xabarni yetkazmoqchi bo‘lgan narsalarini bir-birlariga ayta olishadi.

Muloqot texnikasi – bu kishining shaxsiy madaniyati, uning bilimlari, uquvi, har tomonlama nazariy tayyorgarligi, ta’lim va tarbiya berish usullarini o‘z nutqi orqali ifodalash demakdir. Muloqot texnikasining zaruriy sharti – bu o‘qituvchi talabalarning diqqatlarini boshqara olish demakdir. U ikki omilga bog‘liq bo‘ladi:

Mehnat – bu behad izlanish va o‘z ustida ishlash, qilgan ishlaridan xursand bo‘lish, boshdan kechirilgan quvonchdan qanoat hosil qilish.

San’at – bu qandaydir qo‘l bilan ushlab bo‘lmaydigan, aql-farosat bilan amalga oshiriladigan xatti-harakat.

Muloqot texnikasida uchraydigan kamchiliklar:

1. Nuqsonli ovoz
2. Tovushni noaniq aytish

3. Nafas olishdagi tartibsizliklar
4. Nutq tempi, tezligini to'g'ri belgilamaslik

Muloqot texnikasining tarkibiy qismlari:

1. Muloqot madaniyati – savodli gapirish, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon etish, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash.

2. Mimik pantomima – aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki iliq tabassum.

3. Hissiy holat – jiddiylik darajasi, xayrixohlik kayfiyatini saqlash, o'zining hissiy holatini tashkil etish.

Muloqot texnikasiga qo'yiladigan talablar:

1. Ovozning sifatiga e'tibor berish.

2. Muloqot jarayonida to'g'ri nafas olish.

3. Tovush va so'zlarni aniq talaffuz qilish.

4. To'liq va aniq diksiya.

5. So'z va gaplarning "chaynalmasligi".

6. Fonetikaga oid bilimlardan xabardor bo'lish.

7. Nutqdagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan muttasil foydalanib borish.

Muloqotdagi ohangning tezligi, yuqori-pastligi ham ta'sirchanlikni oshiruvchi omillardir. Bunday nutqlar, odatda, muhim qarorlar, axborotlar, farmoyishlar o'qilganda ishlatiladi. Qadimgi yunon notig'i Demosfenning dastlab ovozi past, talaffuzi yomon, nafasi qisqa bo'lganligidan chiroyli va ta'sirli nutq ayta olmaganligi haqida tarixchilar yozganlar. Bu sohani chuqur o'rgangan olim S.Inomxo'jayev ta'kidlaganidek, keyinroq Demosfen muloqot texnikasi asoslarini egallashga juda jiddiy kirishgan. U bir yerto'la qazib, shu yerto'lada ovozini rivojlantirish, diksiya, deklamatsiya bo'yicha oylab mashqlar qiladi. Talaffuzidagi nuqsonlar, "r" tovushini aytolmaslik, ba'zi tovushlarni noaniq aytish kabilarni bartaraf etish maqsadida og'ziga mayda toshlarni solib, she'rlar, turli matnlarni o'qish bilan shug'ullanadi. Ovozini

rivojlantirish, ovoz apparatlarini chiniqtirish uchun esa tepaliklarga yugurib chiqib, yugurib tushib, nafasini ushlab turgan holda she'rlarni deklamatsiya qiladi. Demosfen gapirayotganda bir yelkasini hadeb ko'taraverish odatidan qutulish uchun yerto'lasining shiftiga uchi o'tkir xanjarni osib qo'yib, yelkasini xanjarning ayni uchiga to'g'rilab turib, mashqlarini davom ettiradi. Ana shunday mashaqqatli va muntazam mashqlar tufayli Demosfen notiqlikning eng cho'qqisini zabt etgan.

Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, nafas olish zo'riqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo'lsa, shunchalik yaxshi. Zotan, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi. Fonatsiyada nafas olish va nafas chiqarish fazalarining ketma-ketligi, almashinish tartibini to'g'ri tasavvur etmoq kerak.

Yana bir misol. Odam o'ta hayajonlanganida, qattiq qo'rqqanida yoki og'ir musibat ichida bo'lganida, umuman, turli hissiy holatlarga tushganida so'zlarkan, nafas olish va nafas chiqarish fazalarini nazorat qila olmay qoladi. Buning natijasida normal fonatsiya uchun nafasi to'g'ri taqsimlanmaydi, ko'pincha oddiy bir so'z uchun ham nafasi yetmay qoladi.

Muloqot jarayonida kuzatiladigan kamchiliklardan yana biri fonatsiya jarayonida, ya'ni nutq hosil bo'lish paytida nafas olishdagi tartibsizliklar bilan bog'liq.

Muloqot texnikasini egallashda umumiy tarzda bo'lsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur. Ayrim kishilar ko'pincha muloqot jarayonida boshqa joylardagiga qaraganda anchayin baland ovozda gapiradilar. Yana ba'zilar borki, ular muloqot jarayonida deyarli past ovozda so'zlaydilar. Bunda ularning o'zlari qiynaladilar, sezilarli samaraga erishilmaydi, faqat bunday ovoz bo'g'iq ta'sirsiz eshitiladi.

Muloqot texnikasi bilan bog'liq nuqsonlardan yana biri nutq tempi, tezligini to'g'ri belgilamaslik yoki tezlik-sekinlikning

maqsadga ko‘ra mo‘tadilligini saqlay olmaslikdan iborat. Muloqotning tempi, albatta, bayon qilinayotgan materialning mohiyatiga, ifodalanayotgan fikr strukturasiga uyg‘un bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Muloqot jarayonida diksiya masalasi ham alohida o‘rin tutadi. Masalan, ba‘zan “z” tovushini jarangsiz “s” tovushiga moyil tarzda talaffuz qilish uchraydi: siz – sis, eshitdingiz – eshitdingis kabi. Bu singari nuqsonlar nutq tovushlarining hosil bo‘lish o‘rinlarini yaxshi bilmaslik va artikulyatsion apparat (tovush hosil qilishda ishtirok etadigan nutq a‘zolari)ning yetarli darajada faol emasligi natijasida paydo bo‘ladi. Noto‘g‘ri yoki noaniq talaffuz qilinadigan tovushning hosil bo‘lishida ishtirok etadigan nutq a‘zolarining faolligini oshirish yo‘li bilan kishi nutqidagi ana shunday diksion xatolarni tuzatish mumkin. Buning uchun xilma-xil mashqlar yaxshi yordam beradi. Masalan, turli tez aytishlar, maqol va matallar, turli mazmundagi matnlarni muntazam ovoz chiqarib takrorlash ana shunday mashqlarning bir ko‘rinishidir. Chunki muloqot texnikasisiz so‘zlovchining og‘zaki nutq madaniyatini aslo shakllangan deb bo‘lmaydi.

Muloqot jarayonidagi asosiy vositalardan biri bu ovoz texnikasidir. Ovoz nafas olish bilan uzviy bog‘liq, nafas olmasdan tovush chiqarib bo‘lmaydi, so‘zlash uchun esa avval o‘pka havo bilan to‘ldiriladi. To‘g‘ri nafas olish tovush va nutqning jaranglab chiqishi uchun juda zarur. Muloqot texnikasida suhbatdoshlar o‘z ovozlari ehtiyot qilishlari uchun ayrim tartiblarga rioya etishlari zarur. Ovoz kuchli, past-baland, ingichka-yo‘g‘on, uzun-qisqa, yoqimli-yoqimsiz kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi. Ovozning ana shu xususiyatlari ma’ruza o‘qishga ta’sir qiladi.

Muloqot jarayonida ilg‘or tajribalarga tayanish, *muloqot jarayonida turli usullardan, ko‘rgazmali qurollardan, slayd va multimedialardan, elektron qo‘llanmalardan foydalanish mumkin. Bu davr talabi, muloqot jarayonidagi to‘g‘ri va samarali yo‘l.*

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga tegishli qo‘shimchalarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Men bu badiiy kitoblar... do‘stim... oldim. 2. Dugonam... hovlisi oldi... vositachilik, xo‘jalik mollari va oziq-ovqat do‘koni bor. 3. Biz dushanba kuni avtobus... Toshkent... jo‘naymiz. 4. U o‘rtog‘i bilan kutubxona... chiqdi. 5. Siz hovlingiz... qanday mevali va manzarali daraxtlar ekkansiz? 6. Biz dars... so‘ng stadion... futbol ko‘rgani boramiz. 7. Siz bu matn... lug‘at yordami... tarjima qildingizmi? 8. Siz qanday asarlar... yoqtirasiz? 9. Nafisa bo‘sh vaqti... ota-onasi... yordam beradi. 10. Shahrimiz... dunyo... barcha mamlakatlari... ko‘plab sayyohlar kelishadi. 11. Tomoshabinlar taniqli san’atkor... olqishladilar.

2-mashq. Og‘zaki va yozma nutq farqlarini daftaringizga farqlab yozing.

Amaliy mashg‘ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Verbal va noverbal muloqot nima?
2. Muloqot texnikasiga ta’rif bering.
3. Muloqot texnikasida uchraydigan kamchiliklarni ayting.
4. Muloqot texnikasiga qo‘yiladigan talablarni ayting.
5. Yozma nutqning o‘ziga xosligini tushuntiring.

23-amaliy mashg'ulot:

ADABIY TIL VA NUTQ USLUBLARI

Reja:

1. Til va nutq.
2. So'zlashuv uslubi.
3. Badiiy uslub.
4. Rasmiy-idoraviy va ommaviy axborot vositalari uslubi.

Tayanch so'z va iboralar: *adabiy til va adabiy nutq, so'zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, badiiy uslub, ilmiy-ommabop uslub va publitsistik uslublar.*

Tarixan tarkib topgan, qat'iy me'yorlarga bo'ysunuvchi, so'zlashuvchilarning qaysi hududda yashashidan qat'iy nazar barchasi uchun umumiy bo'lgan til **adabiy til** sanaladi. Adabiy til har qanday tilning oliy shakli sanaladi va lug'at tarkibining boyligi, grammatik qurilishining tartibga solinganligi, qat'iy me'yorlarga amal qilishi, uslubning rivojlanganligi bilan xarakterlanadi.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi nutq uslubi hisoblanadi. So'zlar ma'lum nutq uslubiga xoslanish-xoslanmaslik belgisiga ko'ra *uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlarga* bo'linadi. Ayrim nutq uslubidagina qo'llaniladigan so'zlar uslubiy xoslangan so'zlar, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlar esa uslubiy betaraf so'zlardir.

Ilmiy uslub va uning xususiyatlari:

Fan va texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy matn ilmiy va ilmiy-ommabop matnlarga ajratiladi. Ilmiy matnda gap bo'laklari tartibi adabiy til qoidasiga qat'iy amal qilgan holda qo'llanadi. Ilmiy matnda har bir fan sohasiga oid atamalarning qo'llanilishi xarakterli xususiyat hisoblanadi. *Masalan, iqtisodiyotda kredit,*

moliya, pul, sug'urta, narx, tannarx, hisob, taftish, aylanma kabi terminlar ishlatiladi. Ilmiy-ommabop matnlarda atamalar tizmasidan, ilmiy bayonchilikdan qochiladi. Bayon etilayotgan fikrning barchaga baravar tushunilishini ta'minlash maqsadida tushunilishi qiyin bo'lgan atamalar murakkab tushunchalar o'rniga aniq va batafsil tasvirlardan foydalaniladi.

Ilmiy uslubning janrlari – monografiya, maqola, annotatsiya, dissertatsiya, darslik, ma'ruza, ma'lumotnoma.

Ilmiy uslub ham o'z ichida ikki guruhga bo'linadi:

- 1) sof ilmiy uslub;
- 2) ilmiy-ommabop uslub.

Ilmiy uslubda fan va texnikaning turli tarmoqlariga oid ilmiy asarlar, darslik va o'quv qo'llanmalari yoziladi. Bu uslub aniq, daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, ta'riflar)ga boy bo'lishi bilan boshqa uslublardan farqlanadi. Ilmiy uslub ham adabiy tilning ko'rinishi bo'lib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ham ega: monologik belgilari bilan boshqa uslublardan ajralib turadi; obrazli tasvirlar bilan emas, balki aniq ma'lumotlarning *xolis, umumlashgan* xususiyatlarini ta'riflash, tushunchalarga muvofiq keladigan terminlar bilan ish ko'radi. Kitobxonning his-tuyg'usiga emas, ongiga ta'sir etadi.

Badiiy uslub va uning xususiyatlari.

Badiiy uslub (tilning ta'sir qilish, targ'ibot, tashviqot vazifasi) - inson hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Bu uslub barchaga barobarligi,

o'quvchiga va tinglovchiga emotsional ta'sir etishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi. Bu uslubda muallif tilning barcha leksik, grammatik vositalaridan foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo'llashi mumkin. Boshqa uslublarning materiallaridan badiiy uslubda bemalol foydalanish mumkin. Shunga ko'ra, badiiy uslub keng imkoniyatga ega uslub turi hisoblanadi. Badiiy uslub badiiy adabiyot, ya'ni badiiy asarlarga xos bo'lib, unda badiiylik, ifodaviylik, ta'sirchanlik kuchlidir. Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o'z

ichiga olish bilan birga, unda o'zbek shevalariga, kasb-hunarga doir leksik birliklar, bugungi kunda iste'moldan chiqib ketgan tarixiy so'zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatila beradi. Badiiy uslub o'quvchida estetik zavq uyg'otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro'yobga chiqqan nutq ma'lum voqea-hodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifani bajarish)dan tashqari, o'quvchiga ta'sir qilish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi. *Obrazlilik va estetik ta'sir* etish badiiy uslubning muhim belgisidir. Badiiy uslub so'z sa'natiga, timsoliy fikrlash sohasiga oid va funksional juhatdan biqiq – chegaralangan emas. Uning mazmun doirasining nihoyatda keng va u timsollar, badiiy to'qima, yozuvchi fantaziyasi natijasida yuzaga keladi. Badiiy uslubda proza, poeziya va dramaturgiya asarlar yaratiladi. Badiiy uslub timsol, ijod va shaxs munosabatida yuzaga keladi. Badiiy uslubda umumxalq tili va adabiy tilning barcha qatlamiga mansub so'z va iboralar keng va faol ishlatiladi hamda estetik ta'sir etish vazifasini bajaradi. Badiiy adabiyot tili yoki badiiy uslub adabiy tilda alohida o'rin tutadi. Badiiy uslubda xalq tilidagi hamma vositalardan erkin foydalaniladi. Badiiy uslubning asosiy belgilari:

1. Turli tasviriy vositalar, chunonchi, sifatlash, qiyoslash, mubolag'a, kinoya, o'xshatish va hokazolar qo'llanadi:

Bulutning orasidan

Quyosh kulib qaraydi,

Majnuntolning yuvilgan

Sochlarini taraydi (E.Vohidov).

Shoir bu misralarda badiiy tasvirni jonlantirish usulidan foydalanib, insonga xos *kulish (kulib qaraydi)*, *tarash (sochlarini taraydi)* harakatlarini quyoshga nisbatan ishlatadi.

2. Til vositalaridan erkin foydalaniladi. Badiiy asarlarda adabiy tilga xos til birliklari, shuningdek, adabiy tildan tashqarida bo'lgan sheva, oddiy nutq, jargon kabilarga xos so'zlar bo'lishi ham mumkin. Bu uslubda muallifning o'z bayoni adabiy til me'yorlarida bo'ladi. Ammo asarda ishtirok etuvchilarning nutqida ularning xususiyatlarini ifodalash uchun adabiy tilda

bo'lmagan til birliklaridan ham foydalaniladi. Masalan, yozuvchi Abdulla Qahhor "Bemor" hikoyasida farg'onalik yosh go'dak nutqini shunday ifodalagan: *Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin*.

3. Badiiy asarda tasvirlanayotgan davrning ruhini aks ettirish uchun eskirgan va yangi paydo bo'lgan so'z va iboralardan ham foydalaniladi.

4. Sonlar raqam bilan emas, so'z bilan yoziladi.

Xullas, badiiy asarlar badiiy uslubda yoziladi. Unda so'zlashuv uslubiga, kitobiy uslublarga, shuningdek, xalq tiliga xos til birliklari ham bo'ladi. Bir fikrning o'zini adabiy tilda turli uslublarda ifodalash mumkin, chunonchi: quyidagi gaplarni qiyoslab o'qing.

So'zlashuv uslubi – oilada, ko'cha-ko'ya kishilarning fikr almashish jarayonida qo'llanadigan nutq uslubi *so'zlashuv uslubi* sanaladi. So'zlashuv uslubi adabiy va oddiy so'zlashuv uslublarini o'z ichiga oladi.

Adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilingan so'zlashuv uslubi adabiy so'zlashuv uslubi, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlashuv uslubi esa oddiy so'zlashuv uslubidir.

So'zlashuv uslubining o'ziga xos xususiyati uning erkinligidir. So'zlar tartibi erkin, asosiy maqsadni ifodalovchi gap bo'lagi ajratib ko'rsatiladi, fikr so'zga mantiqiy urg'u berish bilan ifodalanadi. Jumlar qisqa va ta'sirli bo'ladi.

So'zlashuv uslubining har ikki turi ko'pincha dialog shaklida ro'yobga chiqadi. Ikki shaxsning o'zaro so'zlashuvi dialogik nutq sanaladi. So'zlashuv uslubida so'zlar ko'pincha kinoya, piching, qochirmalarga boy bo'ladi.

So'zlashuv nutqida ona tilidagi bor imkoniyatlardan foydalanilsa ham har bir toifaning nutqida o'ziga xoslik seziladi: olimlarning suhbatlari bilan ishchi, xizmatchi, dehqonning so'zlashuvida farq bo'ladi. Hatto erkagu xotinlar so'zlashuvi o'rtasida ham ba'zi farqlar bo'ladi.

Og'zaki so'zlashuv uslubi grammatik qurilishi sodda, qisqa, mazmunan ta'sirchan bo'ladi. Bunda xalq maqollari va masallar,

rivoyat va ertaklar, latifa va qo‘shiqlar, so‘z o‘yinlari-pichinglar, hazil – mutoyibalar, askiya va qochirmalar muhim manba sanaladi.

Jonli nutq jarayonida uslubiy bo‘yoq iboralaridan (*Onaginang o‘rgilsin! Qoqindig‘ing bo‘lay!*) keng foydalaniladi. Jonli so‘zlashuv nutqida “xom” ibora va gaplar, behayo so‘zlar ham uchraydi. Ba‘zan bunday qatlamlar badiiy asarlardan ham o‘rin oladi: *Hoy xotin, tavba qildim, endi ichsam, birovdan pul olsam, go‘rimda to‘ng‘iz qo‘pay.*

Har holda hamma toifa kishilarning suhbat, so‘z va gaplari tushunarli bo‘ladi.

Chunki umumiste‘moldagi so‘z, ibora va jumalardan foydalaniladi.

Ma‘lum hududda yashovchi kishilar nutqiga xos bo‘lgan, adabiy til leksikasiga kirmaydigan so‘zlar shevaga xos so‘zlarni tashkil etadi. Quyidagi jadvalda keltirilgan adabiy til va shevaga xos so‘zlarga e‘tibor bering.

№	Toshkent shevasida	Farg‘ona shevasida	Buxoro shevasida	Samarqand shevasida	Xorazm shevasida	Adabiy tilda
1.	do‘ppi	do‘ppi	kalpo‘sh kallapo‘sh	qalpoq	tahya	do‘ppi
2.	garmdori	qalampir	qalampir qalamfur	qalampir	Murchaji	qalampir
3.	chumoli	chumalik	mo‘rcha	mo‘rcha	qorinja	chumoli
4.	narvon	shoti	narvon narbon	narvon	zangi	narvon
5.	mushuk	mishiq	pishak	pishak	pishiq	mushuk

Yozuvchilar badiiy asarlarda qahramonlarning qayerlik ekanini, tilidagi xususiyatlarni ko‘rsatish uchun ularning nutqida ba‘zan shevaga xos qo‘shimcha va so‘zlarni ishlatadilar.

– *Osilgan kim?*

– *Qiyotlik bir go‘ch yigit. Nishatamiz, o‘g‘lim, taqdir, – dedi xo‘rsinib ona. (J.Sh.)* Xorazm shevasiga xos *g‘o‘ch* so‘zi “mard, botir” degan ma‘noni bildiradi.

– Rasmiy-diplomatik uslub va uning xususiyatlari.

– Huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qo‘llaniluvchi nutq uslubi rasmiy uslub hisoblanadi. Sof qonunchilik uslubi (qonun, farmon, fuqarolik va jinoiy aktlar, nizomlar uslubi). holatlarda ishlatiladi. 2. Idoraviy – devonxona uslubi (buyruq, ariza, talabnoma, bildirgi, tavsifnoma, tarjimayi hol, ishonchnoma, dalolatnoma); diplomatik uslub (nota, bayonotnoma, bitim, konvensiya va boshqalar).

– Rasmiy uslub deyarli yozma shaklda ro‘yobga chiqadi. U har qanday tasviriy vositalardan, obrazlilikdan holi bo‘ladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi – axborot uzatish va da‘vat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi. Masalan, ma‘lumotnomada axborot berilsa, buyruqda da‘vat etish, axborot o‘z aksini topgan bo‘ladi.

– Rasmiy uslubga mansub har qaysi turning o‘ziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. Masalan, qaror, farmonlarning o‘ziga xos tomoni shundaki, bunday matnlardagi gaplarning kesimi III shaxs majhul nisbatidagi fe‘llar orqali ifodalanadi (ogohlantirilsin, topshirilsin kabi). Ma‘lumotnomada esa birinchi gapning kesimi gap boshida keladi.

– Rasmiy ish qog‘ozlarining sintaktik tuzilishi qat‘iy qoliplarga bo‘ysunadi. Masalan, “Ushbu ma‘lumotnomani ko‘rsatuvchi G‘.Mo‘minov haqiqatan ham O‘zbekiston Milliy universitetining matematika fakultetida dekan o‘rinbosari lavozimida ishlaydi...”

Publitsistik uslub va uning xususiyatlari.

Publisistika (lat. “xalq, omma”) davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o‘quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo‘layotgan

voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televideniye), Oliy Majlis yigʻinlarida, turli xil anjumanlarda qoʻllaniladigan nutq uslubi *publitsistik uslub* sanaladi. Publitsistik uslub ikki xil shaklda namoyon boʻladi: 1) yozma shakl; 2) ogʻzaki shakl; Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bagʻishlangan bosh *maqolalar*, *felyeton* va *pamfletlar*, *murojaatnomalar*, *chaqiriqlar*, *deklaratsiyalar* publitsistik uslubning yozma shakliga mansubdir. Radio va televideniya chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiqlarning nutqlari esa publitsistik uslubning ogʻzaki shaklidir.

Publitsistik uslubning oʻziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda boʻlish, hozirjavoblik, taʼsirchanlik belgilariga ega. Bunday nutq uslubida ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar koʻproq qoʻllaniladi. M., *isyon*, *irqchilik*, *qoʻporuvchilar*, *siyosiy tanglik*, *bitim* va boshqalar.

Publitsistik uslub – matbuot, radio, telekoʻrsatuvga xos boʻlgan tildir. Bu uslub rasmiy va dolzarb xabarlar, axborotlar, eʼlonlar, reportaj, bosh maqolalardan iborat boʻladi. Ularda fikr kichik hajmdagi ommabop jumlar orqali ifodalanadi. Zarur oʻrinda asoslar keltiriladi. Shuning uchun ham rasmiy xabarlarida “*muxbirimizning xabar berishicha, elchixonada xodimining soʻziga koʻra, muxbirimiz voqea roʻy bergan joydan xabar beradi ...*” va hokazo iboralar qoʻllanadi. Har bir xabarga taʼsirli, xabarning asosiy mohiyatini ifodalovchi sarlavhalar qoʻyiladiki, bu hol oʻquvchining diqqatini jalb qiladi. (“*Qonun barchaga barobarmi?*”, “*Kafolat vaʼda emas*”, “*Chetlatilgan mutaxassis*”, “*Tuya koʻrdingmi – yoʻq*”, “*Chumchuq soʻysa ham qassob soʻysin*”). Ayrim hollarda vaqtli matbuotda felyeton, kichik hikoyalar, romandan parchalar ham beriladi. Bu holda ommabop uslub badiiy uslub bilan qoʻshilib ketadi. Ommabop uslub kundalik ijtimoiy hayot koʻzgusidir. Ommabop uslubni shakllantiruvchi vositalar ijtimoiy-siyosiy atama va birikmalar

bo‘ladi: *fuqarolik burchi, iqtisodiy tejamkorlik, siyosiy vaziyat, siyosiy va ijtimoiy kuchlar, iqtisodiy vaziyat, hukumat tangligi* va b. Publitsistik uslub ommaviy axborot vositalari uslubidir. Bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta’sir qilish, soddalik, tushunarliklik, ta’sirchanlik, adabiy til me’yorlariga qat’iy amal qilishdir. Publitsistika bir qancha janrlarga ega.

Publitsistik uslub – tashviqot-targ‘ibot ishlari olib boriladigan, asosan, ijtimoiy-siyosiy hayot yoritiladigan nutq ko‘rinishidir. Publitsistik uslub o‘zining obrazlilik, hissiy-ta’siriy xususiyati bilan badiiy uslubga; yorqinligi, aniqligi va terminologik leksikasi bilan ilmiy uslubga yaqin turadi. Ijtimoiy-siyosiy masalalarning yoritilishi, tahlil uslubi, ijtimoiy- siyosiy masalalarni hal etishga undashning faolligi, o‘ziga xos terminlar, asosan siyosiy terminlarning ko‘p qo‘llanilishi singari xususiyatlar publitsistik va ilmiy uslubning o‘xshash tomonlaridir. Publitsistik va badiiy uslubning ham o‘xshash tomonlari mavjud. Ikkala uslubda ham obrazli ifodalar, tasviriy vositalardan ko‘proq foydalaniladi. So‘z va terminlar siyosiy ma’nosining badiiy uslub elementlari bilan qorishgan, uyg‘unlashgan holda ifodalanishi publitsistik nutqning salohiyatini yanada ko‘taradi va uning ta’sirchanligini oshiradi. Publitsistik uslubda ijtimoiy-siyosiy terminlar, gazeta va jurnallarga xos maxsus ifodalar, birikmalar, qat’iy qoliplashgan qurilmalarning tez-tez qo‘llanilishi bu uslubning o‘ziga xos xususiyatlaridandir: *mustaqillik, ichki tahdid, tashqi tahdid, sovuq urush, ochiq ovoz, yopiq ovoz, buyuk xizmatlari uchun, rasmiy vizit bilan, milliy istiqlol mafkurasi, xalq e’tiqodi, buyuk kelajakka ishonch, shaxs bilan davlat munosabatlari, jamiyatimizning faol ishtirokchisi, mafkuraviy bo’shliq, xavfsizlikka tahdid* va h.k. Publitsistik uslubda hissiy-ta’siriy so‘zlar va birikmalardan, maqol va hikmatli so‘zlardan unumli foydalaniladi. Maqol va hikmatli so‘zlar bu uslubda sarlavha nomi bo‘lib ham keladi hamda mazkur uslubning yanada yorqinroq bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan, *Yaxshidan bog‘ qoladi. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Mard maydonda sinaladi. Vatan, el manfaati muqaddasdir.*

1-mashq. *“Qishloqdagi tengdoshim” mavzusida matn yozing. Qaysi nutq uslubiga xos soʻzlar ishtirok etganini ajratib koʻrsating.*

2-mashq. *Matndagi soʻzlarni nutq uslublariga 5 ustunga ajratib yozing.*

Vatan nima?

Odamning shakl-u shamoyili, boʻyi-basti, koʻrinishi, jussasi, tusi, koʻz qarashlari, yurish-turishi, ovozi, tarovati, xullas, ichki va tashqi dunyosi u tavallud topgan, unib-oʻsgan va kamolotga yetgan joyga monand boʻladi. Yetti iqlim kishilari yetti xildir. Olis shimoliy oʻlkalarning aholisi sayyoramizning belbogʻi boʻlmish yer ekvatori mintaqalarida yashovchilaridan farqlanadilar. Hatto bir irqqa mansub-u turli mintaqalarda yashovchi millatlar ham koʻrinishidan farqlanadilar. Masalan, ozarbayjonlar bilan uygʻurlar tashqi qiyofalari jihatidan ham tafovut qiladilar. Demak, odam oʻz Vatanining bir zarrasidir.

Xoʻsh, Vatan nima? Nima uchun ona-Vatan deydilar?

Bizningcha, kurrayi zaminimiz butun Yer yuzida yashayotgan yetti milliarddan ziyod odamlar uchun Vatan boʻlsa, har bir xalq uchun taqdiran va tarixan ato etilgan hamda chegaralangan hudud ona-Vatandir.

“Vatan” atamasi aslida arabcha boʻlib, ona yurt maʼnosini bildiradi. Vatan tushunchasi keng maʼnoda va tor maʼnoda ham qoʻllaniladi. Bir xalq vakillari jamul-jam yashab turgan, ularning ajdodlari azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng maʼnodagi tushunchalardir. Kishi tugʻilib oʻsgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor maʼnodagi tushunchalardir. Oʻzbeklarda palonchi vatanli boʻldi, deyilganda oʻsha odam uy-joyli boshpanali boʻldi degan maʼno anglashiladi. Hazrat Alisher Navoiy vatan tushunchasini ona yurt, oʻrin, tugʻilib oʻsgan joy, maskan, manzil maʼnolarida ishlatganlar. Shuningdek, Vatan kalimasi badiiy adabiyotda koʻchma maʼnoda koʻngil mulkining maskani tarzida ham qoʻllaniladi.

Vatan tushunchasi tarix davomida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot munosabati bilan o'zgarib, kengayib, rivojlanib, boyib ketgan. Masalan, ibtidoiy jamoa tuzumining sharoitida muayyan qabila yashagan joy o'sha qabilaning yurti sanalgan jondosh va tildosh qabilalarning uzviy ittifoqidan elat paydo bo'lgan, elat yashagan hudud el deb atalgan. Masalan, o'zbek xalq dostonlarida chambil eli iborasi ko'p uchraydi. Muayyan hudud doirasida markaziy boshqaruvning paydo bo'lishi bilan vatan tushunchasi elat, ya'ni xalq va davlat tushunchalarini qamrab olgan. Xalqning tili, madaniyati, iqtisodiy turmushi, ruhiyati ma'rifiy va ma'naviy ravnaq topib borishi natijasida shu xalqqa mansub kishilar orasida mushtaraklik shakllanadi. Xalq bilan millat o'rtasida birinchi va birlamchi farq shundaki, millat vakillarida uyushqoqlik, jipslik, birdamlik, hamjihatlik, maslak va e'tiqodda yagonalik, o'zaro manfaatdorlik, bog'liqlik va aloqadorlik, bugungi turmush va kelgusi maqsadlarda uzviy xalq vakillaridagidan ko'ra kuchli, qudratli bo'ladi. Kishilik taraqqiyotining bugungi bosqichida ijtimoiy guruhlarining eng rivoj topgan bo'g'inlari – bu millatdir. Shuning uchun ham hozirgi kunda o'ziga jahondagi 202 davlatni birlashtirgan eng nufuzli xalqaro tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkiloti deb ataladi. O'zbekiston Respublikasi o'zbek millatining Vatanidir. Bu o'rinda davlat va Vatan ayni bir ma'noni ifodalaydi, yani O'zbekiston Respublikasi deganimizda Vatanimizni tushunamiz. Vatan deganda O'zbekiston Respublikasini idrok etamiz.

(A.Ibrohimov “Yorug'lik” kitobidan)

Amaliy mashg'ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Nutq uslublari deb nimaga aytiladi?
2. Oddiy so'zlashuv uslubi bilan adabiy so'zlashuv uslubi farqini ayting?
3. Badiiy uslubga tar'if bering?
4. Rasmiy uslubning o'ziga xosligini tushuntiring?

24-amaliy mashg'ulot:

ILMIY USLUBDA ATAMALARNING QO'LLANILISHI

Reja:

1. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.
2. Ilmiy uslub va sohaviy terminlar.
3. Olinma so'zlar orqali kirib kelgan ilmiy atamalar.

Tayanch so'z va iboralar: *Sof ilmiy uslub va ilmiy-ommabop uslub, ilmiy atamalar.*

Ilm-fan sohasida qo'llaniluvchi nutq uslubi ilmiy uslub hisoblanadi.

Ilmiy uslub dalilily ma'lumotnomalar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (ta'rif-qoidalarga) ega bo'lish, atamalarining keng qo'llanilishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

Ilmiy uslubga mantiqiylik, aniqlik, ilmiy atamalarning keng qo'llanishi xos bo'lib, barcha ilmiy asarlar, jumladan, maktab darsliklari ham shu uslubda yoziladi. Fan va texnika tili ilmiy uslub deyiladi. Daliliy munosabatlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil bayon qiluvchi uslub ilmiy uslubdir. Ilmiy uslubning asosi atama, ta'riflar, qoidalar, qonunlardir. Atamalar faqat bir ma'noda qo'llanilib, o'zi ifodalayotgan tushunchaning tub mohiyatini ko'rsatadi, masalan *o'zak*, *negiz*, *yasovchi qo'shimcha*, *turlovchi va tuslovchi qo'shimchalar*, *shakl yasovchilar* kabi atamalar so'z tarkibiga oid lingvistik tushunchalarni ifodalaydi. Masalan: *Har qanday grammatik ta'rif yoki qoidada uchta tushuncha birlashgan bo'ladi: tushunchaning mohiyati, xususiy va umumiy tomoni.* (Ona tili darsligidan). *Nuklein kislotalar dastlab hujayra yadrosidan ajratib olinganligi sababli ("nukleis" - "yadro") nuklein kislotalar deb atalgan.*

Yig'indisi jismning ichki energiyasini tashkil qiladi ("Fizika" darsligidan).

Ilmiy uslub ham o'z ichida ikki guruhga bo'linadi:

1) sof ilmiy uslub; 2) ilmiy-ommabop uslub.

Sof ilmiy uslub muayyan fan sohasidagi kishilar qo'llayotgan uslub. Shuning uchun bu uslubda fanning ma'lum sohasiga doir atamalar keng qo'llaniladi.

Ilmiy-ommabop uslubda esa fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi. Shuning uchun bunday uslub publitsistik uslubga yaqinroq bo'ladi. Ma'lum fan sohasiga doir atamalar qo'llanilsa ham lekin bu atamalar xalqqa tushunarli bo'lishi uchun izohlanadi. Sof ilmiy uslubning o'zi ham fan tarmoqlari bo'yicha bir-biridan farqlanadi. Masalan, matematika uslubi bilan tarix yoki adabiyotshunoslik uslubi bir xil emas. Tarix va adabiyotshunoslik uslubi publitsistik uslubga yaqinroq tursa, matematika fanining bayon qilish uslubida eng yuqori darajadagi mavhumlashtirish, turli xil formulalar, shakliy ifodalar orqali ilmiy xulosalarni bayon qilish kuchli bo'ladi. Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos terminlaridan foydalaniladi. Masalan, *jinoyat, jazo, afv, hukm, ozodlikdan mahrum etish, davlat tili, davlat chegarasi, unitar davlat, tergov, alibi, kodeks yurisprudensiya tarmoqlarida; jamiyat, ong, tafakkur, mushohada* falsafada va h.k. Ilmiy uslubda so'zlar asosan o'z ma'nosida qo'llanadi, qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo'laklar, kirish so'z va birikmalar, shuningdek, qo'shma gaplardan ko'proq foydalaniladi. Ilmiy uslubda qo'shma gaplardan *shu sababli, shunday bo'lsa, bunday vaqtda, shunga qaramasdan* kabi vositalar yordamida bog'lanuvchi ergash gapli qo'shma gaplar ko'proq ishlatiladi. Chunki bunday gaplar sabab va natija hamda boshqa munosabatlarni aniq ifodalay oladi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar bu uslubda kamroq ishlatiladi.


Ilmiy matn qurilishining mantiqiy izchil bo'lishi unda boshlanmalar, gap qismlarini bog'lash uchun *shunday qilib, shu sababli, bundan keyin, ko'rinadiki, shunga ko'ra, shu bilan birga,*

aytilganlarga ko‘ra kabi so‘z va so‘z birikmalari qo‘llaniladi. Ko‘p qo‘llaniladigan *birinchidan, bir tomondan, ikkinchi tomondan, xullas, demak* shaklidagi kirish so‘z va birikmalar ham yuqoridagi maqsadlarga xizmat qiladi. Ilmiy uslubda fikrning aniq bir shaxs tomonidan bayon qilinayotgani sezilmaydi. Unda ko‘proq fe‘lning majhul nisbatidan foydalaniladi: *dalillar keltirilgan, tajriba o‘tkaziladi, foydalaniladi*. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan xususiyatlar ilmiy uslubning lisoniy belgilaridir. Bu belgilar mazkur uslubning boshqa uslublardan farqini ko‘rsatuvchi asosiy xususiyatlar hisoblanadi.

1-mashq. *“Tadbirkorlikka keng yo‘l”, “Kichik korxonalar hayotidan”, “Agro olam” kabi amaliy mashg‘ulotlardan birida ilmiy-ommabop matn tuzing, matnning o‘ziga xos tomonlarini izohlang.*

2-mashq. *Uch guruhga bo‘lining: 1-guruh texnika, 2-guruh matematika, 3-guruh tilshunoslik faniga oid atamalarni yozib izohlasinlar.*

3-mashq. *Nutq uslublari haqida klaster tuzing va shu asosida matnni gapirib bering.*



Amaliy mashg'ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ilmiy uslub deganda qanday uslubni tushunasiz?
2. Ilmiy uslubning o'ziga xos belgilari qanday?
3. Ilmiy uslubning qanday turlari bor?

SOHAGA OID ATAMALAR LUG‘ATI:

Ilm – [bilim; fan] – o‘qish-o‘rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko‘nikma, ma’lumot. Ish – faoliyatning ma’lum bir sohasiga oid bilim, ta’limot, malaka. *Ilm o‘rganish*.
2. Ish – faoliyatning ilm bilan bog‘liq sohasi; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi. *Iqtisodiyot ilmi*.

Ilmiy – ilmga oid, ilmga qaratilgan. *Ilmiy asar*.

Faoliyat – [harakatchanlik; samaradorlik] – biror sohada olib boriladigan ish, mashg‘ulot, harakat. *Ilmiy faoliyat*.

Filial – [lot.filialis – o‘g‘ilga oid, o‘g‘ilniki] – biror yirik korxona, muassasa yoki jamoat tashkilotining mustaqil bo‘limi, sho‘ba. *Xorazm Ma‘mun akademiyasini O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Xorazm-Amudaryo mintaqasi filiali sifatida qaytadan tikladi*.

Tadqiqotchi – tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanuvchi shaxs. *Ilmiy tadqiqotchilar*.

Tashkilot – aniq tarkib va vazifasiga, ish dasturiga ega bo‘lgan ijtimoiy, xo‘jalik birlashmasi yoki davlat muassasasi. *BMTning Yunesko tashkiloti*.

Ensiklopedist – [fr. encyclopediste < yun. enkyklios paideytes – keng fanlar doirasi bo‘yicha murabbiy] – XVIII asrda yashagan, ilm-fanning ko‘p sohalarini egallagan ilg‘or fransuz olimlari, faylasuflari, yozuvchilari va publisistlari guruhiga mansub kishi (bu guruh 1751-1780-yillarda “Ensiklopediya” tuzgan va nashr etgan). *Ensiklopedist olim*.

Davr – [aylanish, navbat] – jamiyat taraqqiyotida yoki tabiatda muhim voqea, hodisa yuz bergan yoki o‘ziga xos xususiyati bilan ajralib turadigan ma’lum vaqt oralig‘i. *Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri*.

Olim – [ilmli, ma'lumotli] – fanning biror sohasi bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lgan kishi. *Iqtisodchi olim*. 2. Umuman, bilimli kishi. *Olim bo'lsang, olam seniki*.

Mutafakkir – [fikrlovchi, o'ylovchi] – chuqur falsafiy fikrlash iste'dodiga ega bo'lgan kishi, tafakkur egasi. *Mutafakkir olim*.

Homiy – [himoya qiluvchi] – biron tadbir yoki faoliyatni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko'rsatuvchi, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi jismoniy yoki yuridik shaxs. *Ma'muniy xorazmshohlar homiyligida*.

Akademiya – [yun. academia – afsonaviy qahramon Akadem nomi hamda Platon o'z ta'limotidan dars bergan, Afina yaqinidagi kichik o'rmon nomidan] – ilm, fan yoki san'atni rivojlantirish uchun tuzilgan, yuqori malakali olimlariga ega bo'lgan oliy ilmiy muassasa. *O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi*. 2. Ba'zi bir oliy o'quv yurtlarining nomi. *Soliq akademiyasi*.

Qaror – [to'xtam, hukm, xulosa; tub, asos] – biror ish, masala yuzasidan qabul qilingan xulosa; amalga oshirish lozim topilgan qat'iy fikr; ahd, to'xtam. *Qarorim qat'iy*. 2. Rasmiy organ, tashkilot, majlis, mansabdor shaxs va sh.k. ning biror ish, masala yuzasidan bamaslahat qabul qilgan to'xtami, hukmi. *Kafedra majlis qarori*.

Institut – [lot. institutum – o'rnatish, tuzish, ta'sis etish] – ba'zi oliy o'quv yurti va ilmiy-tekshirish muassasalarining nomi. *Moliya instituti*.

Iqtisodiyot – [xo'jalik masalalari; xo'jalik] – ijtimoiy tuzumning bazasi. Xalq xo'jaligi, ishlab chiqarish kuchlarining holatiga muvofiq keluvchi ishlab chiqarish munosabatlari. 2. Xo'jalik tarmoqlarining moddiy va moliyaviy tomonlarini o'rganadigan fan. *Respublikaning iqtisodiyoti*.

Universitet – [nem. universität<lot. universitas, universitatus – jami, barchasi; majmua] – tarkibida bir qancha yo‘nalishdagi fakultetlari bo‘lgan, ayni yo‘nalishlarda yuksak malakali mutaxassislar tayyorlaydigan ko‘p tarmoqli oliy o‘quv ilmiy muassasa. *Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.*

Kafedra – [yun. kathedra – o‘rindiqliq, kursi] – ma’ruza o‘qish, va’z aytish, axborot berish uchun mo‘ljallangan baland qurilma; minbar. 2. Oliy o‘quv yurtlarida bir yoki bir necha o‘zaro yaqin fanlar bo‘yicha ish olib boruvchi professorlar, o‘qituvchilar va ilmiy xodimlarning tashkiliy birlashmasi va shu birlashma joylashgan xona. *Bank ishi kafedrasi.*

Fakultet – [nem. fakultät<lot. facul – tatis – qobiliyat, imkoniyat] – oliy o‘quv yurtining ma’lum ixtisoslik bo‘yicha tegishli fanlar o‘qitiladigan bo‘limi. *Moliya fakulteti.*

Fan – [ilm, bilim; tarmoq] – tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda o‘zi erishgan natijalar bilan atrof- muhitga ta’sir ko‘rsatuvchi bilimlar tizimi. *Fan yutuqlari.* 2. Shunday bilimlar tizimining alohida tarmog‘i, yo‘nalishlari, sohalari. *Iqtisodiy fanlar.*

Ta’lim – [ilm berish; ma’lumot] – bilim berish, malaka va ko‘nikmalar hosil qilish jarayoni. 2. Ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo‘yicha egallanadigan, olinadigan ma’lumot va ko‘nikmalar majmui; bilim. *Oliy ta’lim.*

Talaba – [talab qiluvchi] – oliy yoki o‘rta maxsus o‘quv yurti o‘quvchisi. *Bank kolleji talabasi.*

Professor – [lot. professor – muallim, o‘qituvchi; murabbiy] – oliy o‘quv yurtlaridagi eng malakali o‘qituvchilarning, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlaridagi ilmiy xodimlarning ilmiy unvoni va lavozimi; shunday unvon va lavozimli shaxs. *Kafedra professori.*

O‘quv – o‘qish va o‘qitish bilan bog‘liq bo‘lgan, o‘qish va o‘qitishga taalluqli. *O‘quv soati.*

Xorijiy – [tashqi, ajnabiy] – mamlakatimizdan tashqaridagi, chet eldagi.

Xorijiy davlat. Xorijiy matbuot.

Yo‘nalish – Hayot, faoliyatdagi muayyan yo‘l. Ilm-fan va boshqa sohalarga xos oqim, ularning sohasi, tarmog‘i. *Ilm fanning biror yo‘nalishi.*

Muassasa – [idora, korxona, tashkilot] – xo‘jalik, savdo-sotiq ishlarining biror sohasini boshqaruvchi yoki ilmiy, ta’lim-tarbiya ishlarini olib boruvchi, belgili shtat va ma’muriyatiga ega bo‘lgan tashkilot. *Davlat muassasalari.*

AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN MAVZULASHTIRILGAN TESTLAR TO‘PLAMI

1. Maqsad ma’nosidagi qo‘shma gap qaysi qatorda berilgan?

- A) Gul barglari uchishadi, tushmayin deb qo‘lingga.
- B) Bu jasoratga sizni deb qo‘l urdim.
- S) Sizni gaplarimga tushundi, deb o‘ylabman.
- D) “Barchangizga omad!” deb tilak bildirishdi.

2. Qaysi qatordagi daraja-miqdor holining asosi shakldoshlik xususiyatiga ega?

- A) U aravaning Nuriddin minganini ko‘rib xiyla yengil tortdi.
- B) Bir boshing uchun muncha harakat qilmasang!
- S) Umr kechirmoq uchun bundan yaxshi sharoit bo‘ladimi?
- D) Ba’zida sen yig‘gan bolingdan to‘ygunimcha yeyman.

3. Quyidagi gaplarning qay birida ham yuklama, ham bog‘lovchi mavjud?

- A) Yig‘ilgan xaloyiq suron bilan yangi shahar tomon qo‘zg‘aldi.
- B) Gulnoz shundan keyin uch marta xat yozdi, lekin javob kelmadi.
- S) Bilasizmi, siz va biz bitta ariqdan suv ichamiz-a.
- D) Hali xabaring yo‘qmi? Asrora opam kasalxonadalar-ku!

4. Olimlarning e’tirof etishicha yer yuzida hozirgi kunda qancha til mavjud?

- A) 2000 ga yaqin
- B) 7000 ga yaqin
- S) 10000 ga yaqin
- D) 15000 ga yaqin

5. Tarixning barcha bosqichlarida ular dunyoga o‘zining borligini goh mardlik, jasorat bilan, goh tadbir-u oqilalik bilan bildirib, tanilib, tan oldirib kelganlar. Yasama so‘zlar soni nechta?

- A) 6
- B) 7
- S) 4
- D) 5

6. Yasama soʻz qaysi qatorda berilgan?

- A) ishni B) ixtirochi S) kiyingan D) oqish

7. Yasama ravish berilgan javobni toping.

- A) hozir, yayov, piyoda
B) noiloj, mardlarcha, yillab, erkakchasiga
S) astoydil, ertalab, aslo
D) olgʻa, atay, joʻrtaga

8. Qaysi qatorda boʻgʻin koʻchirish qoidasi buzilgan?

- A) trak-tor, da-raxt, qi-zil
B) ton-ggi, pi-shloq, bed-ana
S) bo-la-lar, chi-roy-li
D) ham-ma, mak-tab, te-atr

9. Qaysi javobda maʼnosi metafora usulida koʻchgan soʻz ajratib koʻrsatilgan?

- A) Gunohi ne edi, bu tilla boshning, gunohi ne edi porloq quyoshning
B) Togʻlardan shovullab oqib tushayotgan suvlar birlashib daryo hosil qilgan edi
S) Nozimjonning oʻn qoʻli oʻn hunar, hamma ishni eplaydi,– dedi usta ularga qarab.
D) Oshiqlar uxlaydi saharga tomon, Fuzuliy devonini boshiga qoʻyib

10. Tarkibida tovush oʻzgarishi yuz bergan yasama soʻzni toping.

- A) qoʻshigʻi, qumloq, oʻtroq B) tilagi, sayroqi, yamoq
S) boʻyoq, bilagi, oʻtloq D) taroq, qavogʻi, soʻroq

11. Umumxalq tilida nechta lahja bor?

- A) 3 ta B) 2 ta S) 4 ta D) 5 ta

12. Shart mayli shaklidagi fe'llar ...kerak ... so'zi bilan qo'llanilganda qanday ma'no anglashiladi?

- A) istak B) shart S) aniqlik D) gumon

13. Faqat yasama so'zlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) suvloq, o'yinchoq, qo'riqchi B) yurtim, faxrli, bog'cha
S) tilshunos, yozuv, ilmli D) bug'doy, pishiq, akam

14. Orttirma nisbatdagi fe'lni aniqlang.

- A) aytildi B) aytishdi
S) aytirdi D) orttirma nisbat yo'q.

15. Sintaktik usul bilan yasalgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) har doim, har kim B) sergul, karnaygul
S) tinchliksevar, muzyorar D) hammasi

16. Ibora ma'nosi xato berilgan qatorni toping.

- A) bir yoqadan bosh chiqarib – ahil bo'lib
B) do'ppisi yarimta – beg'am
S) qovog'i osilmoq – xafa bo'lmoq
D) qulog'i ding bo'lmoq – hurpaymoq

17. Ravish so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlang.

- A) kuz, uyqu, havo, foyda
B) biz, hech kim, bari, har narsa
S) mardlarcha, ohista, ertalab, bugun
D) chiroyli, uzun, buyuk, shirin

18. Sof ko'makchi qatnashgan qatorni aniqlang.

- A) Gapisirishdan avval o'ylab ko'rish lozim
B) Muxbirimiz telefon orqali xabar berdi
S) Barchasidan qovun soz, paykal uzra dumalar
D) Gap futbol o'yini ustida ketardi.

19. Nelordan soʻzlar kaftimdagi xarita. Maʼno koʻchish turini aniqlang.

- A) metonimiya B) metafora S) sinekdoxa
D) vazifadoshlik

20. Qoʻziqorin, tuyaqush, qizilishton, har bir kabi soʻzlar soʻzning tuzilish jihatdan qanday turiga mansub?

- A) sodda B) qoʻshma S) juft D) takroriy

21. Qaysi qatorda faqat feʼl soʻz turkumiga oid soʻzlar keltirilgan?

- A) kitob, bogʻcha, tuz B) ishla, ter, daraxt
S) yoz, gul, soya D) tara, kel, sana

22. 1995-yil 24-avgust sanasida qaysi qonun qabul qilingan.

- A) “Davlat tili toʻgʻrisida”gi qonun
B) “Lotin yozuvini joriy etish toʻgʻrisida”gi qonun
S) “Lotin yozuviga asoslangan imlo qoidalari”
D) toʻgʻri javob yoʻq

23. Ism sanaladigan soʻzlar qatorini aniqlang.

- A) oʻgʻlon, pushti, poya, borish, men
B) har bir, hech kim, har vaqt, har lahza
S) bormoq, qizil, kimdir, sholi, bugʻdoy
D) taq-tuq, evoh, albatta, yoki, -chi

24. Omonimi mavjud soʻz berilgan qatorni toping.

- A) shoʻra B) shofyorlik S) ona D) ochil

25. Soʻz birikmasi berilgan javobni toping.

- A) koʻylagi keng B) dimogʻi koʻtarilgan
S) qishloq sari D) matematika fani

26. Qaysi qatordagi sifat asosida faqat portlovchi tovushlar qatnashgan?

- A) Insonning aqli mushtidan ko‘ra qudratliroq.
- B) Nomus jondan ham qimmatroq.
- S) Dunyoda johillikdan dahshatliroq narsa yo‘q.
- D) Andishali muloqot – ulug‘lik belgisi.

27. Berilgan so‘zlarning qaysilari imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan?

- 1) yaxmalak; 2) qurol-yaroq; 3) haridor; 4) xo‘rsinmoq; 5) zoxiriy.
- A) 1, 2, 4 B) 1, 3, 4 C) 1, 4 D) 1, 4, 5

28. Qaysi gapda qayerda? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘z berilgan?

- A) Do‘stimda qiziqarli kitoblar ko‘p.
- B) Bahorda dala ishlari boshlandi.
- S) Mashinamizda maktabga keldim.
- D) Tadbirni maktabda o‘tkazdik.

29. Oddiy bir ishni qilishga odatlanmagan baquvvat va yosh yigitlarga qaraganda bu ishni bajarishga odatlangan kekxa va ojiz kishilar uni qiynalmay bajara oladi. Ushbu gapda qatnashgan fe‘llar haqida qaysi fikr to‘g‘ri emas?

- A) Ushbu gapda majhul nisbatdagi fe‘lning ravish holi vazifasini bajarishi kuzatiladi.
- B) Ushbu gapda qatnashgan tub fe‘llar aniq nisbatdagi fe‘llar sanaladi.
- S) Ushbu gapda tarkibida nisbat qo‘shimchasi mavjud bo‘lgan sodda yasama fe‘l qatnashgan.
- D) Ushbu gapda yasama fe‘llar ikki xil gap bo‘lagi vazifasini bajargan.

30. Leksikografiya bo'limida nima o'rganiladi?

- A) soʻzning atash maʼnolari B) soʻzning grammatik maʼnolari
S) lugʻat va uning turlari D) imlo qoidolari

31. Tobe soʻzida faqat til undoshlari ishtirok etgan otli birikmani aniqlang.

- A) imkoniyat yaratish B) maʼnaviy boylik
S) har bir yurt D) anglatadigan soʻz

32. Qaysi qatorda tasdiq maʼnosini bildiruvchi modal soʻz mavjud?

- A) masalan B) jumladan S) albatta D) darhaqiqat

33. Noadabiy qatlamga mansub soʻz berilgan qatorni toping.

- A) non B) bugʻdoy S) aka D) dadasi

34. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bogʻliq xatolik yoʻq?

- A) Oʻqituvchimiz shunday dedilar, tafakkur va til insoniylik belgisi.
B) Yaxshi feʼl bilan kishilar koʻnglini olib, oʻzingni yomon qiliqlardan saqlab yasha, dedi Ahmad Yugnakiy.
S) Voqealar, - deb aytgan edi Mirzo U lugʻbek, - Samo gumbaziga qarab emas, odamlarning intilishi bilan roʻy beradi.
D) Oʻgʻlingiz qayerda edi, deb soʻradi notanish kishi. Sizga yordam bermaydimi?

35. Qaysi qatordagi soʻzlar xato yozilgan?

- A) yenchmoq, qayerilish, yengi B) yemoq, yer, yelka
S) yechim, kerak, terak D) nahorgi, kechki, uzuk

36. Uydan chiqib ketish maqsadida shoshilib yurdi. Birdan temir darvoza oldida kuzatib turgan shubhali kishiga ko‘zi tushdiyu qo‘rqqanidan ortiga qayrildi va tez-tez yurib uyiga qaytib kirdi. Ushbu gapda hollar haqida to‘g‘ri hukmni toping.

- A) Fe‘l bilan ifodalangan hollarning barchasi bir turga oid.
- B) Ot, fe‘l, ravish bilan ifodalangan hollar qatnashgan.
- S) Tobe bog‘lanishlarda ham hokim, ham tobe qism vazifasini bajargan sabab holi qatnashgan.
- D) Ma‘nosiga ko‘ra holning faqat ikki turi qatnashgan.

37. Atash ma‘nosiga ega bo‘lmagan mustaqil so‘z turkumi?

- A) ot so‘z turkumi
- B) sifat so‘z turkumi
- S) olmosh so‘z turkumi
- D) fe‘l so‘z turkumi

38. Ismning munosabat shakllari qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

- A) kelishik, egalik, -man, -san, -dir
- B) ko‘plik, kichraytirish, egalik
- S) zamon, mayl, shaxs-son
- D) egalik, kelishik ko‘plik

39. Hokim so‘zi ot bilan ifodalangan so‘z birikmalarini aniqlang.

- A) gulning qizili, hammadan tez, o‘qimishli bola
- B) navro‘z bayrami, o‘rik hidi, qattiq aziyat
- S) sarson aylan, akam o‘quvchi, qiz o‘rtoq
- D) o‘sgan nihol, kitobni qadrlash, oy yuz

40. Ogahiy o‘zbek tiliga tarjima qilgan “Haft paykar” asarining muallifi kim?

- A) Hiloliy
- B) Vosifiy
- S) Koshifiy
- D) Nizomiy

41. So‘z birikmasini toping.

- A) erta bahor B) ukam bilan S) imzo chekmoq
D) qalam va sumka

42. Paronimlik juftlik berilmagan qatorni aniqlang.

- A) bot-bod B) ganch-ganj S) ham-xam
D) podsho-podshoh

43. Yasama ravish qatnashgan gapni toping.

- A) Mashina sekinlab, to‘planganlarning oldida to‘xtadi.
B) Kunduzi uxlaydi, kechasi ishlaydi.
S) Har kungi g‘urbat Tolibni ezdi.
D) Shu asnoda ular yo‘lga tushdilar.

44. Qaysi javobda paronimlar berilmagan?

- A) oxur-axir-oxir B) zirak-ziyrak
S) iztirob-istirob D) nufus-nufuz

45. Yasama so‘zni aniqlang.

- A) uxlamog B) uhlamoq
S) buklamoq D) savalamog

46. Mo‘ylovning guruhida 40 ta o‘quvchi bor edi. Ma’no ko‘chish turini aniqlang.

- A) metonimiya B) sinekdoxa S) vazifadoshlik
D) kinoya

47. Ishchilardan so‘zi nechta ma’noli qismga bo‘linadi?

- A) 2 ta B) 3 ta S) 4 ta D) 5 ta

48. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog‘liq xatolik mavjud emas?

- A) Hunari va odobi bo‘lmagan kishidan, - dedi Mahmud Qoshg‘ariy.

- B) Otaxon mehri tovlanib, “rahmat, ona qizim”, - dedi.
S) – Mullatlarni, elatlarni – deydi M.Ulug‘ova.
D) Qo‘shiq xalq Mulki, shuning uchun ham u yoqimlidir.

49. Xususiyat bildiruvchi sifatlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) kamtar, hozirjavob, dono B) chiroyli, baland, benuqson
S) yozgi, keng, quvnoq D) qadimiy, yozma, qishki

50. Qaysi so‘zdan kasb-hunar oti yasash mumkin?

- A) tarjimon B) ziyorat S) ko‘cha D) yangi

51. Sodda yig‘iq gap berilgan javobni toping.

- A) Qiziqarli asarni o‘qidim.
B) Yoqimli suhbatlarni anchadan beri kutaman.
S) Men o‘qidim, yozdim, yodladim.
D) Bugungi darsimizda o‘quvchilar faol.

52. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog‘liq xatolikka yo‘l qo‘yilmagan?

- A) Na qor, na yomg‘ir va na to‘fon – hech narsa ularni qo‘rqita olmadi.
B) Vazifamiz bilim maskanlarida hamisha a’lo o‘qish.
S) Bir tomoni tog‘, bir tomoni ko‘m-ko‘k dala.
D) Dugonam Sharifa ham mohir to‘quvchi.

53. Ot so‘z turkumiga oid so‘zlarni aniqlang.

- A) kuz, uyqu, havo, foyda
B) biz, hech kim, bari, har narsa
S) mardlarcha, ohista, ertalab, bugun
D) chiroyli, uzun, buyuk, shirin

54. Fe’lli so‘z birikmasi ishtirok etgan gapni aniqlang.

- A) Ularning ochiq-oydin fikr-mulohazalari ham buning yaqqol dalilidir.

B) Ezgulikka xizmat qiladigan asarlarni yaratish adabiyot uchun asosiy mezondir.

S) O‘zbek tilining yuksak taraqqiyoti yoshlarimizning salohiyati bilan bog‘liqdir.

D) Xalq o‘yinlari va tomoshalari milliy teatr san’atimizning tub ildizlaridir.

55. Kelishik qo‘shimchalarining vazifasi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) so‘z yasash B) tushlash S) turlash D) shakl yasash

56. Asosiy orfografik tamoyillar berilgan javobni ayting?

A) fonetik, morfologik va tarixiy-an’anaviy

B) shakli va farqlash

S) fonetik, shakli va farqlash

D) to‘g‘ri javob yo‘q

57. Paronimi bor so‘zlar qatorini toping.

A) asl, amr, oy B) mola, angar, servis

S) murabba, gal, daho D) uy, sayr, ramz

58. Kim // nisbiy so‘zi qanday ergashgan qo‘shma gaplar tarkibida qo‘llanishi mumkin?

A) aniqlovchi ergash gap B) ega ergash gap

S) to‘ldiruvchi ergash gap D) barcha javob to‘g‘ri

59. Qaysi javobda ravish turkumiga oid o‘zaro zid ma’noli so‘zlar qatnashgan?

A) Bo‘taboy aka avval yaxshi gapirdi, so‘ngra baqirib berdi.

B) Baxtiyor oqni qoradan ajratadigan bo‘lib qoldi.

S) Do‘st achitib gapiradi, dushman kuldirib gapiradi.

D) Yaxshi so‘z jon ozig‘i, yomon so‘z bosh qozig‘i.

60. Moslashuvli tobe bog‘lanishga misol berilgan qatorni toping.

- A) rozi bo‘lmoq
- B) yillarni qadrlamoq
- S) Ma’rufbek Azimqulov keldi.
- D) mening oilam

61. Na...na yordamchisi yuklama vazifasida qo‘llangan qatorni toping.

- A) Na so‘nggiga yetoldi ishning, na dunyoni anglab ulgurdi.
- B) Na otam, na onam, na oilam bor.
- S) Na saljuq, na Chingiz qilmadi shafqat.
- D) Na sen bording, na u bordi.

62. Buqalamun obrazi qaysi asarda uchraydi?

- A) “Yulduzli tunlar”
- B) “Ulug‘bek xazinası”
- S) “Sohibqiron”
- D) “Muqanna”

63. Qanday otlar atoqli otga mansub emas?

- A) tarixiy sana va bayram nomlari
- B) suv havzalari nomi
- S) mavhum otlar
- D) joy nomlari

64. Hayqiraman tog‘lar bag‘ridan. Gap qanday bo‘laklardan tuzilgan?

- A) kesim, aniqlovchi, hol
- B) kesim, ega, hol
- S) kesim, ega, to‘ldiruvchi
- D) kesim, aniqlovchi, ega

65. Nutq uslublaridan qasi biri faqat og‘zaki shaklga ega?

- A) ilmiy uslub
- B) badiiy uslub
- S) oddiy so‘zlashuv uslubi
- D) rasmiy uslub

66. Faqat lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimcha olgan so‘zlar qatorini aniqlang.

- A) kulimsiramoq, uylardagi, borguncha
- B) qaynatma, aybsitmoq, topilgan
- S) giyohlarni, ajratma, keltirish

D) asabiylashmoq, kelinchak, burchak

67. Qaysi banddagi gapda II shaxs ma'nosi ifodalangan?

A) Har kuni shu yo'ldagi transportda kelamiz.

B) O'zlarining bu xususdagi fikrlari qanday?

S) Ko'rgan kishining ko'zi quvonadi.

D) Kamina aytdi-qo'ydi.

68. Qaysi qatordagi "bosh" so'zi atama sanaladi?

A) U hamisha har ishda bosh bo'ladi

B) Biz ko'chaning boshiga yig'ildik.

S) BMT bosh kotibi – Pan Gi Mun

D) Boshliqlar barchasi jam bo'lishdi.

69. Saida goh afsuslanib, goh kuyib va goh kulib gapirib berdi.

Gapda qaysi gap bo'lagi uyushgan?

A) kesim

B) aniqlovchi

S) hol

D) ega

70. Qaysi qatorda harakatning tez va oson bajarilishini bildiruvchi ko'makchi fe'l berilgan?

A) olmoq

B) bermoq

S) yubormoq

D) ko'rmoq

71. Kasr son berilgan qatorni toping.

A) o'ntacha bola hovli tozalash bilan band

B) 25-maygacha o'qishlar tugaydi.

S) Nima bo'lgani ikkisigagina ayon.

D) Kasr son yo'q.

72. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

A) istakan, istol, istul

B) metal, gram, konteskt

S) Ernest, Engls, Charls

D) disk, bank, tank

73. Tire o‘xshatish munosabati tufayli qo‘yilgan javobni toping.

- A) Qor yog‘di – don yog‘di.
- B) Qo‘shning tinch – sen tinch.
- S) Bulbul chamanni sevar, odam – vatanni.
- D) O‘nning yarmi – besh.

74. Tinish belgilarni o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi?

- A) orfografiya
- B) fonetika
- S) punktuatsiya
- D) grafika

75. Bo‘g‘iz undoshi tushirib qoldirilgan so‘zlar qatorini toping.

- A) Bamayli..otir, ta..sin, maza..
- B) So..ibqiron, ..odisa, mar...amat
- S) ..usumat, so..ta, da..lsizlik
- D) Xar..asha, xo..lamoq, majru...

76. Yasama so‘z berilgan javobni toping.

- A) mevalar
- B) mevazor
- S) mevaning
- D) mevani

77. Yasama so‘zni aniqlang.

- A) Lutfiy
- B) mehnatkash
- S) mushtipar
- D) ochib tashlamoq

78. Qaysi misralar bilan boshlangan g‘azal Fuzuliy qalamiga mansub bo‘lib, aruzning hazaj vaznida yozilgan.

- A) Kun hamalg‘a kirdi ersa, keldi olam Navro‘zi
- B) Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o‘landin so‘r
- S) Doda keldim ey salotin sarvari dodim eshit
- D) G‘amzasin sevding, ko‘ngul, joning kerakmasmu sanga.

80. Teng bog‘lanish mavjud qatorni toping.

- A) Barchinning otasi B) sen bilan S) po‘lat ot
D) men, sen

81. “Uch” so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan qatorni toping.

- A) 3 baho olish yigitlarga xos jihat.
B) Uch, qushcha, hur qo‘shig‘im bo‘lib.
S) Endi osmonda uchasan Tohir, o‘qishga kiribsan.
D) Nayzaning uchi sinib qoldi, essiz!

82. Qaysi qatordagi so‘zlar imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan?

- A) avtomat, iztirob B) aftobus, tafsif
S) aftomobil, kareys D) jaxon, tatqiqot

83. Oraliqdagi so‘zlar berilgan qatorni toping?

- A) ot, sifat , fe‘l
B) ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama
S) ravish, olmosh, sifat
D) undov, taqlid va modal so‘zlar

84. Jarangli undoshlar qatorini aniqlang.

- A) p, ch, s B) b, n, m S) y, t, d D) i, q, a

85. Gap bo‘laklari tartibi quyidagi shartli belgilarga mos keladigan qo‘shma gapni aniqlang. To‘ldiruvchi – kesim – aniqlovchi – ega – aniqlovchi – kesim

- A) Kitoblar o‘qing, chunki badiiy asarlar insonning dunyoqarashini shakllantiradi.
B) Bog‘da taralar gullarning muattar bo‘yi yangraydi, qushlarning sho‘x navosi
S) Shuni bilingki, shirinsuxan oqko‘ngil insonlar mevali daraxtga o‘xshaydi
D) Shunga aminmanki, mehnatsevar, zahmatkash insonlar odamlarning...

86. Qaysi gapda to'ldiruvchi vazifasida kelgan faoliyat-jarayon otlari ishtirok etgan?

- A) Ancha ovoragarchilik bilan bir mashina paxta olib qaytdik.
- B) O'rindiqlarda o'tirgan ayol bolakayga mehribonlik bilan tikilib turardi.
- S) Yaqinda tumanimizdagi 5 ta bolalar bog'chasida "jajjilar" ko'rik-tanlovi o'tkazildi.
- D) Shomurod yilqichilikni yoqtiradi, dehqonchilikni esa xushlamaydi.

87. Islom sensiz ham, sen bilan ham g'alaba qozonadi. Lekin sen islomsiz aniq mag'lub bo'lasan. Gapda nechta yasama so'z mavjud?

- A) 5 ta B) 3 ta S) 4 ta D) 6 ta

88. Ismlar guruhiga mansub so'zlar qatorini toping.

- A) kitobxon, aks etayotgan, hech qachon
- B) qatnashdi, nomard, aqling, g'imir-g'imir
- S) charm, nafarmon, muattar, mardona
- D) hazil, osilganacha, uchib, qirq to'rt

89. Modal so'z ishtirok etgan gapni aniqlang.

- A) – Tss, – dedi Sayyora barmog'ini labiga bosib.
- B) Xayriyat, siz ham bizga hamrohlik qilar ekansiz.
- S) O', ma'lumotli ekansiz-ku!
- D) – Hey, menga qara, Gulchehra, – dedi u.

90. Bosh gap qismida imloviy jihatdan xato yozilgan aniqlovchi qatnashgan ergashgan qo'shma gapni aniqlang.

- A) Rejadagi zarur ishlarni amalga oshirishga vaqt yetkaza olmayapmiz, sen bo'lsa dam olmoqchisan.
- B) Bundan shu ma'lum bo'ldiki, uydirma gapga hech kim ishonmaydi.

S) Muvaffaqiyatlarimizning siri shundaki, yoz bo‘yi tinimsiz mehnat qildik.

D) Odob shunday tojki, u farosatlilar boshini bezaydi.

91. Lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar qatorini aniqlang.

A) -iy, -la, -chi, -cha

B) -ib, -guncha, -gani, -lar

S) -gi, -si, -li, -be

D) -im, -ing, -ngiz

92. Xalqaro tillar berilgan javobni ko‘rsating?

A) o‘zbek, tojik, ingliz, rus va qozoq

B) ingliz, rus, ispan, fransuz, arab va xitoy

S) nemis, qozoq, turkman, xitoy

D) boshqird, qozoq, arab va xitoy

93. Qismlari o‘zaro ko‘makchi yordamida bog‘langan fe‘lli birikmalarni aniqlang.

1) yurt deya kurashmoq; 2) yo‘lga qadar; 3) kitob kabi qadrli; 4) vatan uchun jon bermok; 5) dala tomon ketmoq; 6) uyga taklif qilmoq.

A) 3, 5, 6

B) 1, 3, 4, 5

S) 1, 2, 4, 5, 6

D) 1, 4, 5

94. Kamtar bo‘l, chunki kamtarlik insonni kamolotga boshlaydi. Qo‘shma gap turini aniqlang.

A) bog‘lovchisiz qo‘shma gap

B) bog‘langan qo‘shma gap

S) ergashgan qo‘shma gap

D) ko‘chirma gap

95. Tarkibida imloviy xato yozilgan bog‘langan qo‘shma gapni aniqlang.

A) Salimjon unchalik ravon o‘qiy olmas edi, ammo uning husnixati uncha chiroyli emas edi.

B) Oradagi masofa yiroq, ammo mehr bizni bog‘lab turar edi

S) Podsho asrni afv etibdi. Bu esa uning vaziriga yoqmabdi

D) Dilda e’tiqod butun bo‘lsa, naslimiz aslo yo‘qolmagay.

96. Telbalarga ta'zim qiling! Yuzta donishmand aytolmagan haqiqatni bitta telba aytadi. Gapda jarangli, portlovchi lab undoshlari nechta?

- A) 5 B) 4 S) 6 D) 7

97. Qaysi qatorda qo'llangan o'lchov so'zi alohida olinganda predmet nomini bildiradi?

- A) To'rt nafar o'rtog'im keldi.
B) Uyning orqasida 4 so'tix maydon bor
S) Uygacha yuz qadam qoldi
D) Shahargacha uch chaqirim bor.

98. Qaysi qatorda so'z yasovchi qo'shimchalar berilgan?

- A) -il, -gan, -di B) -ch, -inch, -gun
S) -ni, -im, -ga D) -chi, -li, -ib

99. – Imtihonlarga tayyorgarlik ko'ryapsizmi?

– Ha tayyorlanayapmiz.

Gapdagi - ha so'zining turkumi nima?

- A) undov so'z B) tasdiq-inkor so'z
S) taqlid so'z D) ot turkumida

100. Tovush almashinuvi bo'lgan so'zlarni toping?

- A) qishlog'im, angla, etigi B) burni, shahri, pasaymoq
S) unga, issiq, qattiq D) To'g'ri javob yo'q

111. ng harfi qaysi qatordagi so'zlarda n va g hisoblanadi?

- A) ong, bong, tong B) manglay, tinglamoq, tanglay
S) kongress, ingliz, shtanga D) ingramoq, jiringlamoq, arang

112. Siz ham shuni yaxshi bilib qo'yingki, bitta so'zning tig'i yuzta shamshirdan o'tkirroqdir. Ushbu ergashgan qo'shma gapning ergash gap qismidagi gap bo'laklarining joylashuv

tartibi shartli belgilar asosida to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang.

- A) aniqlovchi / aniqlovchi / ega / aniqlovchi / to‘ldiruvchi / kesim
- B) ega / to‘ldiruvchi / hol / kesim
- S) aniqlovchi / aniqlovchi / ega / hol / kesim
- D) hol / aniqlovchi / ega / hol / to‘ldiruvchi / kesim

113. Vazifadosh ko‘makchilar qatorini aniqlang.

- A) sari, ko‘ra, qaramay, singari
- B) uchun, tufayli, uzra, haqida
- S) orqali, bilan, sayin, keyin
- D) ko‘ra, qarab, deb, atab

114. Shunday odamlar borki, vijdonini pulga sotadi. Qo‘shma gap turini toping.

- A) ega ergash gap
- B) to‘ldiruvchi ergash gap
- S) aniqlovchi ergash gap
- D) kesim ergash gap

115. Qaysi maqolda ikkita bitishuvli birikma mavjud?

- A) Aqlsiz do‘stga kular, aqlli do‘stini suyar.
- B) Qardoshingni yomonlab, qaydan tuqqan toparsan.
- S) Issiq ovqat, issiq non dasturxonga tortildi.
- D) Nomardga yalinma, bir baloga chalinma.

116. Qaysi qo‘shimcha orqali so‘z yasalganda asosda doimo o‘zgarish ro‘y beradi?

- A) -q
- B) -v
- S) -a
- D) -ar

117. So‘z birikmasi berilgan javobni ko‘rsating?

- A) kitobni o‘qimoq
- B) daftar va qalam
- S) oqqush
- D) barcha javob to‘g‘ri

118. Holat ravishi berilgan javobni toping.

- A) ko‘p, oz, to‘la B) qo‘qqisdan, qatorasiga, piyoda
S) tez, uncha, aslo D) ancha, mo‘l, sekin

119. Oltin va kumushi bo‘lmagan odam kambag‘al emas, balki kasb-hunari bo‘lmagan odam kambag‘aldir. Gap qo‘shma gapning qaysi turiga mansub?

- A) ergashgan qo‘shma gap B) bog‘lovchisiz qo‘shma gap
S) bog‘langan qo‘shma gap D) aralash murakkab qo‘shma gap

120. Qaysi qatordagi so‘zlarning barchasi to‘g‘ri yozilgan?

- A) Sinf sardori bo‘lgan voqeani ustozga yetkazish uchun tashqariga chiqib ketdi.
B) Bobom shunaqa: ko‘p gapiradigan odamni hech yoqtirmaydilar.
S) Har bir voqea va hodisaga katta mas’uliyat bilan yondashishimiz kerak.
D) Uning uzoq yillar davomida to‘plagan obro‘-e’tiboriga dog‘ tushirishga yo‘l qo‘ymayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son farmoni.; Toshkent sh., 2020-yil 20-oktabr.
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent – “O‘zbekiston”-2016. 56 -B.
3. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent – “O‘zbekiston”.-2016. 488-b.
4. Aminov M., Madvaliyev A. va boshqalar. “Ish yuritish”, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti. Toshkent, 2014.
5. A.Nurmanov va boshqalar “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” T.; 2010
6. E.Qilichev. Hozirgi O‘zbek adabiy tili (bakalavrlar uchun ma’ruzalar matni), Buxoro, 1999.
7. Mengliyev B. Xoliyorov O‘. “O‘zbek tilidan universal qo‘llanma” 3-nashr – “Fan nashriyoti”, T: 2011
8. Qo‘ng‘urov R. va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiya asoslari. “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent, 1992-yil.
9. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. “O‘qituvchi”, Toshkent, 2005.
10. Sh.Raxmatullayev va boshqalar. O‘zbek tilining qisqa etimologik lug‘ati I va II qismlar. — Toshkent: Tosh.DU nashriyoti, 1997.
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” nashriyoti, Toshkent, 2006
12. Do‘stmuhammedov J. Inglizcha-o‘zbekcha-ruscha iqtisodiyot atamaları lug‘ati. “O‘zbekiston” nashriyoti, Toshkent, 1994.
13. Ergashev T. Iqtisodiy atamalarning o‘zbekcha-inglizcha-ruscha lug‘ati, “Sharq” nashriyoti, Toshkent, 2001
14. Kasimova M., Djabbarova Sh. Iqtisodiy terminlarning qo‘llanilishi: muammolarva yechimlar (maqola). “Iqtisodiy va

innovatsion texnologiyalar”(www.iqtisodiyot.uz) ilmiy elektron jurnali. №5, sentabr-oktabr, 2017.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Meva va sabzavotlardan olingan sharbat mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi 2020-yil 24-mart 119-son qarori.

16. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti atamalarining ruscha-o‘zbekcha lug‘ati, “Yozuvchi” nashriyoti, Toshkent, 1994.

Axborot manbalari

1. <http://www.stat.uz/> – O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi.

2. <http://www.press-service.uz/> – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.

3. <http://www.lex.uz/> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

4. [http:// www. Ziyonet.uz.](http://www.Ziyonet.uz)

5. <http://www.agro.uz/> – O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi.

6. <http://agriculture.uz/> – O‘zbekiston agroaxborot tizimi portali.

7. <http://uza.uz/> – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi.

8 . <http://cer.uz/ru/> – Iqtisodiy tatqiqotlar markazi.

M U N D A R I J A

1	1-amaliy mashgʻulot. Umumxalq tili va adabiy til. Oʻzbek tilining taraqqiyot bosqichlari	3
2	2-amaliy mashgʻulot. Fonetika va grafika. Grafikaning oʻziga xos xususiyatlari	5
3	3-amaliy mashgʻulot. Soʻzlarning maʼnoli qismlari	13
4	4-amaliy mashgʻulot. Leksikologiya. Soʻz va uning atash maʼnolari	16
5	5-amaliy mashgʻulot. Lugʻat va ularning turlari	21
6	6-amaliy mashgʻulot. Soʻz turkumlari	24
7	7-amaliy mashgʻulot. Soʻz birikmasi sintaksisi	40
8	8-amaliy mashgʻulot. Gap va uning ifodalanishi	44
9	9-amaliy mashgʻulot. Tinish belgilari	55
10	10-amaliy mashgʻulot. Sohaviy atama va soʻzlarning kelib chiqishi hamda ularning vazifaviy xususiyatlari	69
11	11-amaliy mashgʻulot. Sohaviy atamalar va soʻzlarning boyib borish usullari	80
12	12-amaliy mashgʻulot. Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari. Oʻzbek adabiy tilida unli va undosh harflar imlosi	85
13	13-amaliy mashgʻulot. Oʻzbek adabiy tilida asos va qoʻshimchalar imlosi	92
14	14-amaliy mashgʻulot. Oʻzbek adabiy tilida qoʻshib yozish imlosi	98
15	15-amaliy mashgʻulot. Oʻzbek adabiy tilida chiziqcha bilan yozish	99
16	16-amaliy mashgʻulot. Oʻzbek adabiy tilida ajratib	102

	yozish imlosi	
17	17-amaliy mashgʻulot. Oʻzbek adabiy tilida bosh harflar imlosi	105
18	18-amaliy mashgʻulot. Oʻzbek adabiy tilida koʻchirish qoidalari	109
19	19-amaliy mashgʻulot. Adabiy til meʼyorlari. Fonetik va talaffuz meʼyorlari	114
20	20-amaliy mashgʻulot. Imloviy va grammatik meʼyorlar	117
21	21-amaliy mashgʻulot. Lugʻaviy va semantik meʼyorlar	121
22	22-amaliy mashgʻulot. Ogʻzaki va yozma nutqning oʻziga xosligi	126
23	23-amaliy mashgʻulot. Adabiy til va nutq uslublari	132
24	24-amaliy mashgʻulot. Ilmiy uslubda atamalarning qoʻllanilishi	142
*	Sohaga oid atamalar lugʻati	146
*	Amaliy mashgʻulotlashtirilgan testlar	150
*	Foydalanilgan adabiyotlar	169

СОДЕРЖАНИЕ

1	1-практическое занятие. Общенародный и литературный язык. Этапы развития узбекского языка	3
2	2-практическое занятие. <i>Фонетика и графика</i> . Своеобразные особенности графики.	5
3	3-практическое занятие. Значимые части слов.	13
4	4-практическое занятие. Лексикология. Слово и его номинативное значение	16
5	5-практическое занятие. Словари и их виды.	21
6	6--практическое занятие. Части речи	24
7	7-практическое занятие. Синтаксис словосочетания.	40
8	8-практическое занятие. Предложение и формы его выражения	44
9	9-практическое занятие. Пунктуация. Знаки препинания	35
10	10-практическое занятие. Возникновение отраслевой терминологии и особенности функционирования.	69
11	11-практическое занятие. Отраслевая терминология и способы обоготения слов.	80
12	12-практическое занятие. Основные орфографические правила узбекского языка. Правописание гласных и согласных букв узбекского языка.	85

13	13-практическое занятие. Правописание корня и окончаний в узбекском языке.	92
14	14-практическое занятие. Правописание слов с добавлением в узбекском литературном языке.	96
15	15 - практическое занятие. Правописание слов через тире в узбекском литературном языке	99
16	16- практическое занятие. Правила отделение слов в узбекском литературном языке	102
17	17- практическое занятие. Правописание заглавных букв в узбекском литературном языке	105
18	18- практическое занятие. Правила переноса слов в узбекском литературном языке	106
19	19- практическое занятие. Нормы литературного языка. Фонетические и орфоэпические нормы.	114
20	20-практическое занятие. Нормы правописания и грамматики.	117
21	21-практическое занятие. Словарные и семантические нормы.	121
22	22--практическое занятие. Своеобразие устной и письменной речи.	126
23	23 -практическое занятие. Методы литературного языка и речи	132
24	24--практическое занятие Применение	142

	терминов в научном стиле.	
*	Словарь терминов (по отраслям)	146
*	Практические тесты	150
*	Использованная литература	169

CONTENTS

1	1st practical exercise. Universal language and literary language. Uzbek language development stages	3
2	2nd practical exercise. Phonetics and graphics. Specific features of graphics	5
3	3rd practical exercise. Meaningful parts of words	13
4	4th practical exercise. Lexicology. The word and its synonyms	16
5	5th practical exercise. Vocabulary and their types	21
6	6th practical exercise. Phrases	24
7	7th practical exercise. Syntax of the phrase	40
8	8th practical exercise. Sentence and its expression	44
9	9th Practical exercise. Punctuation.	35
10	10th practical training. The origin of field terms and words and their functional characteristics	69
11	11th practical training. Methods of enrichment of field terms and words	80
12	12th practical training. Basic spelling rules of the Uzbek language. Spelling of vowels and consonants in Uzbek literary language	85
13	13th practical training. Spelling of bases and adverbs in the Uzbek literary language	92
14	14th practical training. Addition spelling in Uzbek	96

	literary language	
15	15th practical training. Writing with hyphens in Uzbek literary language	99
16	16th practical training. Spelling in Uzbek literary language	102
17	17th practical training. Spelling of capital letters in Uzbek literary language	105
18	18th practical training. Translation rules in Uzbek literary language	109
19	19th practical training. Standards of literary language. Phonetic and pronunciation standards	114
20	20th practical training. Spelling and grammar standards	117
21	21th Practical exercise. Lexical and semantic norms	121
22	22th Practical exercise. Specificity of oral and written speech	126
23	23th Practical exercise. Literary language and speech styles	132
24	24th Practical exercise. Use of terms in the scientific method	142
*	Glossary of industry terms	146
*	Practice tests	150
*	References	169

O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligining 2023 yil "17" Iyul
dagi "314"-sonli buyrug'iga asosan

Sh.A.Bazarov

(muallifning familiyasi, ismi-sharifi)

60810700, 60810900, 60811000, 60811100, 60811200,

(ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi))

60811800, 60812000, 70811901

ning
talabalari (o'quvchilari) uchun tavsiya etilgan

Qishloq xo'jalik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan

(o'quv adabiyotining nomi va turi: darslik, o'quv qo'llanma)

talabalarga mo'ljallangan o'zbek tilining sohada

qo'llanilishi fanidan amaliy mashg'ulotlar

ga
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr
etishga ruxsat berildi.

Vazir



I.Abduraxmonov

№ 314 - 562

[illegible]

SHERALI BAZAROV

O‘ZBEK TILINING SOHADA QO‘LLANILISHI

(O‘quv qo‘llanma)

Muharrir:	Alisher M UQIMOV
Mas’ul muharrir:	Adolat MO‘MINOVA
Texnik muharrir:	Juma SHAYMATOV
M usahhih:	Gulchehra RAHMATOVA
Sahifalovchi:	Zulfiya TURSUNOVA

Nashriyot litsenziyasi AI № 013. 20.07.2018.

Bosishga 8.02.2024-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/16.

Ofset qog‘ozi. TimesUZ garniturası. Shartli bosma tabog‘i 11,25.

Nashr bosma tabog‘i 10,46. 1946028-sonli shartnoma 231-sonli buyurtma. Adadi 150 nusxada. Erkin narxda.

NASHRIYOT VA BOSMAXONA MANZILI:

“Surxon-nashr” nashriyoti Termiz shahri,

“Ayritom” ko‘chasi, 25/15-uy.

Tel: (+998 55) 451-24-74